

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Jabbor OMONTURDIYEV
Anvar OMONTURDIYEV

HOZIRGI O'ZBEK
ADABIY TILI
(qo'shma gap va punktuatsiya)

Filologiya fakultetlari bakalavrlari, magistrari va aspirantlari
uchun qo'llanma

IV

Hozirgi o'zbek adabiy tili
(qo'llanma)

Universitet Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari doktori,
professor **M.A.Asqarova**

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori,
professor **D.S.Qulmamatov**,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent **B.Umurqulov**

SO'ZBOSHI

Ta'limning samaradorligi, birinchidan, voizning bilimiga, pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, bu, o'quv jarayonining qanday tashkil qilinganligi, o'quv moddiy texnik bazasining qay darajada yaratilganligi – o'quv qurollar: darslik, qo'llanma, dastur va har xil ko'rgazmalarning muhayyoligiga bog'liq. Lekin Respublikamizning ko'pgina joylarida o'qitishning mana shu vositalari zamon talabi darajasida ekanligi ilmiy jamoatchilikka ma'lum. Bu kamchiliklar ro'kach qilinib, hozir ham ma'ruzaning “diktovka” shaklidan voz kechilmayotganligi kuzatiladiki, bu, birinchidan, tinglovchining, hatto voizning ham passivlashib ketishiga, faqat konspekt bilan chegaralanib qolishiga, ikkinchidan, diktovkali “ma'ruza” berilgan soatdan to'g'ri foydalana olmay qolishga sabab bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, dars sifatiga putur yetkazmoqda.

“Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi” va “Ta'lim to'g'risida”gi Qonundan kelib chiqib ko'pgina sohalar, jumladan, o'zbek tilshunosligining bo'limlariga doir tuzilgan darslik va qo'llanmalar, ma'ruza matnlari yuqorida qayd qilingan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etishga ma'lum darajada imkon beradi.

“Qo'shma gap va punktuatsiya”ga bag'ishlangan ushbu qo'llanma o'z tajribalarimizdan tashqari, respublikamizning mashhur olimlari: A.G'.G'ulomov, M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, K.Nazarov, I.Rasulov, A.Berdialiyev kabilarning qo'llanmalari asosida tuzildi.

Bakalavr dasturi hisobga olinib, ma'ruza materiallari qisqartirildi, sodda shaklda bayon etildi, ayrim murakkab o'rinlar soddalashtirildi, xalq og'zaki ijodidan, gazeta va jurnallardan ham misollar tanlandi.

Har bir mavzu reja asosida yoritildi va oxirida shu mavzuning asosiy mohiyatini aks ettiruvchi xulosalar berib borildi. Talaba ana shularga asoslanib amaliy mashg'ulotlarga hozirlik ko'radi, ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi.

Qo'llanmaning maqsadi voiz bilan tinglovchining mehnatini yengillashtirish, kursni osonlik bilan o'zlashtirish, fanga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni ta'minlashdan iboratdir.

Mualliflar

QO'SHMA GAP

reja:

1. Qo'shma gap haqida tushuncha.
2. Qo'shma gapga ta'rif.
3. Qo'shma gapning sodda gapdan farqi.
4. Qo'shma gap komponentlarining alohida olingan sodda gaplardan farqi.
5. Qo'shma gapga doir tahlil namunasi

Tilda qo'shma gap modelining mavjudligi ham sodda gap kabi nutqning tabiiy talabidir. Fikr ifodalash, nutq tuzish uchun gapning sodda shakli qanday zarur bo'lsa, qo'shma gap shakli ham shunday zarurdir. Biroq bu nutqiy birliklarning har ikkalasi, kommunikativ (aloqalaralashuv) vazifa ifodalashidan qat'i nazar, mazmun va tuzilishi jihatidan farqli hodisalardir.

Qo'shma gap tuzish uchun, birinchidan, kamida ikkita sodda gap bo'lishi, ikkinchidan, bu sodda gaplar mazmunan munosabatga kirishgan bo'lishi kerak. *Meni kutgil va men qaytarman* (K.Simonov). *Qalbim chinni piyola, chertmang, aka* (Q.). *Sen kelmasang, kelmaydi bahor* (Q.).

Demak, qo'shma gaplar mazmunan mos kelmaydigan har qanday gaplarning yonma-yon qo'yilishidan yuzaga kelmaydi. *Xavo qirq daraja issiq, qo'ylar sovuqdan qirilmoqda. Bu yil yomg'ir ko'p yoqqanligi uchun, ekinlar qurib ketdi* deb bo'lmaydi, albatta.

Uchinchidan, qo'shma gaplar birdan ortiq sodda gaplarning ma'lum grammatik aloqaga kirishishidan tuziladi. Bunda qo'shma gapning bog'langan, bog'lovchisiz, ergash gapli turlari shakllanadi (yuqoridagi uchta misolga qarang).

To'rtinchidan, yonma-yon kelgan birdan ortiq sodda gaplar mazmunan bir-biriga bog'langan taqdirda ham, yaxlit, umumiy birlashtiruvchi intonatsiyaga ega bo'lmasa, qo'shma gap shakllanmagan bo'ladi. Qiyoslaylik: *Bahor keldi. Dalalar ko'm-ko'k* (alohida sodda gaplar). *Bahor keldi, dalalar ko'm-ko'k* (qo'shma gap). Keyingi holatda gaplar orasida nisbiy tugallangan intonatsiya (ohang) bo'lib, birinchi gapning mazmuni ikkinchi gapning mazmuni orqali tasdiqlangan.

Demak, qo'shma gapning shakllanishidagi yana bir muhim belgi birlashtiruvchi intonatsiyadir.

Yuqoridagilardan qo'shma gapning quyidagicha ta'rifi kelib chiqadi: Ikki va undan ortiq sodda gaplarning (yoki komponentlarning) mazmun va grammatik munosabatidan tashkil topgan, bir butun birlashtiruvchi,

yakunlovchi intonatsiyaga ega bo'lgan sintaktik qurilmalar **qo'shma gap** deyiladi.

Qo'shma gap tarkibi qanchalik yoyiq – murakkab bo'lmasin, unda komponentlarning tugallanganligini ko'rsatadigan yakunlovchi intonatsiya mavjud bo'ladi: *Urug' yer ostida yotsa, hech kim u bilan qiziqmaydi, u qachon tuproqni yorib, yerni zumrad kabi bezasa, uning nima ekanligi ma'lum bo'ladi, so'ngra, parvarish qilib, uni o'stiradilar.* ("K.D.")

Qo'shma gap sodda gap bilan tashqi gaplik shakli, ichki kommunikativ vazifa ifodalash, tugallangan intonatsiyaga egaligi kabi umumlash-tiruvchi xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, unda quyidagi farqlovchi belgilar ham mavjud:

1. **Shakliy belgi.** Qo'shma gap birdan ortiq predikativ qo'shilmalar-dan (sodda gaplardan) tuziladi. Sodda gapda bitta grammatik markaz mavjud – u bitta predikativ qo'shilmadan tashkil topadi. Masalan, *Qarasam, qaramaysan, qaramasam, qaraysan* gapi to'rtta predikativ markaz borligidan, murakkab qo'shma gap hisoblanadi. *Chullar chaman sochdilar, tashlab anduhlarini, Jaranglatib ochdilar Oltin sandiqlarini* (T.T.) gapi bitta predikativ markaz borligidan, sodda gap hisoblanadi. Yana misol: *Temur vafot etgach, shahzodlar o'rtasida kelishmovchilik kuchayib, saltanat shuhrati so'na boshladi.* (qo'shma gap) *Nigor oyim sunbul sochlarini orqasiga tashlab, xumor ko'zlarini yoshlab, qirq kanizini boshlab, uzoqlarga qarab bir so'z dedi.* (sodda gap).

2. **Qo'shma gapning ifoda materiali – sodda gaplar:** sodda gap-ning ifoda materiali gap bo'laklaridir. Masalan, *Toy hozir Saidaning ostida ham yo'rg'alab borar, lekin bundan endi foyda yo'q, chunki tortayotgan azobi zarracha ham kamaymas edi.* (A.Q.) gapi uch komponentdan – uch gapdan; *Quyosh olamni isitadi* (O.) gapi esa uch komponent – uchta bo'lakdan tashkil topgan.

3. **Mazmuniy belgi.** Qo'shma gapda birdan ortiq voqelik – hukm, xabar ifodalanadi, ya'ni qo'shma gapning mazmuni murakkab bo'ladi. Sodda gapda bitta voqelik ifodalanadi yoki bir sub'yektning belgi xususiyatlariga doir hukm beriladi. Masalan, *Mirzacho'lni cho'l deman-giz, yam-yashildir hammayoq* (qo'shiqdan). *Mirzachulning yam-yashil bog' va dalalarini aylandik* gaplarining birinchisida, qo'shma gap bo'lganligidan, ikkita voqelik; ikkinchisida, sodda gap bo'lganligidan, bitga voqelik ifodalangan.

3. **Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar.** 1) o'zida ega va kesim munosabatini aks ettirishi; 2) nisbiy tugallangan fikr ifodalanishi; 3) intonatsiya jihatidan yarim mustaqillikka egaligi bilan gap hisoblansa-da,

ular alohida olingan sodda gaplarday mustaqil emas, ular qo'shma gap doirasida boshqa gaplar bilan bog'langan holda harakat qiladi. Bunda bir gap mazmunining aniqlashishi boshqa gapdagi voqelikning yuzaga kelishini taqozo qiladi. Demak qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmun va grammatik hamda intonatsion xususiyatlarini shu butunlikning umumiy mazmuni belgilaydi. Masalan, *Paxta ochildi. Terim boshlanadi* (ikkita alohida, mustaqil sodda gap); *Paxta ochildi, terim boshlanadi. Paxta ochildi – terim boshlanadi* qo'shilmalarida esa *Paxta ochildi* gapi keyingi gap bilan munosabatga kirishganligidan, oldingi mustaqilligini yo'qotgan va nisbiy tugallangan intonatsiyaga ega bo'lib qolgan.

Tahlil namunasi: *Men aql bilan hayotni eng yaqin va ajralmas do'st deb bilaman, biri yo'qolsa, ikkinchisini ham topib bo'lmaydi.* ("K.D.")

- 1) qo'shma gap;
- 2) uchta predikativ qo'shilmadan tashkil topgan;
- 3) har qaysi gapning o'z ega va kesimi bor, faqat uchinchi gapda ega yo'q – shaxssiz gap.
- 4) har qaysi gapda nisbiy tugallangan fikr ifodalangan;
- 5) har qaysi komponent gapga xos nisbiy tugallangan intonatsiyaga ega;
- 6) komponentlar mazmun va grammatik jihatdan ma'lum munosabatga kirishgan.
- 7) qo'shilma yaxlit bir tugallangan ohangga ega.

QO'SHMA GAPLARNING TASNIFI

Qo'shma gaplar mazmun va grammatik jihatdan, qism yoki komponentlarning sintaktik aloqaga kirishishi nuqtai nazaridan, uch yirik turga ajraladi. 1) **bog'langan qo'shma gap**, 2) **ergashgan qo'shma gap**, 3) **bog'lovchisiz qo'shma gap**.

BOG'LANGAN (TENG ALOQALI) QO'SHMA GAP

reja:

1. Bog'langan qo'shma gapningta'rifi.
2. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
3. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
4. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
5. Inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
6. Bog'langan qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

Komponentlarning mazmun va grammatik jihatdan teng aloqasidan tuzilgan, teng bog'lovchilar va teng intonatsiya (ohang) bilan birikkan qo'shma gaplar **bog'langan qo'shma gap** deyiladi.

Bog'langan qo'shma gap komponentlari: 1) teng bog'lovchilar, 2) teng bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan yuklamalar, 3) **bo'lsa, esa** yordamchilari, 4) teng intonatsiya orqali tutashadi.

Bu vositalar o'zi biriktirgan komponentlarning teng aloqali, teng huquqli ekanligini ko'rsatadi. *Novdalarni bezab g'unchalar tongda aytdi hayot otini, Va shabada qurg'ur ilk sahar olib ketdi gulning totini. (H.O.) Zargarov ularning iltimosini rad qilib chiqarib yubordi-yu, ko'ngli xira tortgancha qoldi. (Asq. M.)*

Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlari ba'zan bir xil grammatik shaklda, bir xil zamonda shakllangan bo'ladiki, bu, mavjud gap komponentlarining teng aloqali va bu aloqaning birmuncha erkin ekanligini ko'rsatadi.

Bog'langan qo'shma gaplar teng bog'lovchilarning ishtirokiga – qo'llanilishiga ko'ra to'rt turga ajratiladi: 1) **biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap**, 2) **zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap**, 3) **ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap**, 4) **inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap**.

Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap komponentlarini tutashtirishda **va, ham, hamda** bog'lovchilari **-u (-yu), -da** yuklamalari bo'lsa, esa yordamchilari ishtirok etadi va bunday qo'shma gap komponentlari voqelikning bir vaqtda yoki ketma-ket yuz berganligini ifodalaydi. Misollar: *Ruzimatning ranggi o'zgardi va ko'zlarida hamisha o'ynab turadigan tabassum ifodasi to'satdan yo'qoldi. (A.Q.) Boltasi kamariga qadalgan bir chol otlarni yetaklab muz ko'chadigan joyga olib keldi va xotinlar changak bilan tortib muzlarni chenalarga yuklay boshladilar. (A.Q.) Shu choq eshik ochildi-da, eshonnig kallasi ko'rindi. (A.Q.) Daryo tomondan gurullab esib turgan shabada yo'l bo'yidagi o't-o'lanlarni egar, tebratar, hamda sarg'ayib borayotgan arpalar undan mavj urar edi. (A.Q.) Shuning uchun dadillik qilib, qattiqroq qadam bosishga qo'rqadi. Ham bu yer uncha qulay emas. (O.) Og'zimdanda chiqmagan so'zim qulimdir, aytganim esa xojamdir. ("K.D.")*

Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap komponentlari **ammo, lekin, biroq** kabi zidlov bog'lovchilari va shu bog'lovchilar vazifasida qo'llaniladigan **-u (-yu)** yuklamalari orqali birikadi. Bu turdagi bog'langan qo'shma gap komponentlarining mazmuni bir-biriga zid, qarama-qarshi bo'ladi. Bu zidlik aslida gap komponentlarining o'zida mavjud

bo'lib, u, zidlov bog'lovchisini talab qiladi. Zidlov bog'lovchilari zid komponentlarni tutashtirishdan tashqari, mavjud zidlikni kuchaytiruvchi vosita hamdir.

Ammo, lekin, biroq zidlovchilari ko'p hollarda biri ikkinchisi o'rnida qo'llanilsa-da (sinonim bo'lsa-da), ularning qo'llanilishida nozik ma'no ayirmalari, uslubiy farqlar mavjud. Misollar: *Otini bilolmadim, ammo qamishday qomati bor.* (O.) *Kun sovuq, lekin bozor qaynaydi.* (O.) *Daraxtlarning mevasi mo'l va yirik: lekin xozir deyarli hammasi ko'm-ko'k.* (O.) *Keldi jon og'zima-yu, ul sho'xi badxu kelmadi.* (N.) *G'amma narsa o'tarkan-u, do'stlik qolarkan.* (Asq. M.)

Ba'zan ikkita zidlovchi (**ammo lekin**), bitta biriktiruvchi, bitta zidlovchi (**va lekin**), yuklama zidlovchi (**-u -yu, lekin, biroq, ammo**) vositalar birga qo'llanadi va bunda mavjud zidlik yanada kuchaytiriladi, ta'kidlanadi: *Sen bilan bizning choponimiz eski bo'lsa ham, nazarimiz to'q, ammo lekin ular hamisha yog' ichida yashasalar ham, ulguday ochko'z bo'ladilar.* (H.Shams.) *Bir oy Salomat opa, bir oy Karomat opa muharrir bo'ldi, ammo lekin Salomat opaning gazetasi har safar tanqidga uchraydi.* (Asq. M.) *Ushoq qand oq to'zga monand erur, va lekin biri qand, biri tuz erur.* (N.) *Qalandarovning havasi zur-u, lekin xotinining xafsalasi bundayroq ekan.* (A.Q.) *Kozimbek ko'nmayotibdi-ku, lekin, baribir, kuzda to'y qilamiz.* (A.Q.) *Ba'zan bolaligi qalqi6-qalqib chiqadi-yu, lekin, umuman, shaxs bo'lib yetilayotgani kundan-kun ko'zga tashlanayotgan edi* (Asq.M.) *Xunar yoddan chiqmasa-da, lekin nozik tomonlari unutiladi.* ("K.D.")

Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap komponentlari gap boshida takrorlanib qo'llanuvchi **yo, yoki goh, gohi, ba'zan, dam, xoh, bir** kabi ayiruv bog'lovchilari bilan birikadi va harakat yoki voqelikning almashinib, galma-gal yuz berganligini, bir voqelik yuzaga kelsa, ikkinchisi sodir bo'lmasligini ifodalaydi: *Yo xatlar borib tegmasdi, yo Kamol ham biron faloqatga uchragandi.* (M.I.) *Kun qattiq isidi: yo yomg'ir yogadi, yoki "afg'on" shamol qo'zg'aladi* (og'izdan). *Dam jahlim chiqadi, dam kulgim keladi.* (O.) *Bunday kunlarda havo ba'zan juda isib ketadi, ba'zan orombaxsh shabada esadi.*

Goh oshiq qalbining ozoridir ishq,

Goh g'am-qayg'uning bozoridir ishq. (U.)

Inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda inkor bog'lovchisi (**-na**) birdan ortiq komponentning boshida takrorlanib qo'llanadi, ma'lum bir paytda ro'yobga chiqmagan, mavjud bo'lmagan voqea-hodisa yoki belgi-xususiyatlarni ifodalovchi gaplarni biriktirib qo'shma gap hosil

qiladi. Inkor mazmunidagi gaplarni biriktiruvchi inkor bog'lovchisining ma'noni kuchaytirish xususiyatiga ko'ra yuklamalik vazifasi ham bo'ladi. *Uning nomiga g'alati bir konvert chiqdi: **na** adresi bor, **na** familiyasi bor, **na** pochta muhri.* (Asq.M.)

Inkor bog'lovchili qo'shma gaplarda inkor bog'lovchisi har bir komponent boshida takrorlangan holda qo'llanadi va kamida ikki xil vazifa bajaradi: a) birdan ortiq gapni biriktiradi; b) ularni inkor gapga aylantiradi: *Uning kelganini **na** Qurbon ota payqadi, **na** Sidiqjon payqadi.* (A.Q.) Bunday qurilmalarda **-na** vazifasida **ham** yordamchisi ham qo'llanilishi mumkin: *Uning kelganini Kurbon ota **ham** payqamadi, Sidiqjon **ham** payqamadi.* Bu gapda inkor elementi (-ma) kesimda bo'lib, ham yuklamasi tutashtiruvchi vazifani bajargan.

Inkor bog'lovchili qo'shma gapning kesimi odatda tasdiq shaklda bo'lsa-da, ba'zan ma'noni kuchaytirish uchun inkor shaklda ham bo'ladi – gapda qo'sh inkor shakllanadi: *U Hoshimjonni ham olib ketish to'g'risida og'iz ochmagani uchun, bu haqda na Kimsanboy bir narsa deya olmadi, na Anzirat xola.* (A.Q.)

Inkor bog'lovchili qo'shma gaplarning kesimlari bir xil so'z bilan ifodalanib, bir xil zamonda bo'lganda, uslubiy talab bilan, ko'pincha, oxirgi kesim hattoki oxirgi gap qo'llanmaydi: *Na bir yo'l biluvchi odam bor, na bir yo'l yorituvchi mash'al* («K.D.») *Buni na rayosat payqadi, na xalq.* (A.Q.) *Bular orasida bo'lib o'tgan mojarodan na Umidaning xabari bor, na Ismoiljonning.* (A.Q.)

Matn talabi bilan inkor bog'lovchili qo'shma gaplarda ba'zan hamma kesimlar ham qo'llanmasligi mumkin: *Ammo bu jangdan na menga manfaat, na senga va na xalqqa!* (S.Abd.) *Cho'chima, jigarim, o'z uyingdasan, Bu yerda na q'urbat, na ofat, na q'am.* (G'.G'.)

Tahlil namunasi: *Qattiq shamol bo'ldi va biz o'z yo'limizni o'zgartirdik. (S.Zun.)*

- 1) bu gap ikki komponentdan tuzilgan,
- 2) komponentlar **va** bog'lovchisi bilan birikkan,
- 3) biriktiruv bog'lovchili qo'shma gap,
- 4) kesimlari bir xil zamon shaklida,
- 5) voqelik ketma-ket yuzaga kelgan,

6) chizmasi: va

Na fonus yonadi, na derazalarda chiroq miltillaydi. (A.Q.)

- 1) ikki komponentdan tuzilgan,

- 2) inkor bog'lovchisi (-na) orqali birikkan,
- 3) inkor bog'lovchili qo'shma gap,
- 4) kesimlari bo'lishli, kelasi zamon shaklida,
- 5) yuzaga kelmagan voqelik ifodalangan,

6) chizmasi: na, na

ERGASHGAN (TOBE ALOQALI) QO'SHMA GAP

reja:

1. Ergash gapli qo'shma gapning ta'rifi.
2. Ergash va bosh gaplarning ta'rifi va ularni farqlash tamoyillari.
3. Ergash gaplarni bosh gapga biriktiruvchi vositalar.
4. Ergashgan va bog'langan qo'shma gaplar orasidagi umumiy farqlar.
5. Ergash gapli qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

Qo'shma gaplar mazmun va grammatik jihatdan doimo teng aloqaga kirisha bermaydi. Ular ko'p hollarda ana shu aloqaning aksi bo'lgan tobelanish yo'li bilan birikadi. Bunday qo'shma gaplarda komponentlarning biri hokim, ikkinchisi tobe bo'lib, tobe komponent hokim komponentni izohlaydi. Masalan, *Dunyoni tark etmagayman, dunyoda sen bor uchun* (U.) gapining ikkinchisi birinchisining mazmunini izohlaganligi, undagi harakatning yuz berish sababini anglatganligi uchun unga tobe hisoblanadi. *U shunday ayolki, fahm-farosatda tengi yo'q* (S.Zun.) gapining ikkinchisi birinchi gapning bir bo'lagi (*shunday*)ning mazmunini izohlab, to'ldirib kelganligi uchun unga tobelangan. Yuqoridagi gap komponentlari faqat mazmun – ichki tomongina emas, tashqi – grammatik tomondan ham tobelashtiruvchi shakllar (**-sa, -ki**) olib, o'zaro birikkan.

Demak, gaplarning hokim va tobelik munosabatidan tashkil topgan, ergashtiruvchi bog'lovchilar va tobelashtiruvchi intonatsiya orqali birikkan gaplar **ergash gapli qo'shma gap** deyiladi.

Ergash gapli qo'shma gapni tashkil qilgan gaplar ikki xil bo'ladi. Bular **bosh** va **ergash gaplardir**.

Butun mazmuni yoki biror bo'lagining mazmuni izohlanayotgan, aniqlanayotgan gap **hokim** yoki **bosh gap** deyiladi.

Bosh gapga ergashib, uning mazmunini yoki biror bo'lagining mazmunini izohlab, aniqlashtirib keluvchi gap **tobe** yoki **ergash gap**

deyiladi.

Bunday qoidalar, ta'rif va tavsiflar bo'lishiga qaramay, bosh va ergash gaplarni farqlashda ma'lum qiyinchilikka duch kelinadi. Buning ma'lum sabablari bor, albatta: bosh va ergash gaplarning grammatik shakllanishida tub ajratuvchi farqlar ba'zan u qadar ko'zga tashlanib turmaydi. Masalan, ergashish formalari bosh gap tarkibida ham, ergash gap tarkibida ham bo'ladi. Ergash gaplar ko'p hollarda birinchi o'rinda ham, ikkinchi o'rinda ham kela beradi. Ba'zi bosh gaplarning kesimi shakllanmagan bo'lib, ergash gapga nisbatan nomustaqil, aksincha, ba'zi ergash gaplarning kesimi shakllangan bo'lib, bosh gapga nisbatan mustaqil o'rin egallaydi va b.

Bulardan kat'i nazar, bosh va ergash gaplarni farqlashda:

1) qo'shma gap tarkibidagi komponentlarning hokim-tobeligiga, mazmun munosabatiga e'tibor beriladi. Yuqorida aytilganidek, mazmun yoki biror bo'lagining mazmuni izohlanayotgan gap hokim – bosh gap; bosh gapning mazmunini yoki uning biror bo'lagining mazmunini izohlab kelayotgan gap tobe – ergash gap hisoblanadi. Boshqacha aytganda, bosh gap, keng ma'noda, belgisi aniqlanayotgan gap – aniqlanmish; ergash gap belgi aniqlaydigan gap – aniqlovchi komponent. Masalan, *Bilib qo'yki, seni vatan kutadi* (G'.G'.) gapida birinchi kesimning mazmuni mavhum (*Bilib qo'yki* – nimani? – noma'lum), ikkinchi komponent keltirilgach, mana shu mavhumlik aniqlashadi (*Bilib kuyki* – nimani? – *seni vatan kutishini*). Shunga ko'ra, ikkinchi gap aniqlovchi komponent – ergash gap; birinchi gap aniqlanmish komponent – bosh gap.

2) bosh va ergash gaplarni aniqlashda ularning tashqi tomoni – grammatik shakllanishlari ham e'tiborga olinadi. Masalan, kesimi fe'lning vazifaviy shakllari (ravishdosh, sifat-dosh, harakat nomi), shart mayli shakli yoki ularning egalik, kelishik, ko'makchilar bilan shakllanib, bosh gapga bog'lanadigan qismi ergash gap sanaladi va birinchi o'rinda keladi (inversiya istisno): *Kimki jismoniy tarbiya bilan shug'ullansa, u sog'lom bo'ladi. Rais kelgach, odamlar to'planadi. –Rais kelib, odamlar to'planadi. – Rais kelguncha, odamlar to'plandi. – Rais kelmay (kelar-kelmas), odamlar to'plandi. –Rais kelganda (kelmay turib), odamlar to'plandi. –Rais kelgungacha (-ga qadar), odamlar to'plandi. –Rais kelgandan keyin (so'ng), odamlar to'plandi. –Rais kelishi bilan, odamlar to'plandi* va hokazo. Yoki **-ki** elementi bilan shakllangan komponent, ko'p hollarda bosh gap bo'lib, birinchi o'rinda keladi.

Ergash gaplarni bosh gapga biriktirishda ergashtiruvchi bog'lovchilar, fe'l shakllari, yuklamalar, ko'makchilar, bog'lovchi so'zlar, nisbiy

so'zlar, ayrim kelishik qo'shimchalari, egalik qo'shimchalari, ohang va tartib kabi vositalar qo'llaniladi.

O'zbek tilida ergash gaplarning bosh gapga birikish yo'li, asosan, ikki xil: 1) **bog'lovchili ergashish**, 2) **bog'lovchisiz ergashish**.

Ergashgan qo'shma gap komponentlarini biriktirishda, asosan, ergashtiruvchi bog'lovchilar qatnashadi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi vazifasiga ko'ra uch guruhga ajraladi: 1) **sof bog'lovchilar**, 2) **bog'lovchi yuklamalar**, 3) **bog'lovchi so'zlar**.

Sof bog'lovchilar hokim va tobe qismlarni bir-biriga bog'laydi. Bunday bog'lovchilarga **-ki, chunki, shuning uchun, negaki, sababki, shekilli, guyo** kabi so'zlarni kiritish mumkin.

Bog'lovchi yuklamalar esa ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasini bajaradi. Bu yordamchilar gapning mazmunini kuchaytirish yoki gapga qo'shimcha ma'no (ottenka) berish uchun qo'llaniladi. Bular **agar, bordi-yu, basharti, mabodo, modomiki, toki** so'zlaridir.

Bog'lovchi so'zlar o'z leksik ma'nosini saqlagan holda qo'shma gap qismlarini biriktirishda qo'llaniladi. **Demoq, bo'lmoq** kabi so'zlar bog'lovchi – so'z bo'lib keladi.

Ergash va bosh gaplarni tutashtiruvchi vositalar hakida har bir ergash gapli qo'shma gap doirasida alohida to'xtalamiz.

Ergashgan qo'shma gap bog'langan qo'shma gap bilan gaplik nuqtai nazaridan, umumiylikka ega bo'lsa ham, ular quyidagicha munosabatga kirisha oladi:

1. Ergashgan qo'shma gap komponentlari tobelanish, bog'langan qo'shma gap komponentlari tenglanish yo'li bilan munosabatga kirishadi.

2. Ergashgan qo'shma gap komponentlari ergashtiruvchi bog'lovchilar, bog'langan qo'shma gap komponentlari tenglashtiruvchi bog'lovchilar bilan birikadi.

3. Ergashgan qo'shma gapda tobelantiruvchi, bog'langan qo'shma gapda tenglashtiruvchi ohang mavjud.

4. Ergashgan qo'shma gapda bir gap boshqasini izohlaydi, bog'langan qo'shma gapda bu hol deyarli kuzatilmaydi.

5. Ergashgan qo'shma gaplarning komponentlari mazmun va grammatik jihatdan bog'langan qo'shma gapga nisbatan birmuncha zich munosabatga kirishgan bo'ladi.

6. Ergashgan qo'shma gaplarda bosh gap (aniqlanmish gap) va ergash gap (aniqlovchi gap) tushunchalari bo'ladi. Bosh gapsiz ergash

gap, ergash gapsiz bosh gap mavjud emas. Bu holat bog'langan qo'shma gaplarda kuzatilmaydi.

Tahlil namunasi: *Bugun u o'zida yo'q xursand, chunki dadasi kelgan* (S.Zun.)

1) ikkita sodda gapdan tuzilgan.

2) ergashtiruvchi bog'lovchi (chunki) va tobelantiruvchi ohang orqali birikkan.

3) ergash gapli qo'shma gap.

4) bosh gap birinchi o'rinda, ergash gap ikkinchi o'rinda, bog'lovchi ergash gap tarkibida.

5) chizmasi: , chunki

ERGASH GAPLARNING TASNIFI

reja:

1. Ergash gaplarni turlarga ajratishdagi qiyinchiliklar.
2. Ergash gaplarni vazifaviy farqlashdagi tamoyillar.
3. Ergash gaplarning turlari.
4. Xulosa.

Ergash gaplarni tasnif qilish, vazifaviy turlarga ajratish birmuncha murakkabdir. Chunonchi, ayrim ergash gaplar tuzilishi (kesimning morfologik shakllanishi, ergashtiruvchi bog'lovchilar olishi kabi) jihatidan bir-biriga juda yaqin, xatto, bir xil bo'ladi. Masalan, *Mohir musavvirlar devorga shunday rasmlar chiza oladilarki, ular devordan chiqib kelayotganga o'xshab ko'rinadi* ("K.D"). *Quyosh shunday charaqlab ketdiki, maysalarning rangi birpasda o'zgardi* (A.Q.) gaplarining har ikkalasida ham: 1) bosh gap birinchi o'rinda, 2) izohlanishi kerak bo'lgan so'z – **shunday**, 3) kesimlari fe'l bilan ifodalangan, 4) komponentlar **-ki** bog'lovchisi bilan birikkan, 5) **-ki** bosh gaplarning kesimlari tarkibida. Mana shunday o'xshashliklarga qaramay, birinchi gap aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, ikkinchi gap natija ergash gapli qo'shma gaplardir. *Yomg'ir tinganda, dalaga chiqar edik* gapi vaziyat nuqtai nazaridan, ham payt ergash gapli qo'shma gap (*yomg'ir tingan paytda, dalaga chiqar edik* – bo'lib o'tgan harakat eslanayapti), ham shart ergash gapli qo'shma gap (*yomg'ir tinsa, dalaga chiqardik* – nutq momentidan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan harakat mo'ljallanayapti). *Uni eslasam, o'zim ham xijolatdan kichrayib qolgandek bo'laman* (E.A.) gapi ham shart, ham payt ergash gapli qo'shma gapni eslatib turadi. Yoki **-sa** bog'lovchisi shart ergash gapni bosh gapga tutashti-

ruvchi vosita bo'lishiga qaramay, *Borsam, yo'q ekansiz* gapida payt ergash gapni bosh gapga tutashtirish uchun xizmat qilgan.

Demak, ergash gap turlarini farqlashda ergashtiruvchi shakllarga asoslanishning o'zi yetarli emas. Chunki bitta **-ki** bog'lovchisining o'zi ega, kesim, aniqovchi, to'ldiruvchi, shart, natija, sabab, payt ergash gaplarni; **-sa** bog'lovchisi esa aniqlovchi, shart, o'lchov-daraja, chog'ishtirish-o'xshatish, o'rin, to'siqsiz ergash gaplarni biriktirishda ishtirok etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan qat'i nazar, ergash gaplarning vazifaviy turlarini belgilashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

1. Ergash gapli qo'shma gap bir butun holda olinib, mazmun va shakl birligi nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi.

2. Ergash gapning butunlik tarkibidagi – qo'shma gap ichidagi aniq vazifasiga e'tibor beriladi. Ergash gap bosh gapga, bosh gap ergash gapga nisbatan belgilanadi. Ergash gapning mavjudligi bosh gap tufaylidir, ergash gap bosh gapning yoki uning biror bo'lagining mazmunini izohlab, bosh gap orqali ifodalanayotgan fikrni to'ldiradi. Bunda bosh gap mazmunining qaysi tomoni (masalan, voqelikning yuz berish sababimi, paytimi kabi) yoki bosh gapdagi qaysi bo'lak (egami, kesimmi kabi) izohlanayotganligi, undagi qaysi belgi-xususiyatlar aniqlashtirilayotganligi, mana shu belgi-xususiyatlarning turlari kabilar-ga e'tibor qaratiladi. Bosh gap mazmunining turli tomondan izohlash zaruriyati ergash gaplarning vazifaviy tomondan turlicha shakllanishiga sabab bo'ladi.

3. Ergash gaplarni tasnif qilishda, asosiy mezon bo'lmasa ham, ergashtiruvchi shakllarga – bog'lovchilarga, ularning ma'nosiga, qaysi o'rinda qaysi gap tarkibida qo'llanganligiga e'tibor beriladi. Masalan, sifat-doshlar ergash gapning kesimi bo'lib kelganda, ko'pincha, **paytda, zamonda, vaqtda** kabi so'zlari; **avval, keyin, so'ng, burun** kabi payt ko'makchilari qo'shilib keladi va o'zi qo'shilgan komponentning payt ergash gap ekanligini; **uchun, chunki, negaki, sababki, shuning uchun, sababli, tufayli** shakllari o'zi qo'llangan qo'shma gapni sabab ergash gapli qo'shma gap ekanligini ko'rsatib turadi. Yoki kesimi **-sa ham, -sa-da, qaramay, -gani bilan** shakllarida hosil bo'lgan ergash gaplarning to'siqsiz; **agar, garchi** so'zlari bilan boshlanadigan ergash gaplarning, ko'pincha, shart (ba'zan to'siqsiz) ergash gap ekanligi sezilib turadi.

4. Nisbiy so'zlarga e'tibor beriladi. Chunki ular ko'pincha ergash va bosh gaplar tarkibida bir-biriga moslashib qo'llaniladi. Birinchi kompo-

nent o'qilishi bilanoq, nisbiy olmoshlar mavjud sintaktik qurilmalarning ergash gapli qo'shma gap ekanligini, qaysi komponent ergash gap, qaysisi bosh gap; ergash gap bo'lsa, uning qaysi turi ekanligini ma'lum darajada ko'rsatib turadi. Masalan, **kim, u, o'sha** nisbiy olmoshlari ega ergash gapli qo'shma gapni; **qancha, shuncha** o'lchov-daraja; **qayerda, shu yerda** o'rin; **kimning, uning** aniqllovchi ergash gapli qo'shma gaplarni ko'rsatadi.

5. **Transformatsion usul** ham ergash gapning vazifaviy turlarini aniqlashga va ularni farqlashda yordam beradi. Bunda har xil usullar bor:

1) ergash gap kesimining shakli o'zgartirilib, undagi ergashtiruvchi shakllar – bog'lovchi vositalar o'zining sinonimik variantiga qiyoslab ko'riladi. Buning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini gapning mazmuni boshkaradi. Qiyoslang: *Men yaxshilarga ergashib, tuppa-tuzuk ko'zim ochilib qoldi* (O.) – *Men yaxshilarga ergashganligim uchun* (sababli, tufayli, bois) (yoki ergashganligimdan) *tuppa tuzuk ko'zim ochilib qoldi* (sabab ergash gapli qo'shma gap). *Kessondan havo chiqdimi, demak, suv o'pirib kiradi* (Asq.M.). – *Kessondan havo chiqsa, demak, suv o'pirib kiradi* (shart ergash gapli qo'shma gap). *O'zi ko'rmasa, bolalari ko'rar yorug'likni, – dedi kimdir osoyishta tovush bilan* (O.) – *O'zi ko'rmasa ham, bolalari ko'rar...* (to'siqsiz ergash gap). *Qo'l kalta bo'lgandan keyin, qayoqqa uzatasiz.* (O.) – *Qo'l kalta bo'lsa, qayoqqa uzatasiz* (shart ergash gapli qo'shma gap).

2) qo'shma gapning mazmuni, qo'shma gapligi saqlangan holda komponentlarining o'zni almashtirilib, biror sinonimik variantiga solishtirib ko'riladi: *Omad menga kulib boqdi, chunki men haq edim* (G'.G'.) – *Men haq bo'lganim uchun, omad menga kulib boqdi*. Demak, tarkibida **chunki** so'zi bo'lgan komponent sabab ergash gapdir.

Tarkibida nisbiy olmoshlar mavjud bo'lgan ergash gapli qo'shma gaplar transformasiya qilinganda, ergash gaplarning vazifaviy turlari yanada oydinlashadi. Bunda nisbiy olmoshlar bosh gap tarkibida qanday shaklda bo'lgan, qaysi bo'lak vazifasini bajargan, qaysi bo'lakka bog'langan bo'lsa, transformasiya natijasida gaplik shaklidan chiqib, nisbiy so'zlar o'rnida qo'llangan, ularni almashtirgan (kompensatsiya qilgan) "ergash gap"lar ham shunday holatni saqlaydi. *Kimki mehnatsevar bo'lsa, u el hurmatiga sazavor bo'ladi* – *Mehnatsevar el hurmatiga sazovor bo'ladi*. *Kimning niyati pok bo'lsa, uning yo'li ham ochiq bo'ladi* – *Niyati pokning yo'li ham ochiq bo'ladi*. *Nima eksang, o'shani o'rasan* – *Ekkan narsangni o'rasan*. *Qayerda suv bo'lsa, u yerda hayot bor* – *Suv bor joyda hayot bor* kabi va b.

Demak, birinchi gap – ega, ikkinchi gap – aniqlovchi, uchinchi gap – to'ldiruvchi, to'rtinchi gap – o'rin ergash gapli qo'shma gaplar ekan.

Ergash gaplarni quyidagi turlarga ajratamiz: 1) ega ergash gap, 2) kesim ergash gap, 3) to'ldiruvchi ergash gap, 4) aniqlovchi ergash gap, 5) ravish ergash gap, 6) o'lchov-daraja ergash gap, 7) chog'ishtirish va o'xshatish ergash gap, 8) sabab ergash gap, 9) maqsad ergash gap, 10) payt ergash gap, 11) o'rin ergash gap, 12) shart ergash gap, 13) to'siqsiz ergash gap, 14) natija ergash gap.

EGA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. Ega ergash gapning ta'rifi.
2. Ega ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llanadigan nisbiy so'zlar.
3. Ega ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va bosh hamda ergash komponentlarning o'rinlashish tartibi.
4. Ega ergash gapli qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan eganing yoki qo'llanilmagan eganing mazmunini izohlab, to'ldirib, aniqlashtirib keladigan ergash gap **ega ergash gap** deyiladi. Masalan, *Kimki mehnatni sevsa, u hurmatga sazovor bo'ladi* ("S.") gapida birinchi komponent (ergash gap) ikkinchi komponentdagi (bosh gapdagi) **u** olmoshi bilan ifodalangan eganing mazmunini aniqlagan: *u hurmatga sazovor bo'ladi. Mehnatni sevgan hurmatga sazovor bo'ladi. Kimlar maktab qurshshshida ishtirok etgan bo'lsa, navbatdagi yig'ilishda qatnashadi* (gazetadan) gapida ergash gap (*Kimlar maktab qurilishida ishtirok etgan bo'lsa*) bosh gapdagi qo'llanilmagan ega (ular)ning mazmuni bilan bog'langan va u bajarishi kerak bo'lgan vazifani aniqlagan: *navbatdagi yig'ilishda kimlar qatnashadilar? – ular, ya'ni maktab qurilishida ishtirok etganlar.*

Ega ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap tarkibida, uning egasi sifatida **kim, kimki, kimda-kim, har kim, har kimki, nima, nimaiki, nimaki, qaysi, qaysi kishi, shunisi, shu narsa** kabi nisbiy so'zlar; bosh gap tarkibida, uning egasi sifatida **u, o'sha, shu, o'zi, o'sha narsa, hamma, hammasi, barcha, barchasi** kabi nisbiy so'zlar bir-biriga muvofiqlashib qo'llaniladi: *Kimki mehnatdan qo'rqmasa, u tuproqdan oltin ajratadi* ("S.") *Ko'pchilikda nimaiki xayr-saxovat bo'lsa, barchasi sizlarniki* (Asq.M.). *Men nimaiki so'zlagan bo'lsam, hammasi sening foydangdir* ("K.D."). *Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur, Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.* (B.).

Ega ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar (ergashtiruvchi bog'lovchilar) bilan tutashadi:

1. Fe'ning shart mayli shakli **-sa** elementi bilan: *Kimki birovga choh qazisa, o'zi yiqiladi.* (Maqol.) *Kimda kim Tangriqul hojining yer-mulki musodara qilinsin desa, qo'l ko'tarsin.* (A.Q.)

2. **-r-ar+ekan, -mas+ekan** shakllari orqali. Bunda ergash gapning kesimi sifatdooshning **-r-ar,-mas** shakli+**ekan** yordamida yasalgan shaklda kelib, bosh gapga bog'lanadi va bosh gapdagi olmosh egani izohlaydi: *Kimki el-yurt xizmatida bo'lar ekan, u hech qachon yomonlik ko'rmaydi.* ("K.D.") *Kimki birovning haqidan tortinmas ekan, u albatta xor bo'ladi.* ("K.D.") *Kimki dilozor erur, o'zi el aro xor erur.* (N.)

3. **-ki** orqali. Bunda **-ki** bosh gapning kesimi bilan shakllanadi. *Bu yerning shunisi yaxshiki, istagancha kasb o'rganish mumkin.* (Asq.M.) *Javobingizdan shu narsa aniq bo'ldiki, siz til-adabiyot fanini sevar ekansiz. Ikki soatdan keyin ma'lum bo'ldiki, Qalandarov RayONOGa jo'nab ketibdi...* (A.Q.)

Bu turdagi ega ergash gaplar **ma'lumki, ayonki, ravshanki, ko'rinib turibdiki, anglashiladiki** kabi kirish so'z, kirish ibora ko'rinishidagi bir tarkibli (ko'pincha, egasi qo'llanilmaydi) gaplarni ham izohlab keladi: *Ma'lumki, ota-bobolarimiz yerni ardoqlagan, nonni ko'ziga surib e'zozlagan.* (gazeta) *Shunisi qiziqki, laboratoriya bir hafta davomida ishlamagan.* (Asq.M.) *Ko'rinib turibdiki, shaxsiy manfaatni davlat manfaatidan ajrata olmaysiz.* (Asq. M.)

4. **-mi** orqali. Ega ergash gap bosh gapga so'roq yuklamasi **-mi** orqali birikadi. Bosh gap so'roq gap tarzida shakllangan bo'lsa ham, ergash gapdagi voqeani eslatish, yodga tushirish mazmunini bildiradi: *O'sha esingdami, men uni qayta kurolmadim.* ("S.") *Esingizda bormi, yozgan xatlarimning birida sizdan hisob surayman degan edim.* (A.Q.)

5. **-ku** orqali. Bu yuklama bilan birikkan qo'shma gaplarda bosh gap mazmunan kirish gapga yaqin bo'ladi: *Ko'nglingizga kelmasin-ku, odam har xil bo'lar ekan.* (A.Q.)

Ega ergash gaplar bosh gap bilan qaysi grammatik vositalar orqali bog'lanishiga qarab turlicha o'rinlashadi. Fe'ning shart mayli (**-sa**), sifatdooshning to'liqsiz fe'l bilan birikishidan hosil bo'lgan shakllari (**-r, ar+ekan, -mas+ekan**) orqali birikkanda, ergash gap birinchi, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi. Biriktiruvchi vositalar ergash gap tarkibida bo'ladi. Ergash gap bosh gapga **-ki, -mi, -ku** bog'lovchilari orqali birikkanda, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda keladi. Tutashtiruvchi vositalar bosh gap tarkibida bo'ladi.

Tahlil namunasi: *Kimki mehnat mashaqqatlaridan qo'rqmasa, u toshdan dur, tuproqdan oltin ajratadi* (O.)

1) ikkita gapdan tuzilgan.

2) birinchi gap ergash, ikkinchisi bosh gap.

3) birinchi gapda **kimki**, ikkinchisida **u** nisbiy olmoshlari qo'llanilgan.

4) birinchi gap ikkinchi gapdagi ega vazifasida kelgan **u** olmoshini izohlagan – ega ergash gap.

5) ega ergash gap bosh gapga **-sa** bog'lovchisi orqali birikkan bo'lib, birinchi o'rinda bosh gap, ikkinchi o'rinda, **-sa** bog'lovchisi ergash gap tarkibida kelgan.

6) chizmasi: -sa,

KESIM ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. Kesim ergash gapning ta'rifi.
2. Kesim ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy olmoshlarning qo'llanilishi.
3. Kesim ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va gap komponentlarining o'rinish tartibi.
4. Kesim ergash gapli qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning mazmunini izohlab, aniqlab keluvchi ergash gaplar kesim ergash gap deyiladi: *Maqsadim shuki, jahonda tinchlik bo'lsin* gapida bosh komponentning kesimi olmosh bilan ifodalanganligidan, mavhum xarakterga ega. Mana shu jihatni kesim mazmunini aniqlashtirish uchun boshqa bir aniqlovchi komponent (*jahonda tinchlik bo'lsin*) keltiriladi, bu komponent orqali bosh gapning kesimi aniqlashadi: *Maqsadim: jahonda tinchlik bo'lishi*.

Kesim ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap tarkibida kesim vazifasida **shuki, shu yerdaki, shundaki, shundan iboratki, shu bo'ldiki, shu ediki, shumidiki, kimsanki, nimasanki** kabi so'zlar qo'llaniladi va ularning mazmuni ergash gap tomonidan aniqlanadi. Bularga doir misollar keltiramiz:

1) **shuki**: *Ko'nglingiz uchun bitta qo'shig'imni aytib beraman, ammo shartim shuki, Umarali aka, kulmaysiz.* (O.)

2) **shu yerdaki, shundaki**: *Muvaffaqiyatlarimizning boisi shu yerdaki, biz agrotexnika qoidapariga to'la rioya qilamiz.* (gazeta). *Fanning kuchi shundaki, inson kosmosda yashashni o'rganmoqda.* (gazeta).

3) **shundan iboratki:** *Masalaning mohiyati shundan iboratki, bu qurilishlarni loyhalash va boshqarish tajribasida katta xato va yetishmovchiliklar oshkor bo'layapti. (Asq.M.)*

4) **shumidiki:** *Sizdan umidimiz shumidiki, do'stlarning yuziga tik boqadigan, dag'al muomala qiladigan qiliqlar chiqaribsiz. ("Guliston")*

5) **shunda ediki, shu bo'ldiki:** *G'ofur G'ulomning usta san'atkorligi shunda ediki, u hayotni chuqur bilar, uni ustalik bilan she'rga ko'chirardi/ ("Guliston".) Majlisni olib borishdagi hurmatsizlik shu bo'ldiki, rais kun tartibini e'lon qilmasdan so'zga tushib ketdi. (A.Q.)*

6) **kimsanki, kim bo'libsanki:** *Sen kimsanki, ovozingga hamma uyg'onsa. ("Mushtum") Kim bo'libsanki, dag'dag'ang olamga sig'maydi. ("Mushtum")*

7) **nimaiki, nima ekanki:** *U nimaki, sen unga bunchalik sehlranib qolibsanki, qizim. ("Guliston"). U nima ekanki, seni kuldirar ekan-u, meni yig'latar ekan. (A.Q.)*

Bosh gapning kesimi yuqoridagi shakllar bilan ifodalangan ergash gapli qo'shma gaplar mazmun jihatidan ma'lum farqlarga ega, albatta.

Kesim ergash gap, asosan **-ki** bog'lovchisi bilan bosh gapga birikadi. **-ki** bosh gap tarkibida, bosh gap birinchi o'rinda, ergash gap ikkinchi o'rinda keladi: *Umid shulkim, tole yor bo'lsin. (G'.G'.)*

Tahlil namunasi: *Bu kitobni tushunishning birinchi sharti shuki, to'g'ri va diqqat bilan uqiy bilishdir ("K.D."):*

1) ikkita gapdan tuzilgan.

2) birinchi gap bosh gap, ikkinchisi ergash gap.

3) ikkinchi gap bosh gapdagi **shu** olmoshi bilan ifodalangan kesimni izohlagan – kesim ergash gap.

4) ega ergash gap bosh gapga **-ki** bog'lovchisi bilan birikkan bo'lib, bosh gap birinchi o'rinda, ergash gap ikkinchi o'rinda, bog'lovchi bosh gap tarkibida.

5) chizmasi: -ki,

TO'LDIRUVCHI ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. To'ldiruvchi ergash gapning ta'rifi.

2. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy so'zlar.

3. To'ldiruvchi ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va qo'shma gap komponentlarining o'rinlashish tartibi.

4. To'ldiruvchi ergash gapga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchini yoki qo'llanil-

magan to'ldiruvchining mazmunini izohlab, aniqlab keluvchi gaplar **to'ldiruvchi ergash gap** deyiladi. Masalan, *Shuni aytib o'tayki, kema butun mas'uliyatni o'z ustiga olgan kema darg'asining buyrug'i bilangina to'lqinlarni yorib dengizlar osha oladi* ("K.D".) gapida ergash gap (keyingi gap) bosh gapdagi (birinchi gap) olmosh (**shuni**) bilan ifodalan-gan mavhum bo'lakning – to'ldiruvchining mazmunini izohlab to'ldirib kelgan: *Shuni, ya'ni kema butun mas'uliyatni o'z ustiga olgan kema darg'asining buyrug'i bilangina to'lqinlarni yorib, dengizlar osha olishini aytib utay.*

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy so'zlarning qo'llanilishida o'ziga xoslik bor.

Bosh gap birinchi o'rinda kelganda, uning tarkibida **shuni, shu narsani, bir narsani, shunga, shu narsaga** kabi olmoshlar qo'llaniladi va bu to'ldiruvchi vazifasidagi bo'laklar keyingi gap (ergash gap) tomonidan izohlanadi: bu olmoshlar ergash komponentda biror shaklda takrorlanib qo'llanmaydi: *Shuni bilamanki, mashinaga ajratilgan kattakon bir kartaga Arslonbek akam muylov qilib odam qo'ydirib yubordilar* (A.Q.) gapining bosh komponentida "**shuni**" bo'lagining mosi keyingi gapda bo'lmaydi.

Ergash komponent birinchi o'rinda kelganda, ergash gap tarkibida **kimni, nimani, kimga, nimaga, nima, nimaini, kim bilan, nima bilan** bosh gap tarkibida **uni, shuni, o'shani, hammasini, barchasini, barini, o'sha bilan, shu bilan, u bilan** kabi nisbiy so'zlar bir-biriga muvofiq-lashib keladi.

To'ldiruvchi ergash gaplarni ana shu izohlanishi kerak bo'lgan nisbiy so'zlarning (ob'yektning) xususiyatiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin: a) **bosh gapdagi vositasiz to'ldiruvchini izohlaydigan ergash gap**, b) **bosh gapdagi vositali to'ldiruvchini izohlaydigan ergash gap**.

Vositasiz to'ldiruvchini izohlanayotgan qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi o'timli fe'llar orqali ifodalanadi: *Oygul siz shuni yaxshi bilingki, sizning juda ko'p samimiy do'stlaringiz bor.* (Sh.R.) *Ona biladiki, endi har nahor, Butun Vatan bo'ylab to'lishar bahor.* (H.O.)

Vositali to'ldiruvchisi izohlanayotgan qo'shma gaplarda o'timsiz fe'llar bosh gapning kesimi bo'lib keladi. *Shunga erishmog'imiz kerakki, moddiy va ma'naviy boyliklardan hamma teng bahramand bo'lsin* (gazeta).

Ko'p hollarda ergash gap tomonidan izohlanishi kerak bo'lgan bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchi qo'llanmaydi – "tushib qoladi". Biroq qo'llanilmagan bu ob'yekt, uning vositalimi, vositasiz

to'ldiruvchimi ekanligi, boshqaruvchi bo'lak – kesimdan anglashib turadi. Ergash gaplar mana shu ifodalanmagan – ellipsiyaga uchragan bo'lakning vazifasini ham aniqlab keladi – o'rnini qoplaydi (kompensatsiya qiladi). Masalan, *Bilib qo'yki, seni vatan kutadi* (G'.G'.) gapining kesimi o'timli fe'l, qo'llanilmagan bo'lak (**shuni, shu narsani**) vositasiz to'ldiruvchi. *Ishonchim komilki, rejalarizingizni yuqoridagilar ham ma'qullashadi* (A.Q.): bosh gapning kesimi o'timsiz fe'l, qo'llanilmagan bo'lak (**shunga, shu narsaga**) vositali to'ldiruvchi.

Bosh gapdagi izohlanishi kerak bo'lgan to'ldiruvchilar quyidagicha shakllanadi:

1) **tushum kelishigida**: *Shuni unutmangki, erishilgan yutuqlar bilan xotirjam bo'lib qololmaymiz.* (Asq. M.)

2) **jo'nalish kelishida**: *Men shu narsaga aminmanki, tinchlik urushni yengadi.*

3) **chiqish kelishigida**: *Shu narsadan xavotirlanamanki, kanalni qazib bitkazmasak, suvsiz qolamiz.* ("Guliston".)

To'ldiruvchi ergash gapni biriktiruvchi vositalar quyidagilar:

1. **-ki**: *Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyhasi shuni ko'rsatib turibdiki, inson to'g'risida, uning baxt-saodati, haq-huquqi to'g'risida g'amxo'rlik qilish Davlatimiz faoliyatining bosh masalasi bo'lib qola beradi.* (gazeta). *Hech qachon esimizdan chiqarmaylikki, ayollar o'tmishda hammadan ko'p zulm ko'rgan.* (Asq.M.)

2. **-mi**: *Bilasizmi, paxtakorning shuhrati olamga ketgan.* (gazeta) *Ko'rayapsanmi, qir tomondan ikkita otliq, kelayapti,— deb shivirladi yonidagi sherigi.* («S.»)

3. **-ku**: *Bilasiz-ku, men Arslonbek Qalandarovman!* (A.Q.) *Bilasiz-ku, mardning so'zi bir bo'lur, birgalashsang dushman holi tang bo'lur.* (I.) *Bilasanki, nayzang mening qalqonimga zarar yetkaza olmaydi.* ("K.D.")

4. **deb**: *Yaxshilik hech vaqt unutilmaydi, yomonlik hech vaqt jazosiz qolmaydi deb bekorga aytmaganlar.* ("K.D.") *Men yana ular kelishar deb o'yladim.*

5. **-chi**: *Qani aytinglar-chi, to'yonaga nima olib boray?* ("Mush-tum".) *Chiqib ko'rchi, kimlar kelibdi.*

6. **-sa**: *Sen nima so'rasang, biz bejo keltiramiz.* ("K.D.") *Yuragingda nimaiki bo'lsa, hammasini ayt.* ("K.D.") *Kimda-kim Go'rug'lining g'irotni olib kelsa, Shunga berarkan Nigoraxon qizini.* (I.) *Ko'ngli nimaga tushsa, qo'li ham shunga yopishadi.*

Ergash gap **-ki, -ku, -mi, -chi** yordamchilari orqali bosh gapga

biriksa, bosh gap birinchi (bog'lovchi vositalar bosh gap tarkibida), ergash gap ikkinchi, **-sa, deb** yordamchilari bilan biriksa, ergash gap birinchi (bog'lovchi vositalar ergash gap tarkibida), bosh gap ikkinchi o'rinda keladi.

Ba'zan bosh gap har xil sabab bilan ergash gapning o'rtasiga tushib qoladi. Bunda bosh gap kirish gap xarakteriga ega bo'ladi: *Alisher, buni yaxshi bilasizki, bolalik yillaridayoq badialar ijod qilib, "Zullisonayn" laqabi-la shuhrat topdilar (O.). Men, ular yana kelishar deb, uyladim ...*

Tahlil namunasi: *Men shu narsaga aminmanki, tinchlik urushni yengadi*

1) ikki gapdan tuzilgan.

2) birinchi gap bosh gap, ikkinchisi ergash gap.

3) ikkinchi gap bosh gapdagi olmosh (**shu narsa**) bilan ifodalangan to'ldiruvchini izohlagan – to'ldiruvchi ergash gap

4) to'ldiruvchi ergash gap bosh gapga **-ki** bog'lovchisi orqali birikkan bo'lib, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda, **-ki** bog'lovchisi bosh gap tarkibida kelgan.

5) chizmasi: -ki,

ANIQLOVCHI ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. Aniqlovchi ergash gapning ta'rifi.
2. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy olmoshlar.
3. Aniqlovchi ergash gaplarning bosh gapga biriktiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinish tartibi.
4. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan aniqlovchini yoki ifodalangan aniqlovchini izohlab, to'ldirib, keluvchi ergash gaplar **aniqlovchi ergash gap** deyiladi. Masalan, *O'zbekiston shunday diyorki, fasllari gulga o'ralgan (U.)* gapida ergash gap (*fasllari gulga o'ralgan*) bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qo'llanilgan **shunday** so'zini izohlab, aniqlab kelgan. Bu hol qo'shma gapni transformasiya qilganda yaqqol seziladi: bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan bo'lak (**shunday**) vazifasida endi aniqlovchi ergash gap (*fasllari gulga o'ralgan*) qo'llanilgan bo'ladi. Qiyoslang: *O'zbekiston shunday diyorki, fasllari gulga o'ralgan. –O'zbekiston fasllari gulga o'ralgan diyor.*

Bosh gap birinchi o'rinda kelganda, uning aniqlovchisi sifatida

shunday, ba'zi bir xil, ayrim, bir, ba'zi bir, hech bir, shunday bir kabi nisbiy olmoshlar qo'llaniladi va bular ergash gap tomonidan aniqlanadi.

Shunday: *Sahro shunday olamki, ishchi qo'llar bo'lsa, hamma narsa bor. (Asq.M.) Hasad shunday o'tdirki, agar u tutasa, ho'lu quruq birday yonadi. ("K.D.")*

Shunday bir: *Endi shunday bir hikoya aytib berki, unda doimo shoshiladigan, ishning orqa-o'ngini o'ylamasdan harakat qiladigan bir odamning ahvoli tasvir etilsin... ("K.D.")*

Ba'zi, ba'zi bir, ayrim: *Ba'zi bir rahbar xodimlarimiz borki, ular tanqiddan to'g'ri xulosa chiqarmaydilar. Ayrim ilmiy muassasalar borki, unda fan yutuqlarini ishlab chiqarishga faol tadbiriq etish yomon yo'lga qo'yilgan (gazeta).*

Bir: *Bir qizlarki, har biri bir parizod deysiz (O.). Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi. (O.) Bir vatanning o'g'limenkim, har taraf gul, lola, bog'. (G'.G'.)*

Hech bir: *Hech bir qishloq yo'qki, unda klub, maktab bo'lmasin (gazeta). Hech bir ona yo'qki, farzandiga ichi achimasin.*

Bosh gap tarkibida qo'llanadigan **shunday, ba'zi bir, ba'zi, bir xil, ayrim bir** kabi so'zlar ko'p xollarda bir-biriga sinonim bo'lib ham qo'llaniladi: *Shunday (bir xil, ayrim, ba'zi) olimlar ham bo'lganki, ular ijodda hech qachon tuxtab qolmaganlar ("Guliston").*

Bosh gap ikkinchi o'rinda kelganda, ergash gap tarkibida **kim, kimki, kimning,** bosh gap tarkibida **uning, unday** nisbiy so'zlari qo'llaniladi va bosh gap tarkibidagi olmoshlar ergash gap tomonidan aniqlashtiriladi. *Kim egri bo'lsa, uning taqdiri fojiali bo'ladi. Kimki olimlardan hayo qilmasa, ularni hurmat etmasa, ularning afzalliklarini e'tirof etmasa, ularni haqoratlardan qutqarmasa, unday odamning aqli zoye ketadi va hayoti barbod bo'ladi ("K.D."). Kimning so'zi to'g'ri bo'lsa, uning xalq oldida e'tibori yuqori bo'ladi (maqol).*

Ergash gap ba'zan bosh gapdagi **shu, u, o'sha, uning, o'shaning** so'zlari bilan ifodalangan aniqlovchining ma'nosini ham aniqlaydi. Bunda ergash gap tarkibida **qaysi, qarday, qay** kabi nisbiy olmoshlar qatnashadi: *Qaysi kitob sizga yoqsa, o'sha kitobni xarid qilamiz. Siz qaysi fakultetni lozim kursangiz, men shu (o'sha) fakultetga xujjat topshirishga roziman.*

Ba'zan ma'lum qonuniyat, masalan, til iqtisod tamoili asosida, bosh gapdagi izohlanishi kerak bo'lgan aniqlovchi qo'llanmasligi (ellipsiyaga uchrashi) mumkin. Ergash gap mana shu qo'llanmagan bo'lakni

izohlaydi. *Umrlar bo'ladiki, tirigida o'likdir, Odamlar bo'ladiki, o'ligida tirikdir* (Shayxzoda).

Odam borki, odamlarning naqshidir,

Odam borki, undan hayvon yaxshidir (N.)

Aniqdovchi ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. **-ki:** *Shunday odam haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi bebaho gavhardir* (O.). *Do'stlik shunday kuchki, u hamisha g'olib.* ("K.D.")

2. **-sa:** *Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi.* (maqol)

Ergash gap **-ki** yordamida bosh gap bilan biriksa, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda keladi va bog'lovchi bosh gap tarkibida bo'ladi. Agar ergash gap **-sa** elementi bilan bosh gapga biriksa, ergash gap birinchi, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi, bog'lovchi ergash gapning kesimi tarkibida bo'ladi.

Tahlil namunasi: *Bu shunday ajib diyorki, uning zo'r ko'zgusi oydir.*

- 1) ikkita gapdan tuzilgan,
- 2) birinchisi – bosh, ikkinchisi ergash gap,
- 3) ikkinchi komponentdagi aniqlovchini (**shunday** olmoshini) izohlagan – aniqlovchi ergash gap,
- 4) komponentlar **-ki** bog'lovchisi orqali birikkan; bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda, bog'lovchi bosh gap tarkibida,

5) chizmasi: -ki,

RAVISH ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. Ravish ergash gapli qo'shma gapning ta'rifi.
2. Ravish ergash gapni bosh gapga tutashtiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinlashish tartibi.
3. Ravish ergash gapning ravishdosh oborotidan farqi.
4. Ravish ergash gapli qo'shma gaplarga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi ish-harakatning yoki voqelikning qay tarzda qanday vaziyatda yuz berishini anglatadigan ergash gap **ravish ergash gap** deyiladi. Masalan, *Umaralining rangi oqarib, a'zoyi badani yonib, borligini chaqmoq yoqib o'tganday bo'ldi* (O.) gapida ravish ergash gaplar (*Umaralining rangi oqarib, a'zoyi badani yonib*) bosh gapdagi (keyingi gap) voqelikning qanday holatda, vaziyatda, yuz berganligini

anglatgan.

Ravish ergash gap bosh gapga ravishdoshning quyidagi shakllari bilan tutashadi:

1 **-b (-ib):** *Qorni ochib, kuchi qochib, keladi bo'ri* (ertak).

2 **-may:** *Tomog'ingdan o'tmay bir qultum ham suv, saharlarda nola qilasan* (U.).

3 **-mas+dan:** *Nasimiyning biror ishi o'ngidan kelmasdan, biror maqsadi yuzaga chiqmasdan, umri bekorga o'tib ketdi* (Asq. M.).

4 **-gudek:** *Onaxon ikki tirsagini keng yoyib stolning chetini barmoqlari bilan bosgudek mahkam ushladi* (Asq. M.).

5 **-ganicha:** *Ma'ruzasi o'zi o'ylab qo'yganicha, u qadar silliq va qulay chiqmadi* (O.).

6. **holda:** *Umidlar bilan ko'ksi qabargan holda, u lablarida bir qo'shiqni shivirlab, xujayinnikiga ketdi* (O.).

7. **deb** yordamchisi bilan: *Ko'kraklari yerga tegay-tegay deb, qanotlarini qoqardilar* (O.). *Chol unga qarayman deb qo'lidagi choynakni tushirib yubordi* (A.Q.).

Ravish ergash gap, ko'pincha, bosh gapdan oldin keladi, bog'lovchilar ravish ergash gap tarkibida bo'ladi. Bosh gap ravish ergash gapning kesimi orqali aloqaga kirishadi. Ba'zan turli xil sabablar natijasida bosh gapdan keyin yoki uning o'rtasida ham keladi: *Oyimlar o'tirar kokilin osib, Mushki anbar hidi har yoqni bosib* (F.). *Sultona rangi oqarib, kasalxona kravatida yotar edi. Saida, bir laxza nafasi ichiga tushib, noqulay ahvolda qoldi* (A.Q.).

Ravishdosh oborot grammatik shakllanishi ohangdagi nisbiy mustaqilligi jihatidan ravish ergash gaplarga o'xshaydi. Biroq ravishdosh oborot o'zining mustaqil ega va kesimiga ega emasligi, ya'ni predikativ qo'shilma emasligi bilan ravish ergash gapdan farqlanib turadi. Masalan, *Saida, ko'nglidagi bir g'ashlik ikki bo'lib, Qalandarov bilan munosabati va tajribasizligi tufayli ne-ne ko'ngilsiz o'y-xayollarga borib, kolxozga jo'nadi* (A.Q.) gapida: 1) *ko'nglidagi bir g'ashlik ikki bo'lib*, 2) *ne-ne ko'ngilsiz xayollarga borib* qo'shilmalari tashqi yog'idan farqsizday ko'rinsa ham, ularning birinchisi ravish ergash gap (*bir g'ashlik* – ega, *ikki bo'lib* – kesim), ikkinchisi ravishdosh oborotdir. Yoki *Samandarov bu gal yuzi oqarib, labi titrab, nafasi ichiga tushib, tashqariga chiqib ketdi* (Asq.M.) gapi *u bir qo'li bilan ko'zoynagini ko'tarib, dukni ko'zlariga yaqin tutib, boshdan-oxir sinchiklab, qarab chiqdi* (O.) gapiga o'xshaydi. Holbuki, birinchi qurilma to'rtta sodda gapdan iborat bo'lib, shulardan uchta ravish ergash gap; ikkinchi qurilma bitta sodda gapdan

iborat bo'lib, unda uchta ravishdosh oborot mavjud.

Tahlil namunasi: *Butaboy aka, nimadandir ta'bi ochilib, nimadandir ko'ngliga g'ashlik tushib, chiqib ketdi* (A.Q.).

1) uchta sodda gapdan tuzilgan.

2) birinchi va ikkinchi gaplar ravish ergash gap bo'lib, bosh gapning o'rtasida kelgan.

3) kesimlari **-ib** formal ravishdosh bilan shakllanib, bosh gapga bog'langan.

4) chizmasi: -ib, -ib,

O'LCHOV-DARAJA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarning ta'rifi.
2. O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy so'zlar.
3. O'lchov-daraja ergash gaplarni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinlashish tartibi.
4. O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi voqea yoki hodisaning xajmini, miqdorini o'lchash, darajalab ko'rsatish, chegaralash uchun xizmat qiladigan gaplar **o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap** deyiladi. Masalan, *Mehnat qancha qiyin bo'lsa, samarasi shuncha shirin bo'ladi* gapida birinchi gap (ergash gap) ikkinchi gapning mazmunini xajm va miqdor jihatidan darajalab ko'rsatgan.

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap birinchi o'rinda kelganda, ergash komponentda **qancha, qanchalik, naqadar, nechog'lik**, bosh komponentda **shuncha, shunchalik, shuncha kam, shuncha ko'p** kabi nisbiy so'zlar qo'llaniladi va bosh komponentdagi mana shu nisbiy olmoshlarning mazmuni, gap bilan bir butun holda, ergash gap tomonidan izohlanadi. Misollar: *Daryo qancha chuqur bo'lsa, u shuncha sekin oqadi* (maqol). *Mehnat qancha zavqli bo'lsa, yillar shuncha tez o'tganday tuyuladi. Do'stlar qancha ko'p bo'lsa, balo shuncha kam yopishadi* ("K.D."). *Chol bu gaplarni shu qadar hayajon bilan gapirsa, Qalandarov shuncha jiddiy quloq solar edi* (A.Q.). *Axmoqdan qanchalik uzoq bo'lsang, boshing shunchalik salomat bo'ladi* ("K.D.").

Bosh gap birinchi o'rinda kelganda, unda **shunday, shu qadar, shunchalik, shu darajada** kabi so'zlar qo'llaniladi va ergash gap

tomonidan izohlanadi. Misollar: *Bu xotin shu qadar go'zal ediki, hali falak ko'zi bunday jamolni ko'rmagan edi* ("K.D."). *Men sening do'stligingdan shu qadar xursandmanki, uni hech bir narsaga almashtira olmayman* ("K.D").).

Bu turdagi ergash gapli qo'shma gaplarning mazmunidan darajamiqdor bilan birga, qisman, natija anglashib turadi. O'lchov-daraja ergash gapning natija ergash gapdan farqi shundaki, u bosh gapdagi kesimnigina emas, balki kesim oldida kelgan holni yoki sifat (yoki ravish)+to'liqsiz fe'l orqali ifodalangan kesimning birinchi elementini izohlaydi. Natija ergash gaplar esa bevosita bosh gapdagi kesimni izohlab, ish-harakatning natijasini ko'rsatib keladi. Yana misollar: *U qiz bilan shunchalik ko'ngilli suhbat qurdiki, bir umr esdan chiqmaydigan bo'lib tuyuldi* (Sh.R.). *U shu qadar xushmuomala, shu qadar shirin so'z, shu qadar kamtarinki, suhbatlashib tuymaysiz.*

O'lchov-daraja ergash gaplar bosh gapga **-sa** elementi bilan birikkanda, ergash gap oldin bosh gap keyin keladi; bog'lovchi ergash gap tarkibida bo'ladi.

Ergash gap bosh gapga **-sa** elementi bilan birikkanda, bosh gap birinchi ergash gap ikkinchi o'rinda keladi, bog'lovchi bosh gap tarkibida bo'ladi.

Bundan tashqari, o'lchov-daraja ergash gapi bosh gapga **sari, sayin** yordamchilari orqali ham birikadi. Bunday qo'shma gaplarda **qancha//shuncha, qanchalik//shunchalik** kabi nisbiy so'zlar qo'llanishi ham mumkin: *Rahmonqulov qizarib qichqirgan sari, Samandarov unga yaqinroq kelib, nimanidir uqtirardi* (Asq.M.). *Saida kolxozga yaqinlashgan sayin Qalandarov bilan ishlay olish-olmaslik vahimasi yuzaga qalqiy boshladi* (A.Q.). *U senga yaqinlashgan sari, sen undan uzoqlasha berasan* ("K.D."). *Biz qanchalik ko'p yo'l yurgan sayin, manzil shuncha uzoqlashganday bo'laredi* (S.Ahm).

Sari, sayin ko'makchilari bilan birikkan qo'shma gaplarda ergash gap birinchi (bog'lovchilar shu gap tarkibida), bosh gap ikkinchi o'rinda keladi.

Tahlil namunasi: *Tarbiya ne chog'lik to'g'ri va yaxshi bo'lsa, xulq va odobimiz shunchalik go'zal bo'lg'usi* (O.):

- 1) ikki gapdan tuzilgan,
- 2) birinchi komponent o'lchov-daraja ergash gap, ikkinchisi bosh gap,
- 3) ergash gap tarkibida **nechog'lik**, bosh gap tarkibida **shunchalik** miqdor anglatuvchi nisbiy so'zlar qo'llanilgan,

- 4) ergash gap **-sa** elementi bilan bosh gapga birikkan, **-sa** ergash gap tarkibida,
5) chizmasi: -sa,

CHOG'ISHTIRISH-O'XSHATISH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarning ta'rifi.
2. Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy so'zlar.
3. Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gaplarni bosh gapga biriktiruvchi vositalar.
4. Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarga doir tahlil namunasi.

Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapning mazmuni bosh gapning mazmuniga taqqoslanadi, qiyos qilinadi. Ergash gap bosh gapdagi harakat, holat yoki, umuman, o'xshash belgilarni izohlab, aniqlaydi. Misollar: *Boya xotini qandiy tajang bo'lib kelgan bo'lsa, endi Jo'raboy undan battar diqqat bo'ldi* (S.Ahm.). *Quyosh havoni isitsa, do'stlik qalbni isitadi* (maqol).

Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarning fe'l-ning shart mayli shakli orqali bog'langan turlarida nisbiy olmoshlar qo'llaniladi. Bunda ergash gap tarkibida **qanday, qanday qilib**, bosh gap tarkibida esa **shunday, o'shanday, shunday qilib, o'shanday qilib** nisbiy so'zlari qo'llaniladi va bu nisbiy so'zlar qo'shma gap komponentlarining birmuncha zich bog'langanligini ko'rsatadi: *Ular o'rtasida muhabbat qanday alangalangan bo'lsa, mojarosi ham o'shanday bo'ldi* ("S.").

Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi:

1. **-sa**: *Uning ko'ngli qanday toza bo'lsa, ishi ham shunday toza. Siz diniy ta'limotga qanday ishonsangiz, men ilmiy ta'limotga shunday ishonaman* ("F.T").

2. **-guncha**: *Tog'day taxt bo'lguncha, tirnoqday baxt bo'lsin* (O.). *Yigitning sazasi singuncha, ho'kizning buyni sinsin* (maqol).

3. **ko'ra**: *Tiz chukib yashagandan ko'ra tik turib o'lmoq afzaldir*. (maqol). *Birovning yurtida podsho bo'lgandan ko'ra, o'z yurtida gado bo'lganing yaxshi* (maqol).

4. **-day, -dek:** *Erkalanib yotadi u vatan tuprog'ida, Yosh bola yotganidek onaning quchog'ida* (H.O.). *Har bir tunning bir kunduzi bo'lganidek, hayotingizning ham kunduzi kelur* (O.).

5. **kabi, singari:** *Kuyoshning jamoli yer yuzini yoritganligi va hayotga abadiy umr bag'ishlagani kabi, ilm ham qalblarni nur bilan yoritadi* ("K.D"). *Zargarov isitma hurujidan uyqusiz qiynalgani singari, sahro ham momaqalldiroq silsilalaridan to'lg'anar edi* (Asq.M.).

6. **-ki bog'lovchisi va xuddi, guyo** yordamchilari orqali. Bu formalar bilan birikkan qo'shma gaplarning bosh gapi tarkibida **shunday, shu qadar, shunchalik** kabi so'zlar ishtirok etgan bo'ladi va ergash gap shu so'zlarning ma'nosini aniqlashtiradi. Bunda bosh gapning fe'l kesimi, ko'pincha, **-gan+day (-gan+dek) bo'ldi (edi)** shakllarida bo'ladi: *Kun shunday charaqlagan, osmon shunday tiniq ediki, unga astoydil tikilgan odam yaqin orada gurkirab turgan bahorni butun go'zalligi bilan ko'rganday bo'lar, bu kunni hech qanday musibat xira qilolmaydiganday edi* (Asq.M.). *Oppoq nozik yuzi quyoshda shu qadar tiniq ko'rindiki, guyo u nurdan yaratilganday* (O.).

Bosh gapi tarkibida **shunday, shu qadar, shunchalik** so'zlari qo'llangan o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar natija ergash gapli qo'shma gapga o'xshab ketadi. Biroq bundagi nisbiy so'zlar o'xshatish ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, tarkibida **go'yo, go'yoki, xuddi** o'xshatish yuklamalari bo'lgan, kesimi **-day, -dek** o'xshatish shakllari bilan ifodalangan gapning o'xshatish ergash gapli qo'shma gap ekanligi sezilib turadi.

Shu narsaga e'tibor berish kerakki, **-ki, va -day (-dek), kabi, singari** vositalari bilan birikkan o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarda **xuddi, guyo** o'xshatish shakllarining qo'llanilishida farq bor.

Xuddi (go'yo) va **-day (-dek)** elementlari aslida bog'lovchi emas (bog'lovchi **-ki**), balki o'xshatish yuklamalari bo'lganligidan, uslubiy talab bilan gapda ikki o'rinda – qo'sha qo'llanmasligi – biri tushib qolishi ham mumkin. Qiyoslaylik: *Uning oppoq nozik yuzi quyoshda shu qadar tiniq ko'rindiki, guyo u nurdan yaratilganday. – ...u nurdan yaratilganday. – ... guyo u nurdan yaratilgan.* Biroq **-day, -dek, kabi, singari** o'xshatish shakllari bog'lovchi vazifasida kelganda, ergash gap shu vositalar bilan bosh gapga tutashganda, bu vositalarni tushirib bo'lmaydi. Masalan, *Qalbim xuddi (guyo) bir narsani sezganday (-dek), uyga jo'nab ketdim* gapida **xuddi (guyo)** shakllarini qo'llanmasligi mumkin, biroq, **-day (dek)**ning qo'llanishi zarur, chunki u bog'lovchi vazifasida kelgan.

Uslubiy talab bilan chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'sh-

ma gaplarning komponentlari turlicha o'rinlashadi.

Agar ergash gap bosh gapga **-sa, -guncha, -gan+dan ko'ra, -sh (-ish) dan ko'ra, kabi, singari, -day (-dek)** bog'lovchilari bilan biriksa, birinchi o'rinda keladi va shu bog'lovchi vositalar ergash gapning kesimi tarkibida bo'ladi.

-ki orqali biriksa, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda bo'ladi. O'xshatish ergash gap bosh gapning o'rtasida kelishi ham mumkin. Bunda bosh gapning ega tarkibi alohida ahamiyat berib aytilganligi uchun oldinga ko'chiriladi: *Onaxon, issiq yelkasiga birov muzdek qo'lini bosgandek, seskanib tushdi* (Asq.M.). *Yigit, xuddi birov turtgandek, birdan uyg'onib ketdi* (P.T.). *A'lamning qiyofasi, guyo bulut bosganday, o'zgarib ketdi* (O.).

Tahlil namunasi: *Kichkinagina bola kuchli bir tuyaning boshiga no'xta urib, uni istagan joyga olib borgani kabi, ta'ma va ochkuzlik ham yomon odamning buyniga arqon solib uni xohlagan joyga sudraydi* ("K.D.").

- 1) ikkita gapdan tuzilgan,
- 2) birinchi gap ergash gap, ikkinchisi – bosh gap,
- 3) ergash gap **kabi** bog'lovchisi orqali bosh gapga birikkan,
- 4) chizmasi: kabi,

SABAB ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. Sabab ergash gapli qo'shma gapning ta'rifi.
2. Sabab ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar va gap komponentlarining o'rinlashish tartibi.
3. Ergash gapli qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi voqea-hodisa yoki harakatning yuzaga kelish sabablarini anglatadigan ergash gap **sabab ergash gap** deyiladi. Masalan, *Ob-havo noqulay kelganligi uchun, chigit ekish kechikdi* gapidagi ergash gap (birinchi komponent) bosh gapdagi voqelikning yuz berish sababini anglatgan.

Sabab ergash gapni, kesimi shaklan bosh gapga nisbatan tobe yoki mustaqilligi nuqtai nazaridan, ikkiga ajratish mumkin: a) kesim shakli orqali bosh gapga bog'lanadigan ergash gaplar, b) bog'lovchilar orqali bosh gapga bog'lanadigan ergash gaplar.

Kesim shakli orqali bosh gapga bog'lanadigan sabab ergash gaplar

bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. **uchun:** *Dunyoni tark etmagayman, dunyoda sen bor uchun* (U.). *Kichik ariqqa hali suv kelmagani uchun, Gulnora chelak ko'tarib katta ariqqa jo'nadi* (O.).

2. **sababli:** *Snaryadlar birin-ketin portlaganligi sababli, yer larzaga keldi* (I.R.). *Kuzgi shudgor sifatli bo'lganligi sababli, hosil yaxshi bo'ldi* (gazeta).

3. **tufayli:** *Dushman keltirgan talofat tufayli, temir yo'l izdan chiqqan edi* (O.). *Do'l yoqqanligi tufayli, ko'chat zararlangan edi* (O.).

4. **-gan (lig)+idan:** *Jim keta berish noqulay bo'lganligidan, Saida gap boshladi* (A.Q.). *Bu kun chorshanba bo'lganidan, bozor, ayniqsa, qizigan* (O.). *Nuri gapga e'tibor qilmaganidan, Yormat endi qizga qarab so'zlay boshladi* (O.).

5. **-mi.** Bu shakl bilan shakllangan ergash gaplar gumon, noaniq sabab anglatadi: *Atrofda noxush voqealar yuz berayotganligidanmi, shoirning ko'ngli g'ash edi* (O.). *Kim biladi, o'qish unga juda ham oson ko'rindimi, hech kim bilan kengashmay, idora eshigiga shunday bir e'lonnoma osib qo'ydi* (A.Q.).

-mi elementi **uchun, sababli, tufayli** yordamchilari bilan shakllangan ergash gaplarning kesimlaridan keyin ham qo'shib keladi va gumon, taxmin, noaniq sabab ma'nosini ifodalaydi: *Kecha tog'da tuman borliga uchunmi (sabablimi) samolyot uchmadi.*

6. **-gan (+lig+i+dan) bo'lsa kerak:** Bu vosita bilan shakllangan ergash gaplar ham noaniq sabab ifodalaydi: *Qalandarov Saidaning zarbga bunday epchillik bilan chap berishini xayoliga keltirmagan bo'lsa kerak, o'zi shoshib qoldi* (A.Q.). *Yig'ilish kechiktirilgan bo'lsa kerak, boshqarmada Rahmonqulov ham ko'rinmadi* (Asq.M.).

7. **shekilli, chog'i.** Bu shakllar ham vazifasi jihatidan **-mi** yordamchisiga yaqin turadi; bosh gapdagi voqelikni yuzaga keltirgan sabab aniq bo'lmaydi: *Bu fojeani hamma undan ko'rayotgandek tuyuldi shekilli, u qayoqqadir g'oyib bo'ldi* (Asq.M.). *U uzoqni, o'tgan bahorni, yozni esladi chog'i, ko'zlarida uychan, g'amgin bir jilmayish ko'rindi* (Asq.M.). *Rahmonqulov Elchibekning kamgapligidan shubhalandi shekilli, u qaytayotib asta gap ochdi* (Asq.M.).

8. **-ki:** *Baxtim borki, har narsa go'zal ko'rinadi mening kuzimga* (H.O.). *Chorva qishloviga tayyorgarlik ishlari o'lda-jo'lda qolganki, tegishli rahbarlar bunga javob beradilar* (gazeta).

9. **-deb:** *Qora yerga yaqin kelsin deb kuyosh, Ulug'bek yo'qotdi ko'kday ulug' bosh* (G'.G'). *Siz xafa bo'lmang deb, kutubxonaga keldim*

(E.A.).

10. **keyin, so'ng:** O'zim bir ishchi bo'lganimdan so'ng, o'rtoqlarim kim bo'lardi (Asq.M.). Ketaman deb turib olgandan keyin, ruxsat berdim-da! (Asq.M.) – (Ketaman deb turib olganligi uchun ham, javob berishga majbur bo'ldim mazmunida).

11. **-b (ib):** Nahotki Dilbar o'z kelajagidan cho'chib, ruhi ezilib ketgan edi (Asq.M.). Men ilg'orlarga ergashib, tuppa-tuzuk ko'zim ochilib qoldi (O.).

12. **-gach:** Bolasi bu yerda student bo'lgach, Otasi osuda va ko'ngli to'qdir (G'.G'). Yurtboshimiz rahnamo bo'lgach, tinchligimiz doim barqaror (gazeta).

13. **-may, -masdan:** Ko'pincha suv tashiydigan odam topilmay, suvsiz o'tiramiz (O.). Kelgindilarning so'zi o'tmay, yerga kuchi yetmay, qishloqdan chiqib ketdi (Po'ltan shoir). Bu alamlarga chidolmay, ko'zda yoshim shashqator (Muq.).

Bevosita kesim yoki uning shakli orqali emas, bog'lovchilar orqali bosh gapga birikadigan sabab ergash gaplarni bosh gapga quyidagi vositalar biriktiradi:

1. **chunki:** Halol mehnat qilmoq eng yaxshi odat, chunki mehnat berdi bizga saodat (H.O.). Biz yengdik, chunki biz hak edik (gazeta).

2. **negaki:** Adolat buning sababini surishtirmadi, negaki boshqa brigada boshliqlari ham kelishlari kerak edi (A.Q.).

3. **sababki:** Bu to'g'rida u kishidan o'pkalamadim, sababki ozodlik nimaligini ozodlikdan mahrum bo'lgan odam biladi (A.Q.).

4. **shuning uchun, shu sababli, shu boisdan, shu vajdan:** Har kun ortar ko'zlarimda nur, shuning uchun yo'q aslo g'amim (H.O.). Tojixon safardan ikki kun kechikib qaytibdi, shuning uchun brigadasidan ko'ngli hech tinchimayotgan emish (A.Q.). Uyda mehmonlar ko'p bo'ldi, shu sababli qizlar yon qo'shninikida alohida bir xonani egalladilar (O.). Ne ilojkim davlatim yo'q ganju mehrimdan bo'lak, Bul boisdan ko'z tulaydur qatra-qatra dur – xiroj (E.V.). Uning aytishiga ko'ra, Qalandarov bog'chaga Xurinisoni qaytarmoqchi ekan, shu boisdan Xuriniso kasalman deb yig'labdi (A.Q.).

5. **-ki:** Men sizga shuning uchun ham ishona olmaymanki, siz olg'a qarab emas, orqaga qarab ketayapsiz (A.Q.).

Sabab ergash gap komponentlarining o'rinish tartibi quyidagicha:

a) sabab ergash gap bosh gapga **-gach, -ganidan, -ganligidan, -may, -masdan** shakllari, **uchun, deb, sababli, tufayli** ko'makchilari, -

mi, shekilli, chog'i kabi modal so'z va yuklamalar bilan biriksa, birinchi o'rinda, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi; biriktiruvchi shakllar ergash gapning kesimi tarkibida bo'ladi.

b) sabab ergash gap bosh gapga **chunki, negaki, sababki** bog'lovchilari bilan biriksa, bosh gap birinchi, ergash gap ikkinchi o'rinda bo'ladi, bog'lovchilar ergash gaplarning boshida qo'llaniladi.

v) sabab ergash gap bosh gapga **shuning uchun, shu sababli, shu boisdan, shu vajdan, shu sababdan** bog'lovchilari bilan biriksa, ergash gap birinchi o'rinda, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi, bog'lovchilar bosh gap tarkibida uning bosh qismida qo'llaniladi.

g) **-ki** bog'lovchisi orqali bosh gapga bog'langan sabab ergash gaplar bosh komponentdan oldin ham, keyin ham keladi, ham ergash gap, ham bosh gap tarkibida qo'llanadi. Qiyoslaylik: *Baxtim borki, har narsa go'zal ko'rinadi mening ko'zimga* (ergash gap birinchi o'rinda). *Men sizga shuning uchun ham ishonmaymanki, siz olg'a qarab emas, orqaga qarab ketayapsiz* (bosh gap birinchi o'rinda).

d) agar bosh gapdagi ega tarkibiga ahamiyat berib aytilsa, shu qism ergash gapdan oldin qo'llaniladi: *Murod, elektr nuri tushib turganidan, uni ko'rmadi* (S.Ahm.). *Uning bolalarcha qo'ng'iroq tovushi, zal keng va tinch bo'lganidan, o'zi kutgandan ham kuchliroq jaranglab ketdi* (Asq.M.).

Tahlil namunasi: *Nega Navro'zni bunchalik sharaflayapmiz, xalqimiz uni muqaddas hisoblaydi. Chunki rizqu ro'zimiz Navro'zdan boshlanadi. Chunki Navro'z yasharish, yangilanish faslidir* (gazetadan)

1) to'rtta sodda gapdan tuzilgan,

2) birinchi, ikkinchi gaplar bosh gaplar; uchinchi, to'rtinchi gaplar – ergash gaplar,

3) ergash gaplar bosh gaplarga **chunki** bog'lovchisi orqali birikkan, **chunki** ergash gaplar tarkibida, ergash gaplar ikkinchi, bosh gaplar birinchi o'rinda qo'llangan,

4) chizmasi:

chunki

chunki

MAQSAD ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. Maqsad ergash gapning ta'rifi.
2. Maqsad ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinlashish tartibi.
3. Maqsad ergash gapli qo'shma gaplarga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi harakat yoki voqeaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini anglatadigan ergash gaplar **maqsad ergash gapli qo'shma gap** deyiladi. Maqsad ergash gap orqali ifodalangan harakat hali boshlanmagan, yuzaga kelishi endi mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, *Xalqimiz shoyi kiysin deb, tut ko'chati ekamiz* gapida birinchi komponent (ergash gap) ikkinchi komponent (bosh gap)dagi harakatning qanday maqsadda yuzaga kelishini, bajarilishini anglatadi.

Maqsad ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. **deb (deya, deyishib)**. Bunda ergash gapning kesimi buyruq maylidagi fe'ning birlik va ko'pligidagi birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxs shaklida bo'ladi: *Nevaramni ko'ray deb, bobosi kelibdi* (S.Zun.). *Ishonchimni doim oqla deb, Xazonlardan meni saqla deb, Ulug' jangda meni yoqla deb, Kurol berding qo'llarga 6ahor* (U.). *Bola ekan, tish chiqardim, yovlarni tishlasin deb, tog'day og'ir bilak berdim, yovlarni mushtlasin deb* (H.O.). Bunday qo'shma gaplarda ergash gapning fe'l kesimlari buyruq mayli shaklida bo'lsa ham, ergash gapdagi mazmun buyruqni emas, istakni anglatadi.

2. **-r-(ar)+ekan**. Bunda maqsad ergash gapdagi harakatning bajarilishi taxmin-tavakkal, mo'ljal qilinadi: *O'g'limga tegmasa, o'rtoqlariga tegar deb, xalta-xalta mayiz, turshak yubordim* (O.). *So'zim qanday ta'sir etar ekan deb, diqqat bilan unga tikildi* (A.Q.).

3. **-mi+ekan**: *Baxtim bormi ekan deb, Menga yormi ekan deb, kelaberdilar bari, Kattakon chinor sari* (H.O.).

-mi+ekan shakli **-mikin** ko'rinishida ham qo'llaniladi: *Qishlog'imizga Yo'ldosh Oxunboboyev kelarmikin deb, ko'z tutgan edik* (A.Q.).

4. **uchun**: Uchun bilan birikkan maqsad ergash gapning kesimi, ko'pincha, fe'ning uchinchi shaxs buyruq mayli shaklida bo'ladi: *Qalandarov so'zni aylantarib, rayosat tarkibida qolish uchun xohish bildirib qo'ymasin uchun, Saida yana uning so'zini og'zidan oldi* (A.Q.). *E'zozxon uyg'onmasin uchun, Botirali sirg'anib ko'rpadan chiqdi* (H.G').

5. **toki**. Bu element bilan birikkan ergash gaplarning kesimi ham fe'ning uchinchi shaxs buyruq mayli shaklida bo'ladi: ergash gap bosh gapdan keyin kelib, **toki** bog'lovchisi bilan boshlanadi: *Isfahonga yolg'iz o'zim ketib boraman, toki o'g'lim ko'rib, ko'nglim tinchisin* (F.) *Ertaga artelda ham, klubda ham butun xotinlarni yig'ib voqeani aytib beramiz, toki bu qabihlikni hamma bilsin* (Asq.M.).

Maqsad ergash gapning kesimi (ko'proq jonli tilda) **degan maqsadda, degan niyatda, degan umid bilan** kabi shakllar orqali ham shakllanadi va bosh gapga birikadi: *Qizlar orasida sevgilim bormikan*

Maqsad ergash gaplar **deb, uchun, degan umidda, degan niyatda, degan maqsadda, degan umid bilan, degan niyat bilan** shakllari orqali bosh gapga biriksa, birinchi o'rinda, bosh gap ikkinchi o'rinda keladi, biriktiruvchi shakllar ergash gap, **toki** shakli orqali bosh gapga biriksa, ikkinchi o'rinda keladi va **toki** bog'lovchisi ergash gap tarkibida bo'ladi. Maqsad ergash gap bosh gapning biror bo'lagini izohlasa, bosh gapning o'rtasida qo'llanadi: *U esini o'nglab, tomoshabinlar to'planmasin uchun, dadasiga jerkibroq: "yuring" dedi (A.Q.). Guro'g'libek, yov qochib ulgurmasin deb, otining boshini quydi (F.).*

*Yozildi bu she'r bahor tongida,
Aziz farzandlarga sovg'a bo'lsin deb.
Toki bu muysafid otaning so'zi,
Endigi qalblarga diljo bo'lsin deb (G'.G').*

- 1) uchta sodda gapdan tuzilgan,
- 2) birinchi gap bosh gap, ikkinchi va uchinchi – maqsad ergash gaplar,
- 3) ergash gaplar **deb, toki** yordamchilari orqali bosh gapga birikkan, biriktiruvchi vositalar ergash gaplar tarkibida,

- 4) chizmasi: deb, toki deb.

reja:

1. Payt ergash gapli qo'shma gapning ta'rifi.
2. Payt ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinlashish tartibi.
3. Payt ergash gapli qo'shma gaplarga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi voqea-hodisa yoki harakatning yuzaga kelish vaqtini, bajarilish paytini anglatadigan ergash gap **payt ergash gap** deyiladi. Payt ergash gapli qo'shma gapda voqea-hodisa yoki harakatning bir vaktida yoki ketma ket sodir bo'lishi ifodalanadi: *Tut g'arq pishganda, ko'z tutdik (O.). U g'azabdan yallig'langan ko'zlari bilan qosh ostidan unga tikilib turarkan, ro'parasida, negadir, Xolmat Yunusovich gavdalandi (Asq.M.). Saida kelib chamadonini so'riga qo'ygandan keyin, Qalandarov so'rashgani qo'l uzatdi (A.Q.). Darvozadan chiqib katta yo'lga bir oz yurilgach, ular chap tomondagi tokzor ko'chaga burilishdi*

(A.Q.). *Boshliq o'zini bosguncha, u fikrini bir joyga to'plab oldi* (Asq.M.) gaplarining birinchi va ikkinchisida voqelik bir vaqtda, uchinchi va to'rtinchisida ketma-ket, beshinchisida bosh gapdagi voqelik ergash gapdagi voqelikdan oldin yuz berganligi ifodalangan.

Payt ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. **-gan+da:** *Vodiyarlarni yayov kezganda, bir ajib his bor edi menda* (H.O.).

2. **-gan+o'rin-payt** kelishigi bilan shakllangan payt bildiruvchi **choq, payt, zamon, kez, dam, mahal, vaqt, on** shakllari bilan: *Usta Samarqandda ishlagan vaqtda, Sultonmurod uch yashar bola edi* (O.). *Hammamiz dalaga yo'l olgan chog'da, katta to'y tusini oladi* (H.G'). *U endi choy-poy qilib turgan mahalda, Abdurasul, Oyimxol, Aliqul kirib kelishdi* (Sh.R.). *Men – Farhod, ajdarla olishgan damda, qomating hanjardir, mash'aldir ko'zing* (G'.G'). *Men Abubakirning qo'yini boqish uchun yollangan kezimda, O'rozali ham har yilgidek qo'tirlagan shaharning yarim qo'yini boqdi* (S.Ayn.). *Tong yorisha boshlagan paytda, birdan zilzila sodir bo'lgan edi* ("S.").

-ganda, gan+vaqtda (paytda, chog'da...) shakllari bilan birikkan ergash gaplarda komponentlardagi voqelik bir vaqtda yuz beradi.

3. **-gan+zamon (on, hamon, zahoti...)** shakllari bilan birikkan payt ergash gaplarda komponentlardagi voqelik tez almashganligi anglashiladi: *Jang tugab, oltin zafar bizlarga gul tutgan zamon, Kush bo'lib oldingga uchmay intizor etsam, ulay* (U.). *"Qahramon" jamoa xo'jaligining chegarasi ko'ringan zamon, qizning yuragi orziqib ketdi* (O.). *Ko'cha eshik bo'sagasida Otash-dukchi paydo bo'lgan on, qizlar uning avzoyi buzuqligini payqab, darrov uy-uylariga tarqalishdi* (O.).

Misollardan anglashiladiki, **-gan+zamonda, -gan+zamon** shakllari bir xil – sinonimik hodisalar emas.

4. **-gan+dan keyin (so'ng).** Bu shakllar orqali birikkan payt ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapdagi voqelik bosh gapdagi voqelikdan oldin yuzaga kelgan bo'ladi: *Rahmonqulov stol yoniga o'tirgandan keyin, Xumoxon pochta olib kirdi* (Asq.M.). *Turg'un o'zini tamoman to'xtatib olgandan so'ng, Mastonoy gap boshladi* (O.).

5. **-gandan beri (buyon, boshlab)** shakllari orqali bosh gapga birikkan ergash gaplar harakatning boshlanish paytini, qachondan beri davom etayotganini anglatadi: *Toshpo'latov rahbar bo'lgandan buyon, jamoada ko'p o'zgarishlar bo'ldi* (R.F.). *Tong yorishgandan beri, odamlar kanal tomon yuradilar* (H.O.). *Seni, Omon, ko'rgandan beri, ko'zlarimga uyqu kelmaydi* (H.O.).

6. **-guncha, -gun (-gan)+ga dovur (qadar)** shakllari bilan bosh gapga birikkan ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapdagi harakat ergash gapdagi harakat boshlanishidan oldin yuzaga kelganligi ifodalalanadi: *Vadakachka bitgunga qadar, ariq tayyor bo'ldi* (A.Q.). *Rahbar idorasiga chaqirgunga dovur, ular ko'p narsani gaplashib olishdi* ("S."). *Mazmun hamda shakl jihatidan go'zal kitob yozilguniga qadar, ular shu zaylda ishladilar* ("K.D").

7. **-gan edi, -gan ediki, -gan ham ediki, -ganicha yo'q ediki, -ganicha ham yo'q** shakllari bilan bosh gapga birikadigan ergash gapli qo'shma gaplarda voqealarning odatdagidan tez yuzaga kelganligi, biridan ikkinchisiga tez ko'chishi kabi mazmunlar ifodalanadi: *Saida o'rnidan turgan edi, Nosirov to'xtatdi* (A.Q.) *Saodat bilan Vohid tutga yetgan ham edilarki, chelaklab kuya boshlagan yomg'ir birdan to'xtadi* (O.Y.). *Shoir she'rni o'qib tugatganicha ham yo'q ediki, atrofdagilar qarsak urib yubordilar* (O.). *U shu suvdan ichmoqchi bo'lib, suvdonni to'latgan -ham ediki, qush qanot qoqib suvni tukib yubordi* ("K.D").

8. **-r (-ar)+ekan (kan)**. Bu shakl bilan birikkan qo'shma gaplarda ergash va bosh gapning mazmuni bir vaqtda yuzaga keladi: *U g'azabdan yallig'langan ko'zlari bilan qosh ostida unga tikilib turarkan, ro'parasida, negadir, Xolmat Yunusovich gavdalandi* (Asq.M.). *Jumaboy xayr-xushlashar ekan, Umarali zo'raki iljayish bilan o'rnidan turdi* (O.).

9. **-sa**. Bu bog'lovchi orqali birikkan ergash gap ham payt, ham shart ma'nosini ifodalashi mumkin. Agar payt ma'nosi ifodalansa, ergash gap mazmuni bosh gapning mazmuni bilan bir vaqtda yuzaga kelgan bo'ladi; bir vaqtning o'zida ham payt, ham shart mazmuni ifodalanganda, ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatdan oldin yuzaga keladi; payt mazmunini ifodalagan ergash gaplardagina **-sa** o'rnida **-ganda, gan vaqtda** kabi shakllarni qo'llash mumkin bo'ladi: *Sizni ko'rsam (ko'rganimda, ko'rgan paytda), boyning qizi bo'lganimga o'zim ham afsus qilib ketaman* (O.). *Yuzingni bir ko'ray desam (kurmoqchi bo'lganimda), qo'lingni pardalar qilding* (Zavqiy). *U kelsa, men yo'q ekanman*.

-sa bog'lovchisi ba'zan **-ki** bilan birga ham qo'llanadi: *Uyga kirsaki, Jamila yo'q* (H.H.). *Qarasaki, sandik oqib kelayapti* (F.).

10. **-may, -masdan, -masdan burun (avval, oldin, ilgari)**. Bu shakllar bilan birikkan qo'shma gaplarda bosh gapdagi voqea ergash gapdagi voqeadan oldin yuzaga kelgan bo'ladi: *Rais gap boshlamasdan burun, Saida o'rtaga luqma tashladi* (A.Q.). *Naqqosh ketmasdan avval, shoir eiikka chiqdi* (O.).

*Na ko'kning fanari o'chmasdan,
Na yulduz sayr etib ko'chmasdan,
Na ufq o'ramay yoqut zar,
Na bulut silkitmay oltin par,
Tong kulmasdan burun turardi (U.).*

11. **-r (-ar)+mas.** Kelasi zamon sifatdoshining bo'lishli va bo'lishsiz shakli (juftlashib) orqali bog'langan bunday qo'shma gaplarda ergash gapdagi harakat to'la bajarilib bo'lmasdan, bosh gapdagi harakat boshlanadi: *Kun botar-botmas, biz qishloqqa kirib bordik. Gudok ovozi eshitilar-eshitilmas, hamma zavod eshigi yonida to'planadi (Asq.M.).*

12. **-b (-ib), -gach:** Yanvar oyi boshlanib, sovuq tushdi. Ular supaga o'tirishgach, suhbat o'z-o'zidan boshlanib ketdi (O.).

13. **-sh (-ish)+bilan, deguncha.** Bu shakllar bilan birikkan qo'shma gaplarda bosh gapdagi voqea ergash gapdagi voqeaning boshlanishi yoki yuz berishi bilanoq sodir bo'ladi: *Faytun yurib ketishi bilanoq, Anvar qori yugurib madrasaga kirdi (O.). Fil xartumini suvga solishi bilan, suv chayqala boshladi ("K.D"). Urush bitdi deguncha, hammasi uya-uyasiga qarab qanot qoqadi (O.). Bir ishni qo'liga oldi deguncha, ikkinchisi chokidan ketadi (Asq.M.).*

14. **-ki:** Bu bog'lovchi bilan birikkan qo'shma gaplarda bosh gapdagi harakat yoki voqelikning qachondan beri davom etishi yoki mavjudligi ifodalanadi: *Nur borki, soya bor. U bir necha kun bo'ldiki, joyidan jilmaydi ("K.D"). Shu dargohga kelibmanki, janjaldan boshim chiqmaydi (A.Q.) Shu sahro borki, u ham bor (Asq.M.). Dunyo yaralmishki, bu oftob bor, Sharqdan ko'tarilib, botadi Harbga (G'.G').*

15. **-mi.** Bu bog'lovchi orqali birikkan qo'shma gaplarda bir voqea ikkinchisi bilan tez, qisqa muddatda almashganligi anglashiladi: *Uzoqdan qora ko'rindimi, chopib oldiga borar edi (A.Q.). Paxta ochildimi (ochilishi bilan), terim boshlanadi.*

Payt ergash gaplar ko'pincha bosh gapdan oldin keladi, ergashtiruvchi shakllar ham ergash gap tarkibida bo'ladi. Biroq uslubiy talablar bilan ergash gapning o'рни inversiyaga uchrashi –bosh gapdan keyin yoki uning o'rtasida qo'llanishi mumkin: *Murod ota Shohimardon kurortiga ketdilar, – dedi yigit, uning oldiga choy keltirgach (S.). U, quyosh botib, salqin tushganda, yo'lak bo'ylab sayoqqatga chiqardi ("S.).*

Tahlil namunasi: *Maymun ponani chiqargan o'am ediki, dumini yog'och qisib oldi ("K.D").*

- 1) ikkita sodda gapdan tuzilgan.
- 2) payt ergash gapli qo'shma gap.

3) payt ergash gap **-gan ham ediki** shakli bilan bosh gapga birikkan, bog'lovchi ergash gap tarkibida bo'lib, birinchi o'rinda, bosh gap ikkinchi o'rinda kelgan.

4) chizmasi:

-gan ham ediki,

O'RIN ERGASH GAPLI QO'IPMA GAP reja:

1. O'rin ergash gapningtarifi.
2. O'rin ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy olmoshlar.
3. O'rin ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinlashish tartibi.
4. O'rin ergash gapga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi harakatning yuzaga kelish, boshlanish, yo'nalish o'rnini, makonini anglatadigan ergash gap **o'rin ergash gap** deyiladi. Masalan, *Qayerda intizom yaxshi bo'lsa, u yerda o'qish sifati ham yaxshi bo'ladi* gapining birinchi komponenti (ergash gap) bosh gapdagi o'rin holi vazifasida qo'llanilgan bo'lak (u yerda)ning ma'nosini izohlash asosida bosh gapdagi voqelikning yuzaga kelish o'rmini aniqlashtirgan.

O'rin ergash gapli qo'shma gapning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ergash gap tarkibida **qayerda, (qayda), qay tomonda, qay tarafda; qayerga (qayga), qayoqqa, qaysi tomonga, qay tarafga; qayerdan (qaydan) qaysi tomondan, qay tarafdin, bosh gap tarkibida ko'pincha shularga mos holda shunda, u yerda, o'sha yerda, shu orada, shu (u, uo'sha) tomonda, tarafda; shu (u, o'sha) yerga, yoqqa, tomonga, tarafga; shu (u, o'sha) yerdan, yoqdan, tarafdin, tomondan** kabi nisbiy so'zlar qo'llaniladi.

Bosh gap tarkibida qo'llanilgan nisbiy so'zlar ergash gap tomonidan aniqlashtiriladi. Mana shu nisbiy so'zlar mavjud qurilmaning o'rin ergash gap sifatida shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Nisbiy so'zlar qo'llanilmas ekan, o'rin ergash gap, boshqa sintaktik qurilmaga, masalan, shart ergash gapga aylanadi. Qiyoslaylik: *Qayerda intizom yaxshi bo'lsa, u yerda o'qish sifati ham yaxshi bo'ladi.* – *Intizom yaxshi bo'lsa, o'qish sifati yaxshi bo'ladi.*

O'rin ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi:

1. **-sa:** *Zulm qayerda uchrasa, shu yerda yondirshi kerak.* (O.) *Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi* (maqol). *Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi* (maqol). *Suv qayoqqa oqsa, tosh ham o'sha yoqqa dumalaydi.* (H.Sh.)

O'rin ergash gapning mazmuni bosh gapdagi ma'nosi izohlanayotgan ravishga qarab hukm etiladi: agar bu ravishlar o'rin kelishigida bo'lsa, harakat, xususiyatning o'rni; jo'nalish kelishigida bo'lsa, harakatning yo'nalish o'rni; chiqish kelishigida bo'lsa, harakat yoki belgining boshlanish o'rni anglashiladi. Qiyoslaylik: *Qayerda jamoa ahil bo'lsa, u yerda mehnat unumdor bo'ladi.* – *Qayerda jamoa ahil bo'lsa, u yerdan hech kim ketgisi kelmaydi.* – *Qayerda jamoa ahil bo'lsa, u yerga hamma intiladi.*

Ba'zan ergash gap bosh gapdagi ega vazifasida qo'llanilgan o'rin ko'rsatuvchi so'zning ma'nosini izohlaydi. Biroq bunday ergash gaplar o'rin ergash gap emas, aniqlovchi ergash gap sanaladi: *Qo'shinimiz qayerdan o'tgan bo'lsa, o'sha yer mening o'z joyim (Qo'shinimiz o'tgan yer mening o'z joyim).*

O'rin ergash gap bo'lish uchun ergash va bosh gapdagi o'ringa munosabat ko'rsatuvchi so'z o'rin kelishiklarining biror shaklida qo'llanilgan bo'lishi kerak. Biroq ba'zan uslubiy talab bilan nisbiy olmosh – o'rin ravishi bosh gap tarkibida qo'llanmasligi, bu umumiy holatdan, ergash gap tarkibidagi nisbiy so'zdan anglashilib turadi: *Qayerda tashvish, janjal, ishkal bo'lsa, o'zingni urasan. (Asq.M.) Saidra rais qayoqqa boshlasa, yurar... (A.Q.)*

Ba'zi hollarda bosh gapdagi mazmuni izohlanayotgan ravishning gapda aniq qo'llanish zaruriyati yo'qolgan bo'ladi: *Men qayerga borsam, sen menga hamroh bo'lursen. (O.)*

2. O'rin ergash gap bosh gapga bo'lishsiz shakldagi buyruq fe'li vositasi (**-ma**) bilan birikadi: *Vatanimizning qayeriga bormang, u yerda chiroqlar nur sohib turadi (Oydin).*

3. **ekan, -gan ekan, -r (-ar) ekan, -mas ekan:** *Qayerda tinchlik va demokratiya g'oyalari bor ekan, u yerda urush olovini yoquvchilar g'alaba qozona olmaydilar. (gazeta) Qayerda tanqid va o'z-o'zini tanqid yo'lga qo'yilmagan (qo'yilmas) ekan, u yerda intizom bo'shashadi (gazeta). Qayerdagi tartib buzilar ekan, u yerda jamoa katta zarar ko'radi (gazeta).*

4. **-di:** *Qayerda intizom buzildi, u yerda ish rasvo (U.)*

5. O'rin ergash gap bosh gapga ba'zan bog'lovchisi vositalarsiz **ohang** bilan ham birikadi: *Qayerda intizom tahkam, u yerda ish yirik (U.).*

O'rin ergash gap ko'pincha bosh gapdan oldin keladi, gap tarkibidagi nisbiy so'zlar komponentlarning o'rnini almashtirishga uqadar yo'l qo'ymaydi.

Tahlil namunasi: *Qayerda baxt bor bo'lsa, shu yerda kulgi bo'ladi; qayerda kulgi bo'lsa, shu yerda qo'shiq jaranglaydi («K.D.»).*

1) to'rt gapdan, ya'ni ikkita o'rin ergash gapli qo'shma gapdan tuzilgan,

2) ergash gaplar tarkibida **qayerda**, bosh gaplar tarkibida **shu yerda** nisbiy olmoshlari qo'llanilgan,

3) ergash gaplar bosh gaplarga **-sa** bog'lovchisi bilan birikkan va biriktiruvchi vosita ergash gaplar tarkibida bo'lib, ergash gap birinchi o'rinda kelgan,

4) o'rin ergash gapli qo'shma gaplar o'zaro bog'lovchisiz – teng ohang bilan birikkan,

5) chizmasi: -sa, -sa,

**SHART ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP
reja:**

1. Shart ergash gapning ta'rifi.
2. Shart ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinlashish tartibi.
3. Shart ergash gapli qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi voqea-hodisaning qanday shart bilan yuzaga kelishini ifodalaydigan ergash gap **shart ergash gap** deyiladi: *O'g'it solinsa, yer unumdor bo'ladi* gapida bosh gapdagi voqelikning bajarilishi ma'lum shartga, ergash gapdagi voqelikning yuzaga kelish-kelmasligiga asoslangan.

Shart ergash gaplar har uch zamonda aniq ravishda yuzaga keladigan harakatni yoki taxmin qilingan voqelikni ifodalaydi. Shunga ko'ra shart ergash gaplar ikki turga ajratiladi: 1) aniq voqea-hodisani ifodalaydigan shart ergash gaplar; 2) mo'ljallangan, taxmin qilingan (noaniq) voqea-hodisani ifodalovchi shart ergash gaplar.

Shart ergash gaplar aniq voqeani ifodalaganda, ergash gapdagi shart ("A") bosh gapdagi natija ("B") ni keltirib chiqaradi. Agar ergash gapdagi "A" bo'lmasa, bosh gapdagi "B" ham bo'lmaydi: *Agar yerga o'g'it solinsa, hosil mo'l bo'ladi* – "A" bo'lsa, "B" bo'ladi. *Yerga o'g'it solinmasa, hosil mo'l bo'lmaydi.* – "A" bo'lmasa, "B" bo'lmaydi.

Ergash gapdagi shart noaniq voqea ifodalaganda, ergash gapdagi voqeaning yuzaga kelmaganligini, uning faqatgina mo'ljallanganligini, taxmin kilinganligini anglatadi: *Qalandarov biroz sabr qilsa, ortiqcha so'zga o'rin ham qolmas edi.* (A.Q.) *Xat orqali xabar bersangiz, men*

ham borgan bo'larmidim (S.Zun.) Agar Bozorning aqli bo'lsa edi, men, senga o'xshash kambag'allar bilan maslahat qilar edi. (S.Ayn.)

Shart ergash gapda quyidagi holatlar ifodalanadi: 1) aniq shart: *Sen kulmasang, kulmaydi bahor (Q.)*, 2) tanbeh, ogohlantirish: *O'zgalar yuzin tomosha aylasam, chiqsin ko'zim (N.)*, 3) gumon, achinish, afsuslanish: *Pul to'lasa, izvoshchi shundoq olib borib ko'rsatib kela qolar (Asq.M.). Eh, yosh vaqtim bo'lsa, unda boshqa narsa der edim ("S.")*.

Shart ergash gapli qo'shma gaplar quyidagi vositalar bilan yasaladi:

1. **-sa+chi:** *Xo'p deya qolsa-chi, biz ketardik (Asq.M.)*.

2. **bo'lmasa, yo'qsa:** *Doim olg'a qarab harakat qil, bo'lmasa ish o'ngidan kelmaydi. (Asq.M.) Och darvozan, yo'qsa boshing olaman (I.)*

3. **-sa+edi:** *Urush bo'lmasa edi, bugungi taraqqiyotimiz yanada yuqori bosqichda bo'lardi ("S.")*.

4. **-gan+da (-gan+da edi).** Bu shakl bilan hosil bo'lgan ergash gaplar shaklan payt ergash gapga o'xshasa-da, mazmunan shart ergash gapdir. Bosh gapdagi fe'l kesimning zamoni (tugallanmagan o'tgan zamon) uning shart ergash gap ekanligini ko'rsatib turadi. Ergash gapning tarkibida **agar, mabodo, bordi-yu** kabi so'zlar kelganda, shart ma'nosi yana ham aniq ko'rinadi: *Agar shu tuproq bo'lmaganda edi, menda na yurak, na baxt, na oila bo'lar edi. Bordi-yu hamma bir-birining fikriga qo'shila berganda, hech qanday ko'rash ham bo'lmas edi (Asq.M.)*.

5. **-r (-r) ekan, -gan ekan, emas ekan, -moqchi ekan:** *Modomiki, otam rahmatli va'da qilgan ekan, biz albatta u kishining orzusini amalga oshiramiz (O.). Modomiki, tarkibni ko'paytirish mumkin emas ekan, shu tarkibning o'zidan mumkin qadar ko'proq foydalanishga harakat qilishimiz kerak bo'ladi (A.Q.). Nazokat ishingizga ko'maklashmoqchi ekan, xursand bo'lishingiz kerak (S.Zun.)*.

6. **-mi:** *Kessondan havo chiqdimi, demak, suv o'pirib kiradi. (Asq.M.) Choy damladingmi, hidi gurkirab tursin. (H.G'.) Intizom buzildimi, ishda unum bo'lmaydi. (U.)*

7. **-sa bor+mi:** *Inson bolasi jazm qilsa bormi, tog' yorilib, yo'l beradi. (Asq.M.)*

8. **-ki:** Bu shakl bilan birikkan qo'shma gaplarda ahd kilish, qasam ichish, va'da berish ma'nolari ifodalanadi: *Sening ko'zing surmasidan ayrilgan bu ko'zlarimga lahad tuproqlari to'lsinki, bir odim sendan yiroq qolsam. (H.H.)*

9. **-may:** *Yer ko'karmay, mol to'ymas. Jafo chekmay, jonona qayda, Toqqa chiqmay, do'lana qayda (maqol).*

10. **-gan+dan keyin:** *Ko'l kalta bo'lgandan keyin, qayoqqa uztasan. (O.)*

Shart ergash gap **ehtimol, ajab emas, mayli, balli, qani (endi), bas, bo'ldi, bo'lgani** kabi so'z-gaplarni izohlab keladi: *Yuragimga o't solib yondirsang, mayli. (U.) Yuragimni berib ketsang, bas. (U.) Menga bir ishora qilsang, bo'lgani. (H.H.) Zamona oxir bir inqilob o'lsa, ajab ermas. (Zavqiy)*

Ba'zan bosh gapdagi **bas, bo'ldi** kabi so'zlardan so'ng shu so'zlarni izohlovchi tuliq ikki tarkibli gap keltiriladi: *Menga bitta ishora qilsa, bo'lgani, darrov oldiga boraman.*

Bosh gapga **-sa, -sa edi, -sa+chi, -gan+da (edi), -r (-ar) ekan, -gan+dan keyin, bo'lmasa, yo'qsa, -mi, -sa bormi, -may** kabi yordamchilar orqali birikkan shart ergash gap ko'pincha bosh gapdan oldin, biriktiruvchi shakllar ergash gap tarkibida, **-ki** bilan birikkan ergash gap bosh gapdan keyin, **-ki** bosh gap tarkibida qo'llaniladi.

Tahlil namunasi:

*Til bo'lsaydi o'z qalbining sirdoshi,
Kesilmasdi til egasining boshi ("K.D").*

- 1) ikkita sodda gapdan tuzilgan,
- 2) birinchi komponent sabab ergash gap; ikkinchisi bosh gap,
- 3) ergash gap bosh gapga **-saydi (-sa edi)** bog'lovchisi orqali birikkan, bog'lovchi ergash gap tarkibida bo'lib, ergash gap birinchi, bosh gap ikkinchi o'rinda kelgan,
- 4) chizmasi: -sa edi,

TO'SIQSIZ ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. To'siqsiz ergash gapning ta'rifi.
2. To'siqsiz ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinlashish tartibi.
3. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapning mazmuni bosh gapning mazmuniga zid bo'ladi; shu zidlikka – tusiqqa qaramay, bosh gapdagi voqea-hodisa yuzaga keladi – bajariladi. Bosh gapdagi voqelikning yuzaga kelishiga monelik qilmaydigan ana shunday ergash gaplar **to'siqsiz ergash gap** deyiladi: *Atrof fashistlar bilan o'rab olingan bo'lsa ham, partizanlarimiz radistlar manziliga yetib bordi (A.R.)* gapida ergash gapning mazmuni nuqtai nazaridan qaralganda, bosh gapning

mazmuni orqali anglashilgan voqelik bajarilmasligi kerak. Biroq shunga qaramay, u yuzaga kelgan – bajarilgan.

To'siqsiz ergash gap mazmun va tuzilishi jihatidan shart ergash gapga yaqin. Shart ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap shartni, bosh gap uning natijasini bildiradi. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda esa bosh gap ergash gapdagi shartga asoslangan natijani emas, shartsiz natijani, bosh gap natijasiga qarama-qarshi sababni bildiradi. Shart ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gapdagi voqea ("A") bosh gapdagi voqea ("B")ni keltirib chiqaradi; to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda esa ergash gapdagi "A" siz ham "B" kelib chiqaveradi. Qiyoslaylik: *Boshqalar o'zini har qalay tutib olgan bo'lsa ham, Onaxon hamon tinchiy olmas edi.* (Asq.M.) – to'siqsiz ergash gapli qo'shma; *Rahbariyat jonli, mustahkam bo'lsa, sog' kishiga Suqrotning nima keragi bor.* (A.Q.) – sabab ergash gapli qo'shma gap.

To'siqsiz ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. **-sa ham (-yam):** *Gulning to'ni ming yamoq bo'lsa ham, u – gul* (O.). *Qornimiz och bo'lsayam, ko'zimiz to'q bo'lsin* (O.). *Do'st bilan obod uying, Gar bo'lsa u vayrona ham* (E.V.).

2. **-sa hamki:** *Bu ish andak mehnat talab qilsa hamki, foydasi yo'q* ("K.D."). *Bo'lsang hamki qari, bo'lsang ham chol, qo'lingga qurol ol!* (H.O.).

3. **-sa:** *O'zi ko'rmasa, bolalari ko'rar yorug'likni,– dedi kampir osoyishta tovush bilan* (O). *Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa, Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish* (N.).

4. **-sa-da:** *Tulki tilmochning asli ismi Bozorboy bo'lsa-da, bu ismni ko'plar bilmas edi.* (O.) *Kiyinish har bir kishining shaxsiy ishi bo'lib ko'rinsa-da, u kishi o'z didini boshqalarga yuqtirayotganligini unutilmasligi kerak.* ("S.")

5. **-gan+da ham (-yam):** *Buloq qaziyotgan barcha xasharchilar charchab uyquga ketganda ham, Olimjon bezovtalanib aylanib yurar edi* (Sh.R).

6. **-gan chog'da (paytda, vaqtda, taqdirda) ham:** *O'q yog'ilib turgan paytda ham, ona yodga olinadi* ("S."). *To'ldirgan chog'da ham jahonni nurga, Quyosh qucha olmas seni daf'atan.* (H.O.) *U unutgan taqdirda ham, men uni unutmayman* ("S.").

Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, to'siqsiz ergash gaplar mazmun jihatidan quyidagi ikki guruhga ajraladi:

a) **to'siqsiz shart ergash gapli qo'shma gaplar.** Bunda ergash gap

bosh gapdagi mazmunga zid qo'yilgan shartni anglatadi: *Suv to'xtasa ham, parrak aylanib turardi.* (Asq.M.)

b) **to'siqsiz payt ergash gapli qo'shma gaplar.** Bunda ergash gap bosh gapning mazmuniga zid bo'lgan paytni anglatadi: *Asalari uzoq-uzoqlarga uchganda ham, u o'z uyasini tark etmaydi.* ("F.T.")

7. **-gan (i) bilan:** *Toshga yomg'ir qor qilurmi, muttasil yoqqan bilan, Davlatingiz kam bo'lurmi, bir qiyo boqqan bilan* (Q.) *Umrzoq ota nasihat qilgani bilan, Oyoqiz bunga ko'nmas edi.* ("F.T.")

8. **-ga qara+may//(-mas+dan):** *Martabasi ulug' bo'lishiga qaramasdan, eng yaqin do'stday g'amxo'rlik qilgan* (A.Q.). *Shamol qattiq bo'lganiga qaramay, yo'lovchilar manzilga yetib olishdi.*

9. **-b (-ib):** *Reja bajarilib, biz ishni to'xtatib qo'ymadik. Yanvar oyi kirib ham havoda birorta bulut ko'rinmaydi. Shifokor bo'la turib, bu kasallikning havfli ekanligiga aqli yetmabdi-da,*— dedi Mirsalim ("Mushtum").

10. **-gan (i) holda:** *Oftob toblanib turgan holda, yomg'ir yog'moqda edi. Poyezdga biletim bor bo'lgani holda, atayin jo'namadim.* (so'zlashuvdan)

11. **-di hamki:** *Oradan ykki oy o'tdi hamki, inspektor ishdan chiqmadi* (A.Q.). *"Bulbuli go'yo" ancha kutdi hamki, Saidiy javob bermadi* (A.Q.). *Kutilgan soatlar o'tdi hamki, mehmonlardan darak bo'lmadi* ("Mushtum").

12. **-dan qat'i nazar:** *Reja bajarilganligidai qat'iy nazar, paxta oxirgi chigitgacha terib olinishi kerak* (gazeta).

13. Buyruq maylidagi fe'ning inkor shakllari **-masin, -mang, -maylik** kabilar bilan: *Hukumatimiz naqadar badavlat va qudratli bo'lmasin, siz bilan biz, ayniqsa, biz cho'l o'zlashtiruvchilar isrofgarchilikka yo'l qo'ya olmaymiz.* (Asq.M.) *Sendan ajralib qayerga ketmaylik va qanday nozu ne'mat ichida yashamaylik, bizga tatimaydi* ("K.D").

14. To'siqsiz ergash gap kesimi tasdiq va inkor shaklda takrorlanib, juftlashib, bosh gapga bog'lanadi: *Derazadan boqmangiz, boshim yalang, Boqsangiz-boqmasangiz, qoshim qalam.* (O.) *Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma, qondir jigarim, xoh inon, xoh inonma* (Lutfiy).

15. **-mi.** Bunda **-mi** bilan shakllangan kesimlar uyushgan shaklda bo'ladi: *Bu gap hazil ekanmi, rost ekanmi, uch-turt oy o'tib, bobomning uyida manqillab, gapiradigan bir kampir paydo bo'ldi* (E.A.). *Saida telefonga javob beradimi, kelgan-ketgan odamlar bilan muomala qiladimi, qo'lida qog'oz, kapalakday uchib, hali u eshikka, hali bu eshikka kirib chiqadimi* — boshidan xayol arimay qo'ydi. (A.Q.)

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarning ergash komponenti tarkibida ba'zan harakat miqdorini kuchaytirish, qabartirib, bo'rttirib ko'rsatish uchun **qancha, qanchalik, nechog'lik, naqadar** so'zlari qo'llaniladi: *Qancha tirishsam ham, u beor yellar meni aldab ketadi.* (H.O.) *Bu gaplar naqadar shirin, naqadar yoqimli bo'lmasin, Qalandarov bularga har nechuk ko'tarilgan bolta deb qaradi.* (A.Q.)

To'siqsiz ergash gap, ko'pincha, bosh gapdan oldin, uslubiy talab bilan, bosh gapdan keyin yoki uning o'rtasida kelishi ham mumkin: *Ocherkda "Buston" deb sarlavha qo'yilgan bo'lsa ham, gap faqat Arslonbek Qalandarov haqida borardi.* (A.Q.) *Dunyo go'zal ko'rinar menga, o'zi qancha eski bo'lsa ham.* (H.O.) *Tohirjon Nosirov... yoshi ellikdan oshib ketganiga qaramay, idora binosi zinasidan chopqillab chiqib kelayotgan edi.* (A.Q.)

Tahlil namunasi:

*O'tgan bo'lsa hamki qancha shonli zamonlar,
Bizning davrimizdek davron bo'lmagan* (Q.)

- 1) ikkita sodda gapdan tuzilgan,
- 2) birinchi komponent to'siqsiz ergash gap, ikkinchi komponent bosh gap,
- 3) ergash gap bosh gapga **-sa hamki** shakli bilan birikkan; bog'lovchi ergash gap tarkibida, ergash gap birinchi, bosh gap ikkinchi o'rinda kelgan,
- 4) chizmasi: -sa hamki,

NATIJA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

reja:

1. Natija ergash gapli qo'shma gapning ta'rifi.
2. Natija ergash gapli qo'shma gapning boshqa ergash gaplardan farqi.
3. Natija ergash gapli qo'shma gaplarda izohlanuvchi (olmosh) so'zlar.
4. Natija ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar va komponentlarning o'rinish tartibi.
5. Natija ergash gapli qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

Bosh gapdagi ish-harakat yoki voqeaning xulosasini anglatadigan ergash gaplar **natija ergash gap** deyiladi. Masalan, *Otimni bu buyuk odam shunday mehr bilan aytdiki, uning ojizona yotganiga achinib, ko'zimdan yosh chiqib ketdi* (Asq.M.) gapida ikkinchi komponent

birinchi komponent orqali berilgan hukmdan kelib chiqqan xulosani – natijani anglatgan.

Natija ergash gap mazmun va grammatik shakllanishi jihatidan qisman aniqlovchi, o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarga o'xshasa-da, ular o'zaro quyidagicha farqlanadi: aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarning bosh gapidagi izohlanuvchi so'zlar (masalan, **shunday**) predmetga bog'lanadi; o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplarning bosh gapidagi izohlanuvchi so'zlar (masalan, **shunday**, **shunchalik**) sifat, ravish bilan ifodalangan bo'lakka – belgi, miqdor ifodalovchi so'zga bog'lanadi; natija ergash gapli qo'shma gaplarnig bosh komponentidagi izohlanuvchi so'zlar (masalan, **shunday**, **shunchalik**) bosh gap kesimi orqali ifodalangan harakatga bog'lanadi. Boshqacha aytganda, aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi biror bo'lakning (predmetning) belgisini, o'lchov-daraja ergash gap bosh gapdagi harakatning belgi-xususiyatini va uni hajm-miqdor jihatdan darajasini; natija ergash gap bosh gapdagi harakatdan kelib chiqadigan xulosani ifodalaydi. Qiyoslaylik: *Shunday odam haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi gavhardir* – har bir so'zi gavhar odam haqida xabar keltirdim (aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap). *U shunchalik (shunday) go'zal ediki, falak bunday jamolni ko'rmagan edi* ("K.D.") – uning jamoli falak ko'rmagan darajada go'zal edi (o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap). *Qalandarov shunday baqirdiki, Saidaning aysizlanib ketdi* (A.Q.) gapida esa birinchi gapdagi voqelik tufayli yuz bergan xulosa anglashiladi (natija ergash gapli qo'shma gap).

Natija ergash gap bosh gapdagi **shunday**, **shunaqanggi**, **shuncha**, **shu qadar**, **shunchalik**, **chunon**, **biram**, **bir** kabi so'zlarning ma'nosini aniqlashtiradi (Bu so'zlar ba'zan ishtirok etmasligi ham mumkin): *Saidaning ta'bi ochildi, shu qadar ochildiki, azoyi badani kelida tuyilganday bo'lsa ham, o'rnidan turib o'tirdi* (A.Q.). *Barzuya... unga shunchalik yaxshiliklar qildiki, ular oxiri aka-ukaday bo'lib qoldilar*. ("K.D.") *Agar bir odam bu ishdan xabar topsa, bizning birodarligimiz shunday buziladiki, uni hech narsa bilan tiklab bo'lmaydi*. ("K.D.".)

Natija ergash gapli qo'shma gaplarning ergash gap qismida natija ma'nosini ta'kidlab ko'rsatish uchun **natijada**, **oqibatda** kabi so'zlar qo'llanilishi mumkin: *Zambarakning gumburlashidan haybatli bir guvillash hosil bo'ldiki, natijada bu yerda to'pning ovozi butkul eshitilmay qoldi* (O.).

Natija ergash gaplar fikr ifodalashi jihatidan ikki holatni ko'rsatadi:

1) Natija ergash gapdagi fikr aniq bo'ladi: bosh va ergash gaplarning

fe'l kesimlari o'tgan yoki hozirgi zamon shaklida bo'ladi: *U shunday kinoyali harakatlar ko'rsatdiki, odamlar kulgidan ichaklari uzilayozdi* (O.).

2) Ergash gapdagi fikr noaniq (mo'ljallangan, tahmin qilingan, maqsad qilingan) bo'ladi. Bunda bosh gapdagi fe'l kesim buyruq-istak yoki kelasi zamon shaklida bo'lib, ergash gapning fe'l kesimi buyruq maylida qo'llanadi: *Hamkorlikda shunday hosil yetkazaylikki, "balli" desin butun odamzod* (G'.G').

Natija ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar bilan birikadi:

1. **-ki**: *Dul shunday yog'diki, yer birpasda oppoq bo'ldi.*

2. **-gan edi**. Bunda biriktiruvchi ohang ham rol o'ynaydi: *Zumrad belini siqib tugmalangan kalta nimchasining cho'ntagidan xil-xil ipak turlangan koptokni chiqarib yerga bir urgan edi, u bo'y barobar sapchib ketdi* (O.). *Hamidullo stolning ustida turgan grafinni olib yerga urgan edi, uning mushtday keladigan shisha tiqini otilib ketib, qishmatbaho bufetining toshoynasini chil-chil qildi* (A.Q.).

Natija ergash gapli qo'shma gaplarda bog'lovchilar bosh gap tarkibida bo'ladi va bosh gap doimo birinchi o'rinda keladi.

Tahlil namunasi: *Sidiqjon shunday kattiq kuldiki, burchakdagi kulcha bo'lib yotgan mushuk shoshib o'rnidan turdi va Sidiqjoiga qarab "miyov" dedi* (A.Q.)

1) ikkita gapdan tuzilgan,

2) birinchisi bosh gap, ikkinchisi natija ergash gap bo'lib: a) bosh gapdagi **shunday** so'zini aniqlashtirgan, b) shunday so'zi fe'l kesimga bog'langan, v) ergash gap bosh gapga **-ki** vositasida birikkan va ikkinchi o'rinda kelgan. Qo'shma gapda aniq voqea ifodalangan,

3) chizmasi: sunday -ki,

BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP

reja:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gapning ta'rifi.
2. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap.
3. Ergashgan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap.
4. Bog'lovchili qo'shma gapga sinonim bo'lmagan bog'lovchisiz qo'shma gap.
5. Bog'lovchisiz qo'shma gapga doir tahlil namunasi.

Ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning bog'lovchilarsiz yoki bog'lovchi vazifasidagi grammatik vositalarsiz faqat bir butun yaxlit ohang asosida birikishidan tashkil topgan sintaktik qurilmalar **bog'lovchisiz qo'shma gap** deyiladi: *Odamnine tanasida chorakkam besh litr qon bor, shuning hammasi taxminan har minutda bir marta yurakdan o'tib turadi* (Asq.M.). *Ot-eshaklar, aravalar dukuri tinmaydi, somon ortilgan tuyalar ketma-ket o'tadi.* (O.)

Bog'lovchisiz qo'shma gapning komponentlari bir-biridan sanash ohangiga o'xshash tugallanmagan intonatsiya bilan ajralib turadi va unda voqealarning bir vaqtda yoki ketma-ket yuz berishi ko'proq tasviriy tarzda ifodalanadi: *Daraxtlarning ustidan onda-sonda qushlarning sadosi bir zumgina yangrar, yana og'ir jimlik cho'kardi.* (O.). *Go'zal qizsiz, pinhon ishqingizda o'rtanaman.* (O.)

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar komponentlarning o'zaro mazmun munosabatiga ko'ra uchga bo'linadi: 1. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap. 2. Ergashgan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap. 3. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lmagan bog'lovchisiz qo'shma gap.

Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari bir-biriga "tenglik" yoki "tenglanish" ohangi vositasida birikadi. Bog'lovchisiz qo'shma gap bog'lovchili qo'shma gapning hamma turiga emas, faqat biriktiruv va zidlov munosabatini ifodalovchi turlarigagina sinonim bo'lib keladi: Qiyoslaylik: 1. *Ro'zimatning rangi o'zgardi va ko'zlarida hamisha o'ynab turadigan tabassum ifodasi to'satdan yo'qoldi.* (A.Q.) 2. *Oyda dog' bo'lsa bo'lar, ammo siz bilan bizda bo'lmasin.* (U.) 3. *Yoki mening ko'nglim hamma vaqt yosh, Yoki chiroy senga umrbod yo'ldosh* (U.) 4. *Ularda na aql va ma'rifat bor, na insof na muruvvat bor* ("K.D").

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisini bog'lovchilarni tushirib bog'lovchisiz qo'shma gapga aylantirish mumkin-u, biroq uchinchi va to'rtinchi gaplar bunday qilishga imkon bermaydi, aks holda gaplarning oldingi mazmuni o'zgarib ketadi.

Bog'langan qo'shma gap bilan bog'lovchisiz qo'shma gapning sinonimligi faqat ularning biridan bog'lovchini tushirish yoki orttirish mumkinligidagina emas (bu holat farqli bo'lib, ohangda ham har xil o'zgarish bo'ladi), balki har ikki qurilma mazmunidagi tabiiy yaqinlikdir: *Boshliq ovqatni yemay chetga surib qo'ydi, yuziga allaqanday soya tushdi.* // *Boshliq ovqatni yemay chetga surib quydi va yuziga allaqanday soya tushdi.* (Asq.M.) *Kun sovuq, bozor qaynaydi.* // *Kun sovuq, lekin*

bozor qaynaydi. (O.)

Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar ham bir vaqtda yoki ketma-ket yuzaga keladigan voqea-hodisalarni ifodalaydi: *Ko'klamning sayroqi qushlari tabiat ko'rinishlarini kuylamoqdalar, ko'm-ko'k ko'katlar silkinib qushlarni olqishlamoqdalar. (O.) Gulnor boshni Yo'lchining ko'kragiga suqib yig'ladi, Yo'lchi uni eshik oldiga olib bordi. (O.)*

Bu tipdagi qo'shma gaplarda ketma-ketlik mazmunini aniqroq ko'rsatish uchun komponentlarning bosh qismida payt ravishlari ham qo'llaniladi: *Avval menga yetib olishsin, undan keyin birga o'qiyman-da. (A.Q.) O'sarjon dastlab o'zi yo'q vaqtda qilingan ishlar bilan tanishdi, keyin terim masalalariga ko'chdi. (O.)*

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ba'zan zidlov bog'lovchili qo'shma gap kabi zid mazmunli komponentlardan tuziladi: *Tong otgan, hali osmon qorong'i edi (S.Zun). Tong otgan, lekin hali osmon qorong'i edi.*

Umuman, bog'lovchisiz qo'shma gap bog'lovchili qo'shma gaplar bilan ma'lum o'rinlarda sinonimligidan qat'i nazar, ular ham mazmun, ham grammatik jihatidan bir xil hodisalar emas.

Ergashgan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'zaro tobelanish ohangi orqali birikadi va bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan farq qiladi.

Ergashgan qo'shma gaplarning hamma turi ham bog'lovchisiz shaklda kelavermaydi. Chunonchi, ravish, chog'ishtirish, o'lchov-daraja, o'rin ergash gaplar bog'lovchisiz kelmaydi. Chunki bu xil gaplarda bog'lovchilar yoki nisbiy so'zlar tushirilganda, shu turdagi qo'shma gap hosil bo'lmaydi.

Quyidagi ergash gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi:

1) Shart ergash gap, payt ergash gap, to'siqsiz ergash gap, natija ergash gap, sabab ergash gap, o'xshatish ergash gap, ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap.

Shart ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplarning birinchi komponenti keyingi komponentdagi voqelikning yuzaga kelish shartini bildiradi. Oldingi komponentdagi ohang balandroq, keyingisi pastroq bo'ladi, komponentlar orasida biroz to'xtab olinadi: *To'g'ri bo'ling –behovotir bo'lasiz. Qo'shning tinch –sen tinch (maqollar).*

2) Payt ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz

qo'shma gaplarda birinchi komponent ikkinchi komponentdagi voqea-ning bajarilish paytini anglatadi: *Paxta ochildi (ochilishi bilan), terim boshlandi.*

3) To'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda birinchi (tobe) komponentning mazmuni keyingi komponent mazmunining bajarilishiga zid bo'lsa-da, voqelik yuzaga keladi: *O'zim har joydaman, ko'nglim sendadir* (Muq.). *It xuradi – karvon o'tadi.* (maqol)

4) Natija ergash gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarining ikkinchisi birinchisi orqali kelib chiqadigan natijani anglatadi: *U shunchalik berilib termildi, soyning o'rtasida suv ichayotgan otning pishillashi ham sezilmadi.* (O.)

5) Sabab ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarining birinchisida sabab, ikkinchisida shu sababdan kelib chiqadigan natija anglashiladi: *Qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingchz* (maqol). *Yo'lboshchimiz bor – xalq birligi bor.* (G'.G'.)

6) O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari orqali ikkita o'xshash voqelik ifodalanadi: *Qor yog'di – don yog'di. Suv keldi – nur keldi.* (maqol)

7) Maqsad ergash gapli qo'shma gaplarga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda komponentlardan biri boshqasi orqali yuzaga keladigan voqelikning maqsadini ifodalaydi: *Vatanni bezang – avlodlar unutmaydi. Derazani ochdim – toza havo kirsin.*

8) Ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi ergash gaplarga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar (izohlovchi komponentli qo'shma gaplar)da mazmunan tobe komponent hokim komponentdagi olmosh bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan egani (*Faqat shu esida: ertasi kuni ko'zini ochsa, Sobirjon yonida yo'q edi* – Asq.M.), kesimni (*Yaxshisi shu: bizdan havotir olmay, Kapsanchilar oldiga borgin* – A.Q), to'ldiruvchini (*Men bilaman: sizlarga ishonish qiyin* – A.Q.), aniqllovchini (*Bir gapim bor, aytaman*) izohlaydi.

Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lmagan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarini bir-biriga bog'lash uchun hech qanday bog'lovchini qo'llab bo'lmaydi. Shuning uchun bunday bog'lovchisiz qo'shma gap bog'lovchili qo'shma gapga sinonim bo'lmaydi: *Qani bo'lmasa, biz bilan yuring, soy bo'yini aylanib kelamiz* (S.Ahm.). *Oldingizda bir yo'l bor: bu haqiqat yo'li.* (A.Q.)

Bog'lovchili qo'shma gapga sinonim bo'lmagan bog'lovchisiz

qo'shma gaplar, ko'pincha, maqol, matal, aforizm, hikmatli ibora, topishmoq va poetik nutqiy parchalar bilan ifodalanganligidan, ularning komponentlari mazmun jihatidan ixcham, zich bo'ladi, ohang bilan birikkanligidan, ular o'rtasiga bog'lovchi vositalar kiritib bo'lmaydi: *O'sma ketar, qosh qolar* (maqol). *Shoirлари g'azal yozadi, botirlari kanal qazadi* (H.O.).

Tahlil namunasi: *Hayot bor – mudrash, hayot bor – kurash!* (Asq.M.)

- 1) ikkita bog'lovchisiz qo'shma gapdan tuzilgan bog'lovchisiz murakkab qo'shma gap,
- 2) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapga sinonim,
- 3) chizmasi:

MURAKKAB QO'SHMA GAP

reja:

1. Murakkab qo'shma gapning ta'rifi.
2. Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.
3. Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap. Bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan (aralash aloqali) murakkab qo'shma gap.
4. Murakkab qo'shma gap turlariga doir tahlil namunasi.

Uch va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan birikishidan tashkil topgan, umumiy bir yaxlit tugallanuvchi ohangga ega bo'lgan sintaktik qurilmalar **murakkab qo'shma gap** deyiladi.

Qo'shma gapning murakkab shakli uning sodda (ikki komponentli) shaklidan: 1) komponent miqdorining ko'pligi, 2) unda birdan ortiq bog'lanish usulining mavjudligi bilan ajralib turadi: *Daraxtlarning tanasi pakana, mevasi mo'l va yirik, lekin hozir deyarli hammasi ko'm-ko'k.* (O.) *Zargarovning gaplari va tashabbusi oblast komitetiga uncha maqtov bo'lib tushmasa ham, ayrim iboralari unga tegib-tegib ketayotgan bo'lsa ham, Haydarov notiqqa xavotirli bir qiziqish bilan quloq soldi.* (Asq.M.) *Hunar va iste'dod mushki anbar kabidir, uni qanchalik bekitmang, u shunchalik atrofga yoyilib, hamma yoqni muattar qilib yuboradi.* ("K.D".)

Misollar shuni ko'rsatadiki, komponentlarining o'zaro grammatik

munosabatiga ko'ra murakkab qo'shma gaplar uch guruhga ajraladi: **bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap, ergashish (tobelanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap, aralash aloqali murakkab qo'shma gap.**

Uch va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan teng munosabatga kirishishidan tashkil topgan sintaktik qurilmalar **bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap** deyiladi. Bu turdagi qo'shma gap komponentlarining birikishida ikki xil usul bor: 1) komponentlar faqat **ohang** bilan birikadi. Bunda bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi grammatik shakllar qatnashmaydi; 2) komponentlar ham **teng bog'lovchilar**, ham teng ohang (aralash usul) bilan birikadi. Bunda teng bog'lovchilarning o'rni har xil: biriktiruv va zidlov bog'lovchilari yo ikkita komponentni juftlab bog'lash uchun gap o'rtasida, yoki komponentlarning tugaganligini ko'rsatish uchun oxirgi komponentning oldida qo'llaniladi.

Tenglanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplarning quyidagi ko'rinishlarini kuzatamiz:

1) *Umarali ohista yurib qizning eshigi oldidan o'tdi, hammayoq jimjit, faqat yuragining gurs-gurs urgani eshitiladi, xolos.* (O.)
chizmasi:

2) *Otini bilolmadim, ammo qamishday qomati bor, husnini ta'rif qilolmayman.* (O.) chizmasi:

, ammo

3) *Goh o'tmish azoblari esiga tushadi, goh o'z boshlig'ining uquvsizligidan kuyinadi, goh o'z oldiga qo'yilgan maqsad uni kelajak sari yetaklaydi.* (Asq.M.) chizmasi: goh goh goh

4) *Uning nomiga g'alati bir konvert chiqdi: na familiyasi bor, na adresi bor va na pochta muhri.* (Asq.M.)
chizmasi: na na va na

5) *Io'lchining farishtaday singlisi bor, bir mahsido'z cholning qo'lida, qiz ham kosiblikda farang, tikkan mahsilari misoli bir gul.* (O.)
chizmasi:

6) *Qo'lida pestolet ushlagan ikki fashist xonaga kirib keldi, biri narsalarni uloqtirib tintuv qila boshladi, kampir burchakda titradi va men esa parda orqasida yarim hushsiz yotardim.* ("Guliston").
chizmasi: va

7) *Maktabda intizom bo'sh, o'qituvchilarning obro'yi yo'q, davomat juda past, har yili maktabga tortiladigan qizlarning faqat ikki-uch prosentigina uninchi sinfni bitiradilar, bu ahvol ko'p darajada Qalandarovga bog'liq ekan.* (A.Q.)

Chizmasi:

8) *Otdaysiz, boy, bitta yarimta shish bor, ammo bezarar, birov borsin, dori beraman, shishlaringiz, butun illatlaringiz birpasda qaytadi.* (O.) chizmasi:

ammo

Tenglanish munosabatidan tuzilgan murakkab qo'shma gap komponentlari kesimlarining shakllanishida ikki holat kuzatiladi:

1) Komponentlar kesimlarining hammasi ba'zan to'la shakllanmaydi – shaxs-son, zamon ko'rsatuvchi element – bog'lama oxirgi gapning kesimida qo'llaniladi (yalpi holatda) va qismlarning hammasiga tegishli bo'ladi: *Luqmonchanning yonoqlari sariq, lablari qoramtir, ko'zlari katta-katta, lekin nursiz va xira edi.* (Asq.M.) chizmasi:

edi.

Xonaga fayz kirgandek, fikrlar chaqqon ishlab ketgandek, bu uch xil odam o'rtasida yaqinlik tug'ilgandek bo'ldi. (Asq.M.) chizmasi:

bo'ldi

2) Oldingi komponentlarda bog'lamagina emas, kesimlar yoki uning biror qismi qo'llanmasligi mumkin; bunda ham oxirgi gapning kesimi oldingi gaplar uchun umumiy bo'lib, ularga ham tegishli bo'ladi (yalpi kesim): *Shijoatli va kuchli botirlar – urushda, xotin va farzandlar – kambag'allikda, do'st va birodarlar – boshga kulfat tushganda taniladilar.* ("K.D.") chizmasi:

taniladilar

Ilm tahsil etmoq, savod chiqarmoq va har narsani atroflicha tushuna bilmoq – hikmatga; tadbir, sabr, nazokat, marhamat – aqlga; hayo, olijanoblik, o'zini qo'lga olmoq va o'zining haq-huquqini bilmoq – qanoatga; to'g'rshik, va'daga vafo, ezgu ishlar qilmoq va yaxish xosiyatli bo'lmoq – adolatga tegishlidir. ("K.D.") chizmasi:

Birdan ortiq ergash gaplarning bir bosh gap bilan birikishidan tashkil topgan sintaktik qurilmalar **ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap** deyiladi: *Zargarovning gaplari, tashabbusi viloyat rahbariga uncha maqtov bo'lib tushmasa ham, ayrim iboralari o'ziga tegib-tegib ketayotgan bo'lsa ham, Haydarov notiqqa xavotirli bir qiziqish bilan quloq soldi.* (Asq.M.) chizmasi:

-sa ham,

-sa ham,

Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar komponentlarining tuzilishi, ergash gap kesimlarining shakllanishi jihatidan ikki xil bo'ladi: a) birinchi turda ergash gapning **kesimi shakllangan**, shaxsli fe'l (verbum finitum) bilan ifodalanganligidan "mustaqil" sodda gaplarga, bosh gaplarga o'xshash bo'ladi; b) ikkinchi turdagi ergash gaplarning **kesimi shakllanmagan**, shaxs ko'rsatmay-digan (verbum infinitum) fe'l shakllari (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi yoki fe'lning shart mayli shakli) bilan ifodalanganligidan, nomustaqil bo'ladi. Birinchi guruhni tashkil etuvchi komponentlar bosh gapga **-ki, chunki, negaki, sababki** kabi yordamchilar orqali birikadi. Bunda birdan ortiq ergash gaplar o'zaro tenglashadi, uyushiq ohang bilan aytiladi, ular orasida teng bog'lovchilar ishlatiladi: *Shunday qat'iy qarorga keldimki, yolg'iz sengina bu ishni bajara olasan, sendan bo'lak hech kim uni hal eta olmaydi.* ("K.D".) *Endi shunday bir hikoya aytib berki, unda doimo shoshiladigan, ishning orqa-o'ngini o'ylamasdan harakat qiladigan bir odamning ahvoli tasvir etilsin va uning oqibati nima bilan tugashi ko'rsatilsin.* ("K.D".) chizmasi:

-ki

va

Saida mana shunday masalalar to'g'risida... odamlar fikrini uyg'otishga harakat qildi, chunki bularning har biri odamlarning zehniga, kolxoz hayotiga o'rnashib qolgan, chunki Qalandarov nima qilgan bo'lsa, yaxshi niyat bilan qilgan edi va xalq ham shunday deb bilgan. (A.Q.) chizmasi:

,chunki

,chunki

va

Ikkinchi guruhni tashkil etuvchi ergash gaplar ham o'zaro tenglanish munosabatini tashkil qilishi va uyushib kelishi mumkin: *Na ko'kning fonari o'chmasdan, Na yulduz sayr etib ko'chmasdan, Na ufq o'ramay yoqut zar, Na bulut silkitmay oltin par, Tong kulmasdan burun turardi.*

(U.) chizmasi:

na -masdan, na -masdan, na -may, na -may, burun

Bahor kelsa, gullar ochilsa, qirlar maysalar bilan qoplansa, bu joylar juda go'zal bo'ladi. (S.Zun.) chizmasi:

-sa, -sa, -sa,

Ergash komponentlar bosh gapga ikki xil yo'l bilan bog'lanadi: **birgalik ergashish** va **ketma-ket ergashish**.

Ergash gaplar bosh gapga alohida-alohida (mustaqil) bog'lansa, **birgalik ergashish** deyiladi. Birgalik ergashuvli komponentlar yo bir xil (uyushgan), yoki har xil (uyushmagan) ergash gaplardan bo'ladi.

Ergash gaplarning hamma turi ham uyushib kelib, murakkab qo'shma gapning birgalik ergashuvli turini hosil qilishi mumkin:

1. Ega ergash gap uyushib keladi: *Kimki o'z vatanini sevsa, kimki xalqi uchun jonini fido qilsa, u qahramon bo'ladi.*

2. Kesim ergash gap uyushadi: *Tilagim shuki, biringiz olim bo'lib, tarix yozing, biringiz shoir bo'lib, yurtni kuylang.* ("F.T.")

3. Aniqlovchi ergash gap uyushadi: *Sen butun imkoniyat va qobiliyatingni ishga solib, shunday bir kitob yozki, unda ham jiddiy va hazil mutoiba so'zlar, ham hikmat va falsafaga doir fikrlar mujassamlashgan bo'lsin, aqlli odamlar undan ham hikmat darsi olsinlar, ham kulgidan o'zlarini to'xtata olmasinlar.* ("K.D".)

4. To'ldiruvchi ergash gap uyushadi: *Har holda shuni bilishing kerakki, daraxtni kessalar, uning ildizidan bir shoxcha ko'karib, uning o'rnini bosadi, qilich va o'q yarasi bitib ketadi, lekin til yarasi hech vaqt tuzalmaydi.* ("K.D".)

5. Ravish ergash gap uyushadi: *Qorni ochib, kuchi qochib, keladi bo'ri.* (ertak)

6. O'lchov-daraja ergash gap uyushadi: *O'tirishimiz qanchalik sodda, dasturxon qanchalik faqirona bo'lsa, suhbatimiz shunchalik samimiy va shirin bo'ladi.* ("K.D".)

7. Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gaplar uyushadi: *Quyosh tabiatga jon kiritganidek, yer insonga rizq-ro'z berganidek, ona ham o'z farzandiga qalb qo'rini, mehrini baxshida qiladi.* ("Saodat")

8. Sabab ergash gap uyushadi: *Men bu masalni shuning uchun keltirdimki, hech vaqt dushmani mensimaslik kerak emas, birinchi bo'lib urush boshlash aqlli kishining ishi emas.* ("K.D".)

9. Maqsad ergash gap uyushadi: *Yurtimiz obod bo'lsin deb, xalqimiz sholi kiysin deb tut ko'chatlari ekamiz.*

10. Payt ergash gap uyushadi: *Yigitlar sen uchun jangga kirganda, Botirlar osmonda berganida jon, Qo'zidan qon oqqan yovni ko'rganda, Sening yengishingga keltirdim imon.* (H.O.)

11. O'rin ergash gap uyushadi: *Qayerda mehnat yaxshi tashkil qilingan bo'lsa, qayerda jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabat yuqori saviyada bo'lsa, u yerda yashash ham zavqli buladi.*

12. Shart ergash gap uyushadi: *Yursa agar tomirda qoning, Aziz bo'lsa bir parcha noning, Kerak bo'lsa nomus – vijdoning, Qo'lingga qurol ol!* (H.O.)

13. To'siqsiz ergash gap uyushadi: *Er-xotin o'rtasida qanaqa kelishmovchilik bo'lmasin, qanaqa gap qochmasin, kampir oraga tushib, hamma vaqt kuyovining tarafini olar edi.* (A.Q.)

14. Natija ergash gap uyushadi: *Ertasiga kun shunday charaqlagan ediki, unga astoydil tikilgan odam yaqin orada gurkirab turgan bahorni butun go'zalligi bilan ko'rganday bo'lar, bu kunni hech qanday musibat xira qila olmaydiganday edi.* (Asq.M.)

Birgalik ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar mazmun va grammatik shakllanishi jihatidan ikkiga ajraladi:

1) mazmuni va tuzilishi bir xil bo'lgan ergash gapli murakkab qo'shma gap: *Odam qarisa ham, yuz bo'lsa ham yosh, Osmonga yetadi sen silagan bosh.* (G'.G'.) chizmasi:

-sa ham, - sa ham,

2) Mazmun jihatidan bir xil, birikish vositasi har xil bo'lgan ergash gapli murakkab qo'shma gap: *Rais kelgandan keyin, majlis boshlanmay, ketib qolgan.* (S.Zun.) chizmasi:

-gandan keyin, -may,

Na bulut silkitmay oltin par, Tong otmasdan burun turardi. (U.) chizmasi:

-may, burun,

Qor yoqqaniga qaramay, qittiq sovuq bo'lsa ham, qishloqqa jo'nab ketgan. (S.Zun.) chizmasi:

-ga qaramay, -sa ham,

Mazmun jihatidan har xil bo'lgan birdan ortiq ergash gaplar bosh gapga alohida-alohida bog'lanib, birgalik ergashuvni tashkil qiladi. Bunday ergash gaplar uyushmagan sanaladi: *Dastlabki vaqtlarda yordam bersangiz, ishlar yurishib ketgandan keyin, uncha og'irligim tushmas.* (A.Q.) chizmasi:

-sangiz, -gandan keyin,

*Soat ikki bo'lganda, boshi og'rib, kitobni yopdi : -ganda, -b,
Kalilaning do'stiga rahmi kelib, kech kirishi bilan do'stining oldiga
keldi. ("K.D.") chizmasi:*

-ib, -ishi bilan,

Ergash gaplar bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelib, birgalik ergashishni tashkil qilishi mumkin: *Agar bir odam bu ishdan xabar topsa, bo'lgan voqea shohning qo'log'iga borib yetsa, bizning birodarligimiz shunday buziladiki, uni hech qanday mol va davlat bilan tiklab bo'lmaydi va bu keyingi avlodlarga isnod bo'lib qoladi. ("K.D.")* chizmasi:

-sa, -sa, -ki, va

Birdan ortiq ergash gaplarning biri ikkinchisiga ikkinchisi uchinchisiga tobelanib, keyin bosh gapga bog'lanishidan hosil bo'lgan gaplar **ketma-ket ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap** deyiladi. Bunday bog'lanishda bosh gap, oldidagi ergash gap birinchi darajali, undan oldingisi ikkinchi darajali va hokazo deb nomlanib, ma'lum zanjirni tashkil qiladi. Bunday qo'shma gaplarda bir ergash gap ba'zan boshqasini o'ziga tobe qilib, ham ergash gap, ham nisbiy bosh gap rolini bajarib, asosiy bosh gapga birikadi. Masalan, *Fil xartumini suvga solish bilan, suv chayqalib, oy qalqiy boshladi ("K.D".)* gapida *fil xartumini suvga solish bilan* gapi bosh gapga (*oy qalqiy boshladi*) bog'lanmaydi, chunki oyning qalqishi suvning chayqalishi bilan bog'liq. Demak, birinchi ergash gap ikkinchi ergash gapga, ikkinchi ergash gap bosh gapga bog'langan (ketma-ket usul). Misollar: *Chigit ekilgandan keyin, unib chiqqan har bir tup g'o'za alohida parvarish qilinmasa, uning usish sur'ati pasayib ketadi. (gazeta)* chizmasi:

-gandan keyin, -sa,

Ma'ruzachi gapini tugatgach, Saida zalga murojaat qilib, savollar bormi deganida, birdaniga bir necha qo'l kutarildi. (A.Q.) chizmasi:

-gach, -ib, -ganda,

Sahro shunday olamki, ishchi qo'llar bo'lsa, hamma narsa bor, ishchi qo'llar bo'lmasa, hech narsa yo'q. (Asq.M.) chizmasi:

-ki, -sa, -sa,

Kechasi shunday sovuq bo'ldiki, ertalab yer muzlab, ko'cha harakati og'irlashib qoldi. ("F.T.") chizmasi:

-ki, -b,

Hasad shunday o'tdirki, agar u tutasa, ho'lu quruq birday yonadi.
(“K.D.”) chizmasi:

-ki,

-sa,

Ba'zan ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplarning komponentlari ham birgalik, ham ketma-ket ergashish yo'li bilan bosh gapga birikadi: (1) *Yozning kuchi ketib*, (2) *havo biroz salqinlagan bo'lsa ham*, (3) *shamolsiz kunlarda quyosh tik kelgach*, (4) *hali kishining boshidan olov quygan kabi kuydirar edi* (O.) gapida birinchi ergash gap ikkinchi ergash gapga bog'lanib, har ikkisi bosh gapga ketma-ket ergashish yo'li bilan birikkan, uchinchi ergash gap bosh gapga bevosita bog'langan. Bosh gapga nisbatan ikkinchi va uchinchi gaplarning munosabati birgalik ergashish, birinchi va ikkinchi gaplarnig munosabati ketma-ket ergashish bo'ladi. Chizmasi:

1 2 4
 3

Ammo tong xira yorishib, yaqindagi daraxtlarning qorasi qish qorong'iligi orasidan sal ko'ringan hamon, yigit, xuddi birov turtgandek, birdan uyg'ondi. (A.Q.) chizmasi:

1 2 4
 3

Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi vositalarning qo'llanishida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

1) Mazmunan bir xil bo'lgan – bir turdagi ergash gaplar bosh gapga fe'l shakllari yordamida bog'lansa, har bir komponent o'z bog'lovchisiga ega bo'ladi: **-sa, ...-sa, ...-sa; ...-ib; ...-sa ham, ...-sa ham; ...-ganda, ...-ganda** kabi.

2) Mazmunan bir xil bo'lgan birdan ortiq ergash gaplar yordamchi so'zlar bilan bosh gapga biriksa, biriktiruvchilar har bir komponentda takrorlanmasligi, oxirgi komponentga kelib, hamma gaplar uchun yalpi bog'lovchi vazifasida qo'llanilishi mumkin: *Kimki birovga quduq qazisa, o'zi yiqiladi, yaxshilik hech vaqt unutilmaydi, yomonlik esa jazosiz qolmaydi deb bekorga aytmaganlar.* (“K.D.”) chizmasi:

deb,

Moy qo'yganda, chiroq lopillab yongani, o'tin qalaganda, o'choq olovi baland bo'lgani kabi, shogirdning aqli ham ustozining maslahatidan mukammallashadi. (“K.D.”) chizmasi:

kabi

Ba'zan bog'lovchilar uslub talabi bilan har bir komponentda takrorlanadi: *Bu do'stlikda g'araz va soxtalik yo'q, chunki bu do'stlikning tog' va tuproqlarini bir quyosh isitadi, chunki bu do'stlikning daryolarida ham obi hayot oqadi.* (H.O.)

Komponentlarning ham tenglanish, ham tobelanish munosabatidan tashkil topgan sintaktik qurilmalar **aralash aloqali murakkab qo'shma gap** deyiladi. Qo'shma gaplarning bu turi bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarni o'z ichiga olganligi uchun **aralash qo'shma gap** deb ham yuritiladi.

Aralash aloqali murakkab qo'shma gaplarning quyidagi ko'rinishlarini kuzatamiz:

1. Birinchi ergash gap o'zidan keyingi ikkita teng aloqali bosh gaplarning har qaysisiga alohida-alohida tobelanadi: *Bu sifatlarning barisi bir odamda mujassam bo'lsa, dunyodagi eng buyuk saodat ham uni gangitib qo'ya olmaydi, eng katta baxtsizlik ham uni sarosimaga sola bilmaydi.* ("K.D.") chizmasi:

-sa,

U hamisha jangda g'olib kelardi, shuning uchun ham atrofdagilar vahimaga to'shardilar, aholi esa undan yurak oldirib quygan edi. ("K.D.") chizmasi:

, shuning ucun

2. Bitta ergash gap o'zidan oldin kelgan, teng aloqali ikkita bosh gapga alohida-alohida tobelanadi: *Bizning qo'shinlarmiz fashistlarga qarshi shunday zarbalar berdilarki, partizanlarimiz shu qadar shijoat ko'rsatdilarki, dushman kun sayin chekinishga majbur bo'la boshladi.* (gazeta) chizmasi:

-ki,

-ki,

3. Birinchi o'rinda kelgan bir bosh gap, o'zidan keyingi bitta ergash gapli qo'shma gap bilan teng aloqaga kirishadi: *Biz yo'ldan adashgan edik, yaxshiyam tuman tarqab, uzoqdan qishloq teraklari ko'zga tashlandi.* ("Guliston") chizmasi:

-ib,

4. Ikkita ergash gapli qo'shma gap teng aloqaga kirishadi: *Bahor kelsa, ochilar gullar, Gul ochilsa, sayrar bulbullar.* (F.) chizmasi:

-sa,

-sa,

Xijron shunday og'ir yukki, uni hamma ham ko'tara olmaydi, visol shunday shirin sharbatki, hech kim uni oxirigacha ichishga muvaffaq bo'lolmaydi. ("K.D.") chizmasi:

-ki,

-ki,

5. Ikkita ergash gap bir bosh gap bilan birikib, bir necha ergash gapli qo'shma gapni tashkil etadi va bu keyingi bitta bosh gap bilan teng aloqaga kirishadi: *Kech kirgach, ular uyga kelishganda, hali quyosh botmagan, havo nihoyat dim edi. (S.Zun.):*

-gach,

-gandan,

6. Aralash aloqali murakkab gap bir butun holda bir bosh gapga tobelanadi: *Men sizga shuni aytmqchimanki, agar kolxozimiz yiriklashsa, uning hisob-kitob ishlari osonlashadi va moddiy-manfaatdorligi yaxshilanadi. (A.Q.) chizmasi:*

-ki,

-sa,

va

7. Bitta ergash gap o'zidan keyingi teng aloqadagi uchta bosh gapning hammasiga alohida-alohida tobelanadi: *Sichqon iplarni kesib bo'lgach, oxu turib qochdi, sichqon o'zini teshikka oldi va g'arg'a uchib ko'kka ko'tarildi. ("K.D.") chizmasi:*

-gach,

va

8. Teng aloqali ikkita bosh gap o'zidan keyingi bitta ergash gapli qo'shma gap bilan teng munosabatga kirishadi: *Bu savollarga men ham dabdurustdan javob berolmayman, lekin vaqti-soati bilan javob topamiz, xatomiz bo'lsa tuzatamiz. (A.Q.) chizmasi:*

, lekin

-sa,

9. Bitta bosh gap o'zidan keyingi ikkita ergash gapli qo'shma gapning har qaysisi bilan teng munosabatda kirishadi: *Bunday odam uni xursand qilmaydigan narsalarning borligidan g'am yemaydi, o'zida mavjud narsalardan taqdir mahrum etgudek bo'lsa, xafalanmaydi, boshiga falokat kelsa, o'zini yo'qotib qo'ymaydi. ("K.D.") chizmasi:*

10. Teng aloqaga kirishgan ikkita ergash gapli qo'shma gapning faqat keyingisi undan keyin kelgan bitta bosh gap bilan tenglashish yo'li

bilan birikadi: *Urug' yer ostida yotsa, hech kim u bilan qiziqmaydi, u qachon tuproqni yorib, yerni zumrad kabi bezasa, uning nima ekanligi ma'lum bo'ladi, so'ngra parvarish qilib, uni o'stiradilar.* ("K.D.")
chizmasi:

-sa,

-sa,

11. Uchta ergash gap o'zidan keyingi teng aloqali ikkita bosh gapning har qaysisiga alohida-alohida tobelanadi: *Jazirama issiq kuydirsa ham, rahmsiz bo'ron sindirsa ham, qahraton sovuq yaproqlariga chang solsa ham, baribir, ozod sevgi odam bolasining dilida gullab-yashnay beradi, g'unchasiga-g'uncha, guliga-gul qo'shilaveradi.* (F.) chizmasi:

-sa ham,

-sa ham,

-sa ham,

12. Ikkita ergash gap o'zidan oldingi teng aloqadagi ikkita bosh gapga alohida-alohida tobelanadi: *Ertasiga kun shunday charaqlagan, osmon shunday tiniq ediki, unga astoydil tikilgan odam yaqin orada gurkirab turgan bahorni butun go'zalligi bilan ko'rganday bo'lar, bu kunni hech qanday musibat xira qilolmaydigandek edi.* (Asq.M.)
chizmasi:

-ki,

13. Ikkidan ortiq ergash gapli qo'shma gaplar teng aloqaga kirishadi: *Ko'kda parvoz etsa lochin, yerga kirgay zog'lar, Kishnagan ot o'tsa cho'ldan, qo'zg'alur tuproqlar. Qonga to'lgay, jangga botir kirsas, so'lu sog'lar* (Habibiy) chizmasi:

-sa,

-sa,

-sa,

Uyda o'tirsang, hamma uyda o'tirganday, dalaga chiqsang, hamma mehnat qilayotganday, yo'l yursang, hamma safarga chiqqanday, kasalxonaga kelsang, hamma dardga chalinganday tuyuladi kishiga. (B.Y.) chizmasi:

-sa,

-sa,

-sa,

-sa,

14. Aralash aloqali murakkab qo'shma gap o'zidan keyingi bitta ergash gapli qo'shma gap bilan teng aloqaga kirishadi: *El yasharmas, yer ko'karmas, Bo'lmasa ko'k tomchisi. Shoir she'rni qaydan olsin, Bo'lma-*

sa ilhomchisi (A.To'qay):

-sa

-sa

15. Bir ergash gap o'zidan keyingi to'rt va undan ortiq o'zaro teng aloqaga kirishgan bosh gaplarning birinchisiga tobelanadi: *Tut g'arq pishganda, ko'z tutdik, kelmading, ozgina shinni qaynatdik, ol, bolam, sening nasibang.* (O.) chizmasi:

-ganda,

U juda kech yotganiga qaramay, tong yorishar-yorishmas, uyg'ondi, lekin ko'zlari to'la uyqu, butun vujudi uyquning bir-ikki minutli eng shirin joyi qoldi deb turar, sahar shabadasida yaproqlarning shildirashi, qushlarning chug'ur-chug'urini allalar edi. (A.Q.) chizmasi:

-ga qaramay, lekin

16. Bitta bosh gap o'zidan keyingi uchta ergash gapli qo'shma gap bilan teng aloqaga kirishadi: *Hikmat bitmas va tuganmas xazinadir, xarjlaganing bilan u kamaymaydi; asraganing bilan unga nuqson yetmaydi, kiyganing bilan, u eskirmaydi.* ("K.D.") chizmasi:

17. O'zaro tenglanish asosida tuzilgan to'rtta ergash gapli qo'shma gap o'zidan oldingi bitta bosh gapga tobelanish yo'li bilan bog'lanadi: *Debdurlarki, agar ikki kishi bir buyuk orzuga yetishishni istasalar, bunga, ular muruvvatda teng bo'lsalar, irodasi kuchli bo'lgani erishadi; irodada ham barobar bo'lsalar, do'stlari ko'p bo'lgani yengib chiqadi; agar bu jihatdan ham oralarida farq bo'lmasa, u vaqtda tolei baland bo'lgani yetishadi.* ("K.D.") chizmasi:

-ki,

-sa,

-sa,

-sa,

-sa,

18. Quyidagi gapda oltita ergash gap o'zidan keyingi teng aloqali ikkita bosh gapning har qaysisiga alohida ergashib, so'ngra bir butun holda birinchi o'rinda kelgan bitta bosh gapga tobelangan: *Olimlar debdurlarki, kimning qosh oraligi uzoq bo'lsa, o'ng ko'zi chap ko'zidan kichikroq bo'lsa, va tez-tez yumib-ochsa, bo'rni chap tomonga biroz qiyshaygan bo'lsa, va uchida uchta tuk bo'lsa, o'zi hamisha yerga qarasa, unday odamga fisqu fasod hamroh, hiyla va makr yo'ldoshdir.* ("K.D.") chizmasi:

-ki, -sa, -sa, -sa, -sa, -sa, -sa,

Tahlil namunasi: *Mahallada har xil odam bor, el og'ziga elak tutib bo'lmaydi, og'ziga kelganini gapiraversin, sizga na og'iri bor, na yengili.* (O.)

- 1) beshta sodda gapdan tuzilgan.
- 2) murakkab qo'shma gap.
- 3) bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan.
- 4) 1-2-3-gaplar teng ohang bilan, 4-, 5-gaplar ham teng ohang, ham teng bog'lovchi (-na) bilan birikkan.

Oblast yoki rayon to'satdan chaqirsa, Saida sarosimaga tushmasin uchun, Kozimbek uni voqeadan xabardor qilib quyishni lozim ko'rdi-da, qishloq orqada qolib, dala yo'liga chiqilganda, juda ehtiyotlik bilan gapning uchini chiqardi (A.Q.)

- 1) oltita sodda gapdan tuzilgan murakkab qo'shma gap.
- 2) ikkitadan ergash gap, bittadan bosh gapga ketma-ket ergashish yo'li bilan birikkan, so'ngra, bosh gaplar o'z tobe komponentlari bilan birgalikda o'zaro (-da bog'lovchisi orqali) teng aloqaga kirishgan.
- 3) aralash aloqali murakkab qo'shma gap.
- 4) chizmasi:

-sa, -sin uchun, -da, -ib, -ganda,

O'ZGA GAP

reja:

1. O'zga gapning turlari.
2. Ko'chirma gap.
3. Ko'chirma gap bilan muallif gapining o'rinlashish tartibi.
4. Qo'sh ko'chirma gap.
5. O'zlashtirma gap va ko'chirma gapning o'zlashtirma shakllari.
6. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish yo'llari.
7. O'zga gapli sintaktik qurilmalarga doir tahlil namunasi.

O'zga gapli sintaktik qurilmalarda ikki xil gap: **muallif gapi** va **o'zga gap** bo'ladi. O'zgalar gapini keltiruvchi – ifodalovchi shaxs **muallif**, uning gapi esa **muallif gapi** deyiladi. Muallif nutqi ichida

keltirilgan boshqa shaxslarning fikri **o'zganing gapi** sanaladi. Gapi ifoda qilinayotgan shaxs **so'zlovchi** deyiladi.

So'zlovchi nutqida keltirilgan o'zgalar gapi, asosan, ikki xil bo'ladi: 1) **ko'chirma gap**, 2) **o'zlashtirma gap**.

O'zgalar gapining mazmun va grammatik jihatdan aynan, o'zgarishsiz mustaqil gap shaklida muallif gapi bilan birga ishlatilishiga **ko'chirma gap** deyiladi: *"Til robitalar vositalar olamiyondir,– degan edi Avaz O'tar o'g'li gapining "Til robitalar vositalar olamiyondir" qismi ko'chirma gap shaklida keltirilgan o'zgalar gapidir, degan edi Avaz O'tar o'g'li qismi esa muallif gapi bo'lib, u ko'chirma gapning kimga qarashli ekanligini ko'rsatadi. Ko'chirma gapdagi mazmun tinglovchiga qaratilgan bo'ladi.*

Ko'chirma gap bir so'z, bir gap, bir necha gap, butun bir obzardan iborat bo'lishi mumkin. Muallif gapi esa ko'pincha ikki tarkibli birgina sodda gapdan tashkil topadi: *Uyingoh qurilishida qatnashganmisan? – "Yo'q", – dedi Samandar. (gazeta) Voyey, payqamabman, qo'rqib ketdim... Tuf-tuf-tuf... – dedi kuylak yoqasini tortib Unsin. (O.) "Go'zal qizsiz, pinhon ishqingizda o'rtanaman, na qilayki, ilojim yo'q, tole o'lgur past" – dedi kosib yigit ichidan o'rtanib. (O.)*

Ko'chirma gapning kesimi fe'l, ot yoki boshqa so'z turkumlari bilan ifodalana beradi, biroq muallif gapining kesimi, ko'pincha, quyidagi fe'llar bilan ifodalanadi:

1. Gapirish, so'zlash ma'nosini bildiruvchi **dedi, aytdi, gapirdi, so'zladi, so'radi, murojaat qildi, javob berdi, hazil qildi** kabi fe'llar bilan: *"Oyi-yey, hech narsaga tushunmaysiz, zamon yangi bo'layapti, hurriyat, adolat kelibdi boshimizga, bizdaqa g'ariblarga kun tug'ibdi!" – xursand gapirdi qiz. (O.) Saida chuqur taajjub bilan javob berdi: – Kolxozda qoldirish-qoldirmaslik masalasini yuqori hal qiladida. (A.Q.) Saidaning haziliga qarshi Kozimbek ham hazil qildi: – Bilar ekasiz, bizning boboy ovqatlardan faqat palovni, rahbarlardan faqat o'rtoq Qodirovni, dorilardan faqat pensillinni tan oladilar, – dedi. (A.Q.) Saida hayron bo'lib so'radi: – "Byuro qaysi masalada sizning ra'yingizga qarshi ish qildi?" (A.Q.)*

2. So'zlash ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan turli psixologik holatni ifodalovchi **qichqirdi, baqirdi, chaqirdi, o'shqirdi, pichirladi, shivirladi, ogohlantirdi, talmovsiradi, tutaqdi, do'ng'illadi** kabi fe'llar bilan: *"Ozib-to'zib ketibsiz", – deya shivirladi Ziyoda (Asq.M.) Saida talmovsiradi: – "Zulfiqorovning partiyadan chiqarilishiga qarshi emas-misiz?" (A.Q.) Qalandarov Nazarov kolxozidan sozandalar, o'yinchi*

qizlar kelshiini xohlamay do'ngilladi: "Bularning o'rniga Tojixonni chaqirsangiz ham bo'lar edi. U ham o'yin biladi. (A.Q.) Saida malol kelgan bir alfozda: "Shu gaplarni yotig'i bilan gaplashaylik", –dedi. Qalandarov o'shqirdi: "Endimi, yotig'i bilan gaplashish endi yodingizga keldimi?" Qalandarov dami ichiga tushib ketdi, bir lahzadan keyin yana tutoqdi: "Jinoyatim bo'lsa, ayting, men ariza beray bo'lmasa". (A.Q.)

Ko'chirma gap o'ziga xos ohangga ega bo'lib, bu: 1) ko'chirma gapning mazmuni, 2) muallif gapiga nisbatan tutgan o'rni bilan xarakterlanadi. Masalan, darak, buyruq, so'roq, undov gaplar bilan ifodalangan ko'chirma gaplarning ohangi bir xil emas, yoki muallif gapidan oldin, keyin, uning o'rtasida kelgan ko'chirma gaplar ham ohang jihatidan farqlidir.

Agar ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelsa, muallif gapiga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytiladi, muallif gapidan oldin pauza bo'ladi; muallif gapidan keyin kelsa, to'liqroq pauza, hamda balandroq ohang bilan talaffuz qilinadi: agar muallif gapi ko'chirma gap o'rtasida kelsa, past ohangda aytiladi.

Ko'chirma va muallif gapining o'rni, uslubiy talablar bilan turlicha bo'ladi:

1) Ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelganda, muallif gapidagi bo'laklar inversiyaga uchrab, kesim tarkibi oldin, ega tarkibi keyin keladi: "Hamidullaning gapiga kirib, o'qiyolmay qoldim", – dedi Tojixon tovushi titrab. (A.Q.)

Dedi fe'li ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining kesimi vazifasida kelganda, ma'no va vazifasi jihatidan **deb aytdi, deb so'radi, deb gapirdi** kabi **deb+so'zlash** fe'llariga deyarli teng bo'ladi. Bunda **deb** bog'lovchi emas, **demoq** fe'li vazifasini bajaradi.

Demoq so'zi aslida muallif gapining kesimi bo'lsa ham, ko'chirma gap va muallif gapi borligini ko'rsatsa ham, bora-bora ko'chirma gaplik xususiyatini yo'qotgan sintaktik qurilmalarda bog'lovchilik vazifasini bajaradi. Yozuvda bunday gaplar ko'chirma gaplarga xos bo'lgan tinish belgilari bilan yozilmaydi. Bunday holda **deb** muallif gapining kesimi emas, ergash komponentning tarkibiy (formal) qismi hisoblanadi: *Ular sizning o'z bolalaringiz emas deb, hech kim aytolmaydi. (Asq.M.) G'alaba guli sizga munosib deb, Ziyoda yonib turgan chinni gullarni qaytarib uzatdi. (Asq.M.)*

2) Ko'chirma gap muallif gapidan keyin kelganda, muallif gapining tartibi odatdagicha bo'ladi. Bunda muallif gapining kesimi, ko'pincha, **aytdi, so'radi, javob berdi, gapirdi, dedi**, ba'zan **shivirladi, o'shqirdi**,

tutoqdi, baqirdi, o'yladi kabi psixologik holatni anglatuvchi fe'llar bilan ifodalanadi: *Hind dedi: "Aqlli odamlar uchun do'stlikdan aziz hech narsa yo'qdir". Barzuya dedi: "Do'stlikning eng ulug' sharti sir saqpamoqdir". ("K.D".) Qalandarov do'ng'illadi: – Saqich chaynasa chaynagandir, qiz bola, lekin boshqasidan xabarim yo'q! (A.Q.)*

3) Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida keladi. Bunda muallif gapining ega tarkibi ko'chirma gapdan oldin, kesim tarkibi ko'chirma gapdan keyin keladi. Ba'zan kesimga qarashli bo'lgan to'ldiruvchi va hol ko'chirma gapdan oldin ham keladi, lekin kesimning o'zi doimo ko'chirma gapdan keyin keladi: *Haydarov: "Nima balo, sahroda boshqa bir viloyat tuzish haqida gap ketayaptimi?", – deb qo'yardi goho o'zicha. (Asq.M.) Sayramov cholni ikki qo'li bilan yengil, lekin samimiy ravishda sekin quchoqlab: –Hali ko'nglingiz g'unchaday yosh, bilaman, ota, – dedi. (O.)*

4) Ko'chirma gap muallif gapining har ikki tomonida keladi. Bunda muallif gapidagi bo'laklarning tartibi ko'pincha invereiyaga uchraydi – kesim tarkibi oldin, ega tarkibi keyin keladi: *Hurmatli rayosat, hurmatli rais! – deb boshladi Zargarov so'zini, – keyingi yillarda har kuni kombinatlar, konlar, shaharlar, yo'llar, kanallar, kommunikasiyalar qurilmoqda (As.M.) –Menimcha, o'rtoq Zargarovning takliflari hayotiy zaruratdan kelib chiqayapti, – dedi Haydarov o'rnidan turib, – agar sahroda u kishi tavsiflagan yagona territorial organ yuzaga kelsa, viloyat rahbariyatining ishiga katta yordam berardi. (Asq.M.)*

Ko'chirma gapning muallif gapidan oldin, keyin, uning o'rtasida kelishi, muallif gapining ko'chirma gap o'rtasida qo'llanilish hollari uslubiy jihatdan farqli bo'lib, uni muayyan nutq qurilishi boshqaradi. Bundan tashqari, ko'chirma gapning muallif gapidan oldin, o'rtasida kelishi muallif gapidan keyin kelishiga qaraganda, faolroqdir. Muallif gapining ko'chirma gap oldida kelish holati eski adabiy uslubda, jonli tilda ko'p uchraydi.

Ko'chirma gap birdan ortiq shaxsning so'zlashuvidan iborat bo'lsa, bunday ko'chirma gaplar muallif gapisiz – dialog shaklda beriladi. Dialogik fikrning kimga qarashli ekanligini nutq jarayoni boshqaradi.

– *Xush, endi nima qilasiz?*

– *Bilmayman.*

– *Ma'lumotingiz bormi?*

– *Yetti yillik.*

– *Yana o'qiysizmi?*

– *Nima edi, ishdan haydaysizlarmi? (A.Q.).*

Jonli tilda, ba'zan adabiy tilda ham, ikki darajali ko'chirma gap yoki **qo'sh ko'chirma gap** uchraydi. Ya'ni, "ko'chirma gap+muallif gapi" shaklida tuzilgan ko'chirma gapli qurilmalar boshqa bir muallif gapi bilan birikib, ko'chirma gapli qo'shma gapning murakkab turini hosil qiladi: *Qodirov har bir ishga tajriba ko'zi bilan qarash kerak deydi, – dedi Oyqiz. (O.) Aya, gapir, "Hali xirmon-xirmon gap bor degan eding", – dedi O'ktam. (O.) Chalasini kitobdan o'rgandim-da, to'ppa-to'g'ri imtihonga bordim. "Molodes" deyishdi, – dedi Egambyordi. (O.)*

Yuqoridagi birinchi misolda uchta gap bor: "*Har bir ishga tajriba ko'zi bilan qarash kerak*" – birinchi gap, "*Qodirov deydi*" – ikkinchi gap, "*dedi Oyqiz*" – uchinchi gap; birinchi gap ikkinchi gapga nisbatan ko'chirma gap, birinchi va ikkinchi gaplar uchinchi gapga nisbatan ko'chirma gap bo'lganligidan, qo'sh ko'chirma gap hosil bo'lgan.

Demak, bunday ko'chirma gaplarda birinchi darajali va ikkinchi darajali ko'chirma gaplar mavjud. Chizmasi:

Har bir ishga tajriba ko'zi
bilan qarash kerak

dedi
Qodirov

dedi
Oyqiz

O'zgaralar gapining mazmuni saqlanib, grammatik shakli yoki gapning grammatik qurilishi o'zgartirilib berilishi **o'zlashtirma gap** deyiladi.

O'zlashtirma gap ko'chirma gapdan ohangi va ayrim fe'l shakllarining ishlatilmasligi bilan ham ajralib turadi. Ko'chirma gapda juda ko'p qo'llanadigan **demoq** fe'lining **deb, dedi, deydi, degan edi** kabi shakllari o'zlashtirma gapda deyarli qo'llanilmaydi. Uning o'rnida o'zlashtirma gapda ko'proq **aytmoq, gapirmoq, ta'kidlamoq** fe'llari qo'llanadi: 1. *Prezident Ziyoda boshliq laboratoriyada qandaydir favqulodda yangilik yuz berganini aytib, bugunoq yetib kelishi kerakligini yana bir bor ta'kidladi.* 2. *Haydarov tezlik bilan bir tadbir topib, "tilla qiz"ni bugunoq poptaxtgga yuborishga va'da qildi. (Asq.M.)*

Birinchi gapning ko'chirma gap shakllari quyidagicha: *Prezident aytdi va yana bir bor ta'kidladi: "Ziyoda boshliq laboratoriyada qandaydir favqo'lodda yangilik yuz berdi, bugunoq yetib kelishi kerak. – Prezident: "Ziyoda boshliq laboratoriyada favqulodda qandaydir yangilik yuz berdi, bugunoq yetib kelishi kerak", – dedi va yana bir bor ta'kidladi. "Ziyoda boshliq laboratoriyada favqulodda qandaydir yangilik yuz berdi, bugunoq yetib kelishi kerak", – dedi prezident va yana bir bor ta'kidladi.*

Ikkinchi misolda *Haydarov va'da qildi* – muallif gapi; *tezlik bilan*

bir tadbir topib "tilla qiz"ni (Ziyodani demoqchi) bugunoq poytaxtga yuborishga – o'zlashtirma gap.

Bu gapning ko'chirma gap shakllari quyidagicha: *Haydarov va'da qildi: "Tezlik bilan bir tadbir topib, "tilla qiz"ni bugunoq poytaxtga yuboraman". Haydarov: "Tezlik bilan bir tadbir topib, "tilla qiz"ni bugunoq poytaxtga yuboraman", – dedi (deb va'da qildi). –Tezlik bilan bir tadbir topib, "tilla qiz"ni bugunoq poytaxtga yuboraman", – dedi (deb va'da qildi) Haydarov.*

Ko'chirma gapli qurilmalar ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning mazmunan birikuvi yoki mustaqilligini saqlagan holda qo'shilishidan tashkil topsa, o'zlashtirma gapli qurilmaning tarkibi birgina sodda gapdan iboratdir. Bunda muallif gapi mavjud bo'lib, o'zlashtirma gap birikmali to'ldiruvchi shaklida bo'ladi: *Choy tayyor, yuvining dada, – dedi Saodat (Asq.M.)* Bu uch gapdan iborat ko'chirma gapli qurilmani o'zlashtirma gapga aylantirsak, bitta sodda gap shakllanadi: *Saodat dadasiga choy tayyorligini, yuvinishini aytdi.*

Agar ergash gapli qo'shma gap ko'chirma gap shaklida bo'lsa, ko'pincha ergash gap (shart, ravish, to'siqsiz, payt, o'xshatish, o'lchov-daraja kabi) o'zgarmaydi, bosh gap o'zlashtirma shaklini oladi: Qiyoslaylik: *Mardonaqul aka, dedi Fotima,– siz yerni ag'darib, sahro changini ko'kka sovurmasangiz, ko'nglingiz tinchimaydi. –Fotima Mardonaqul akaga yerni ag'darib, sahro changini ko'kka sovurmasa, ko'ngli tinchimasligini aytdi. O'q ovozi eshitilganda, biz hujumga o'tgan bo'lamiz,– deyishdi partizanlar. –Partizanlar o'q ovozi eshitilganda, hujumga o'tgan bo'lishlarini aytdilar.*

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, uning shakligina emas, ba'an uslubiy xususiyatlari ham o'zgaradi. Ayniqsa, so'zlovchi-ning nutq jarayoniga turli munosabatini ifodalovchi ekspressiv xarakterdagi so'zlar, ayrim kirish so'zlar, undovlar, masalan, **axir, xo'sh, ha, yo'q, xo'p, mayli** kabi gap bilan bog'lanmagan elementlar, so'z-gaplar, ko'pincha tushib qoladi: *Xush, qanday yangiliklar bor,– so'radi O'ktam. (O.) // O'ktam qanday yangiliklar borligini so'radi. He, raisimizning o'zlariga o'xshabdi-ku, – dedi u. (A.Q.) //U raisimizning o'zlariga o'xshashligini aytdi.*

Undov gap, atov gap, ritorik so'roq gap kabilarni o'zlashtirma gapga deyarli aylantirib bo'lmaydi: *Ana zamon! Ana hikmat! – dedi "Sakson" ota yayrab kulib. (O.) Umida yalt etib Saidaga qaradi va quvnoq tovush bilan: – Salom, Saidaxon! deb qo'l berdi, kolxoz kotibasi Umida! Umida Umarova! (A.Q.) Umida bilan istar-istimas, sovuqqonlik bilan kurishdi:*

– *Ha-a, o'rtoq Umarova, qadrdon, qanday shamol uchirdi?* (A.Q.)

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, ko'chirma gapdagi fe'l kesimning zamoni deyarli o'zgarmaydi: *Idorada ishlayapman*, – *dedi Umida* (A.Q.) // *Umida idorada ishlayotganligini aytdi* (hozirgi zamon); *Idorada ishlaganman*, – *dedi Umida*. // *Umida idorada ishlaganligini aytdi* (o'tgan zamon). *Idorada ishlamoqchiman*, – *dedi Umida* // *Umida idorada ishlamoqchi ekanligini aytdi* (kelasi zamon).

Ko'chirma gapning sub'yekti birinchi shaxs kishilik olmoshi bilan, muallif gapining egasi esa har uchala shaxsdagi kishilik olmoshlari (**men, sen, u**) bilan ifodalansa, o'zlashtirma gap tarkibida ko'chirma gapning egasi qo'llanilmaydi: *Men aytdim*: –(men) *kitobni o'qiyman*. *Sen aytding*: –(men) *kitobni o'qiyman*. *U aytdi*: –(men) *kitobni o'qiyman*.

Bu gaplarning o'zlashtirma gap shakllari quyidagicha: *Men kitobni o'qishimni aytdim* // *Sen kitobni o'qishingni aytding* // *U kitobni o'qishini aytdi*.

Ko'chirma gapning egasi kishilik olmoshining ko'plik shakli bilan ifodalanganda ham, shunday bo'ladi:

Men aytdim: –

Biz aytdik: –

Sen aytding: –

Siz aytdingiz: – Biz kitobni o'qiymiz

U aytdi: –

Ular aytdilar: –

Bularning o'zlashtirma shakllari: *Men (biz) kitobni o'qishimizni aytdim*. *Sen (siz) kitobni o'qishingizni aytding*. *U (ular) kitobni o'qishlarini aytdi*.

Muallif gapining egasi ot bilan, ko'chirma gapning egasi olmosh bilan ifodalangan bo'lsa, bunday gaplarning o'zlashtirilgan shaklida muallif gapidagi ega va kesim saqlanadi. Ko'chirma gapning egasi qaratuvchi aniqlovchiga, kesimi **-lik+egalik (-i)** affiksini olgan o'tgan zamon sifatdoshi (**-gan**) bilan ifodalangan to'ldiruvchiga – qaralmishga aylanadi. Ko'chirma gapning birinchi shaxsdagi egasi ba'zan batamom qo'llanmaydi yoki uning o'rnida o'zlik olmoshi qo'llaniladi:

Men kech qoldim

Biz kech qoldik

Sen kech qolding

Siz kech qoldingiz

U kech qoldi

Ular kech qoldilar

Karim aytdi: –

Bu gaplarning o'zlashtirma shakllari:

	O'zining kech qolgan (lig)ini	
	Bizning kech qolgan (lig)imizni	
Karim	Sening kech qolgan (lig)ingni	aytdi.
	Sizning kech qolgan (lig)iigizni	
	Uning kech qolgan (lig)ini	
	Ularning kech qolgan (lig)larini	

Ko'chirma gap darak xarakterida bo'lsa, o'zlashtirma gapga aylantirishda quyidagicha o'zgaradi:

Ko'chirma gapning kesimi o'tgan zamon fe'li bilan ifodalangan bo'lsa, u o'ttan zamon sifatdash qo'shimchasi+egalik affiksi+tushum kelishigi qo'shimchasi **(-gan+i+ni)**, ba'zan **-gan** affiksdan keyin **-lik** yasovchisi orqali yasaladi: *Kolxozga mehmonlar keldi, – dedi Umida (A.Q.) // Umida kolxozga mehmonlar kelgan(lig)ini aytdi.*

Ko'chirma gapdagi fe'l kesim **edi** to'liqsiz fe'li bilan shakllangan bo'lsa, o'zlashtirma gapda u qo'llanmasligi mumkin: *Sarvarni ko'rgan edim, – dedi Asrorbek. // Asrorbek Sarvarni ko'rgan(lig)ini aytdi.*

1. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, faqat fe'l kesimgina o'zgarmay, egalik qo'shimchasini olgan so'z va kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'laklar ham o'zgaradi: *Mening ukam Toshkentda o'qiydi, – dedi Usta. // Usta ukasining Toshkentda o'qiyotganligini aytdi.*

Bunda **mening** so'zi qo'llanmagan, buni qoplash (kompensatsiya) qilish uchun ukam so'zi III shaxs egalik affiksini olib, qaratqich kelishigi shaklini oladi: *Kecha bizning maktabimizda katta tantana bo'ldi, – dedi Baxtiyor. (gazeta) // Baxtiyor kecha maktablarida katta tantana bo'lgan (lig)ini aytdi.* O'zlashtirma shaklda **bizning** olmoshi qo'llanilmagan, **maktabimiz** so'zidagi **-imiz** egalik qo'shimchasi (-lari) bilan almashgan.

Ko'chirma gapning kesimi hozirgi zamon fe'li bilan ifodalanganda, **-yotir, -yapti, -moqda** affikslari o'rnida **–yotgan+(-lik)+egalik** affiksi **(-i)+tushum** kelishigi **(-ni)** qo'shimchasini olgan so'z ishlatiladi: *G'o'zalarimiz barvaqt gullayotir, – dedi chol. // Chol g'o'zalarni barvaqt gullayotganligini aytdi. Garmsel esmoqda, – dedi Zargarov (Asq.M.) // Zargarov garmsel esayotganligini aytdi. Kuy eshitilayapti, – dedi u. // U kuy eshitilayotganligini aytdi. (O.)*

2. Ko'chirma gapning kesimi kelasi zamon fe'li bilan ifodalanganda, ko'chirma gap: a) **-sh (-ish)+i+ni**; b) **-sh (-ish)+i+lik+i+ni**; v) **-moqchi+ekan+i+ni**; g) **-jak(g)+i+ni** shakllarida o'zlashtirma gapga aylanadi: *Men darvozaning oldida kutaman. –dedi Kozimbek. (A.Q.) // Kozimbek*

darvozaning oldida kutishini aytdi. To'g'ri, yomon odam jazosini tortishi kerak, – dedi Saida (A.Q.) // Saida yomon odam jazosini tortishi kerakligini aytdi. Jinoyat qilgan jazo tortadi, – dedi qizlardan biri (A.Q.) // Qizlardan biri jinoyat qilgan jazo tortishini (tortishi kerakligini) aytdi.

3. Ko'chirma gapning kesimi ot yoki ot shaklidagi kesim bo'lsa, o'zlashtirma gapga aylantirilganda, shu ot kesimdan keyin **ekan+lig+i+ni** (**emas+lig+i+ni**) yoki **-lig+i+ni** shakllari qo'shiladi: *Xo'jalik ishlari-dan ko'nglim to'q, – dedi Saida (A.Q.) // Saida xo'jalik ishlaridan ko'ngli to'qligini (to'q ekanligini) aytdi. Bu Nazarovdan chiqqan aql emas, – dedi Qalandarov. // Qalandarov bu Nazarovdan chiqqan aql emasligini aytdi.*

4. Ko'chirma gap so'roq mazmunini ifodalasa, muallif gapning kesimi qanday fe'l bilan ifodalanishiga qaramay, o'zlashtirma gapning kesimi faqat **so'ramoq** fe'li orqali beriladi: *Nima uchun Usmon idoraga kelmadi, – dedi Qalandarov (A.Q.) // Qalandarov Usmonjonning nima uchun idoraga kelmaganligini so'radi.*

So'roq ko'chirma gap quyidagi yo'llar bilan o'zlashtirma gapga aylantiriladi:

1. Ko'chirma gapning fe'l kesimi so'roq yuklamasini olganda, sifat-doshning bo'lishli-bo'lishsiz shaklda takrorlanishi va ularga **ekan+lig+i+ni** yoki **-lig+i+ni** elementlarining qo'shilishi orqali: *Institutni bitirganmisiz? – dedi u. // U institutni bitirgan-bitirmaganligini so'radi.*

2. So'roq yuklamasini olgan ot kesimli ko'chirma gaplar ham o'zlashtirma gapga aylantirilganda, ot kesim ham bo'lishli va bo'lishsiz shaklda takrorlanib, **ekan+lig+i+ni** yoki **-lig+i+ni** shakllari bilan shakllanadi: – *Ota, xizmatdamisiz yo qarindoshlari bo'lasizmi? – so'radi Zumrad cholning chiqiq yelkasiga qarab. (O.) // Zumrad xizmatda-xizmatda emasligini, qarindoshlari bo'lish-bo'lmasligini otadan so'radi. Zumradxon uydami? – so'radi Xushvaqtbibi. (O.) // Xushvaqtbibi Zumradxonning uyda-uyda emasligini so'radi.*

So'roq so'zlarining ishtiroki bilan tuzilgan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantirilganda, ularning kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligidan qati nazar, **-gan+i+ni**, **-gan+lig+i+ni**, **ekan+lig+i+ni** shakllari bilan almashadi: *Ayting, nega to'xtatib qo'ydingiz? – Qaydan, kimdan o'rgangansiz bu qo'shiqni? – dedi Umarali. (O.) // Umarali nega to'xtatib qo'yganligini, bu qo'shiqni, qayerdan, kimdan o'rganganligini so'radi.*

Kesimi **bor**, **yo'q** so'zlari bilan ifodalangan ko'chirma gaplar quyidagicha o'zlashtiriladi:

1) Ko'chirma gap darak mazmunini bildirsa, o'sha so'zdan keyin **ekan+lig+i+ni** yoki **-lig+i+ni** elementlari qo'shilib keladi: *Dunyoda yaxshi odamlar ham bor, – dedi Qalandarov. (A.Q.) // Qalandarov dunyoda yaxshi odamlar ham borligini aytdi. Qalbingizda iztirob yo'q, – dedi Said. (A.Q.) // Said uning qalbida iztirob yo'q (ekan)ligini aytdi.*

2) Ko'chirma gap so'roq mazmunini bildirsa, **bor, yo'q** so'zlari juftlashib, undan keyin **-lig+i+ni** yoki **ekan+lig+i+ni** elementlari qo'shiladi: *Mayli, meni byuroga kirgizmay qo'ya qoling. Ko'zlangan odammingiz bormi? – dedi Qalandarov (A.Q.) // Qalandarov ko'zlagan odami bor-yo'qligini so'radi. O'g'il-qizlaringiz yo'qmi? – so'radi Zumrad. (O.) // Zumrad o'g'il-qizlari bor-yo'qligini so'radi.*

Buyruq gaplar o'zlashtirilganda, uning buyruq maylidagi fe'l kesimi ish oti shakli **(-lik)+egalik affiksi (-i)+kerak (lozim, zarur)+(ekan) lig+i+ni** shaklini oladi: *Ko'chadagi hazilni idoraga ko'tarib kirmang, – dedi Qalandarov. (A.Q.) // Qalandarov ko'chadagi hazilni idoraga ko'tarib kirmaslikni (kirmaslik kerakligini) aytdi. Bunaqa savollar majlisda berilsin, – dedi Said. (A.Q.) // Said bunaqa savollar majlisda berilishi (kerakligi)ni aytdi.*

Undalmali buyruq gaplar o'zlashtirilganda, undalma ko'pincha jo'nalish kelishigida shakllanib, vositali to'ldiruvchi bo'lib keladi: *Dada, bugun men “kamolotchi”lar safiga o'taman, – dedi Alibek. // Alibek bugun “kamolotchi”lar safiga o'tishini dadasiga aytdi.*

Ko'pincha kesimi buyruq maylining III shaxs shaklida bo'lgan ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapga aylantiriladi. I shaxsda kelgan buyruq fe'lni o'zlashtirma gapga aylantirib bo'lmaydi, II shaxsning o'zlashtirilishi esa kam uchraydigan hodisa.

Tahlil namunasi: *Siz artist, mening uyim sahna emas, – dedi kotiba (O.Y.)*

- 1) ko'chirma gapli qurilma.
- 2) ko'chirma gap qo'shma gap shaklida bo'lib, birinchi o'rinda, muallif gapi sodda yig'iq gap bo'lib, ikkinchi o'rinda kelgan.
- 3) muallif gapining kesimi **demoq** fe'li bilan ifodalangan bo'lib, egadan oldin qo'llanilgan.
- 4) ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelgan.
- 5) chizmasi: , – _____ .

O'zlashtirma shakli: *Kotiba uning artist, uyining sahna emasligini aytdi.*

1. Ko'chirma gapdagi o'zgarishlar: ega vazifasidagi II shaxs kishilik olmoshi (**siz**) qaratkich kelishigida shakllanib, III shaxs kishilik olmo-

shiga (**uning**) aylangan aniqlovchi vazifasida kelgan; I shaxs kishilik olmoshi bilan ifodalangan aniqlovchi (**mening**) tushib qolgan, egalik aklidagi soʻz (**uyim** – ega) qaratqich kelishigida shakllanib, aniqlovchi vazifasiga oʻtgan; kesimi predikativlik affiksi (**siz**)dan chiqib, **-lig+i+ni** shaklini olgan; koʻchirma qoʻshma gap vositasiz toʻldiruvchili birikmaga aylangan, gap oʻrtasida kelib, kesimga tobelangan.

2. Muallif gapidagi oʻzgarishlar: **dedi** fe'li **aytdi** fe'li bilan almashgan, ega birinchi, kesim ikkinchi oʻringa oʻtgan.

PUNKTUATSIYA

reja:

1. Punktuatsiya haqida tushuncha.
2. Oʻzbek punktuatsiyasining tarixiga doir.
3. Punktuatsiyaning tilshunoslikning sohalari bilan aloqasi.
4. Oʻzbek punktuatsiyasining asos va tamoyillari.

Puntuatsiya termini lotincha **punctum** soʻzidan olingan boʻlib, aslida nuqta, oʻrin, joy tushunchalari bilan bogʻlangan boʻlsa ham, tilshunoslikda nutq oqimidagi intonatsion-prasodik toʻxtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yigʻindisini (**tinish belgilarini**) anglatadi.

Puntuatsiya tilshunoslikning bir sohasi boʻlib, tinish belgilari (**punktogramma**) va ularning qoʻllanish qonun-qoidalarini oʻrgatadi. Punktogramma muayyan yozuv tizimi (**grafika**) ning uzviy qismi boʻlib, yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (masalan, raqamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin boʻlmagan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Tinish belgilari yozma nutqni toʻgʻri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining oʻzaro logik-grammatik munosabatlarini koʻrsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktuatsiya, bir tomondan, yozuvchiga oʻz yozma nutqini aniq, toʻgʻri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, oʻquvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi; bir tinish belgi yozuvchi tomonidan qanday ma'no va vazifada qoʻllangan boʻlsa, mazkur tinish belgi oʻquvchi tomonidan ham xuddi shunday vazifada tushuniladi.

Demak, tinish belgilari *"Yozma nutqning tushunilishini osonlashtirish uchun qoʻllaniladi"* (Baduen de Kurtene) va uni oydinlashtiradi, aniqlik kiritadi. Tinish belgilarining oʻrinli qoʻllanmasligi ma'lum bir sintaktik qurilmani ham mazmun, ham tuzilishii jihatidan oʻzgarib

ketishiga olib keladi. Masalan, *Afandi podshoga qarab: Siz axmoq odam emassiz, – dedi* (latifa) gapida **axmoq** soʻzidan keyin pauza berilib (tire yoki vergul qoʻyilib) oʻqilsa, gap podshoning akliligi haqida emas, balki uning ham axmoq, ham yomon odamligi haqida boradi. *Qir-adirda lola gulpar ochilgan* (U.) gapida *lola* soʻzidan keyin vergul qoʻyilmasa, faqat lolalar ochilganligi; vergul qoʻyilsa, loladan tashqari boshqa gullar ham ochilganligi anglashiladi.

Tinish belgilari yozuvdan keyin paydo boʻlgan. Qadimgi yozuvlar piktografik (rasm yozuv), logografik (soʻz yozuv) shakllarida boʻlganligidan, punktuatsiyaga extiyoj sezilmagan. Punktuatsiya yozuvning keyingi taraqqiyotida shakllana boshlagan.

Yozuvning sintetik usulidan analitik yozuv usuliga oʻtilishi, endi yozuvda grafemalarni – belgilarni ajratish, bir harfli soʻzni koʻp harfli soʻzdan, soʻzni soʻzdan ajratish ehtiyojining tugʻilishi, fikrni mantiqli bayon qilish, maqsadni toʻgʻri ifodalash zaruriyati kabilar bora-bora yozuvga ayrim ishoralarning kiritilishiga olib keldi. Qadimgi yozma matnlarda soʻzlar: a) boʻsh joy, interval (oraliq masofa), b) nuqtalar, v) ayrim belgilar (masalan, qizil rang) vositasida ajratilgan.

Oʻrta Osiyoning qadimgi yozuvlarida ham (oromiy, turkiy runik kabi) ajratuvchi belgilar saqlangan, ancha faol qoʻllanilgan, bularni shartli ravishda qadimgi yozuvlarga xos «punktuatsion» belgilar deyish mumkin.

Oʻrta Osiyoda arab yozuvi maydonga kelgandan keyin, oromiy, turkiy runik kabi yozuvlardagi mavjud anʼanaviy yozuv tizimi buziladi. Arab grafikasida yozuvning yordamchi elementi sifatida: a) taʼkid belgilari – tik toʻgʻri chiziq, qizil va oq-qora ranglar; b) "maʼno belgilari" – "Qurʼon"dagi turish va determinativlar; v) "bezak belgilari" qoʻllangan.

Demak, XIX asrning II yarmigacha arab grafikasidagi oʻzbek yozuvida tinish belgilari boʻlmagan. Oʻzbek punktuatsiya tarixi, asosan, XIX asrning II yarmidan keyin boshlanganki, buning obʼyektiv va subʼyektiv tarixiy sabablari bor:

1. XIX asrning II yarmida Oʻrta Osiyoning Rossiya tomonidan istilo qilinishi Oʻrta Osiyo xalqlari madaniyatining, jumladan, oʻzbek xalqi madaniyatining rivojlanishida omil boʻldi. Rossiya va u orqali boshqa Yevropa xalqlari bilan boʻlgan turli xil madaniy aloqalar yozuvda ham oʻz ifodasini topadi.

2. XIX asrning II yarmida Oʻrta Osiyoda poligrafiyaning vujudga kelishi: bosmaxonalar, nashriyotlarning paydo boʻlishi, kitob, gazeta, jurnallarning nashr etilishi, oʻzbek adabiy tilining matbuot tili darajasiga

ko'tarilishi yozuv madaniyatini, savodxonlikni – tinish belgilari qo'llash ilmini shakllantirdi. Bunda 1917 yildan muntazam ravishda ikki tilda (ruscha va uzbekcha) nashr etilgan "**Turkiston viloyatining gazet**i" ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

3. Bu davrda tarjimachilik ishlari juda ravojlandi. Rus tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjima matnlarda, tabiiyki, tinish belgilari o'zbekcha nushaga ham o'tdi.

4. Turkiy tillar, turkiy yozuvlar tadqiq qilina boshlandi: ilmiy asarlar, grammatik qo'llanmalar paydo bo'ldi. Turkologlar tomonidan tahlil qilingan o'zbekcha matnlarda ham tinish belgilari qo'llanila boshlandi.

Bu holat keyinchalik o'zbek yozuvida an'anaga aylandi. Shunday qilib, XX asr boshlarida o'zbek punktuatsiyasi shakllanib yetdi.

Xususan, 1920 yillardan keyin barcha turkiy tillar bilan birga, o'zbek grafikasining rivojida, xususan, orfografik va punktuatsion qoidalarining ishlanishida o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek tiliga ko'pgina tinish belgilari (so'roq, undov, qo'shtirnoq, ko'p nuqta kabi) kiritirildi.

Punktualsiya tilshunoslikning **grafika** sohasi bilan zich bog'langan. Ma'lumki, grafika muayyan tilning yozuv tizimini bir butun holda, barcha belgilar yig'indisini o'rganuvchi soha, Shulardan tinish belgilar punktualsiya tomonidan o'rganilishidan qat'i nazar, keng ma'noda punktogrammalar ham grafikaning tarkibiy qismidir. Grafika tinish belgilaridan tashqari, raqamli, diakritik va tarnskripsion belgili kabi yozuvlarni ham o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa ham, punktualsiya o'z o'rganish ob'yekti va vazifasi jihatidan grafikadan, yozuvning boshqa – belgili shakllaridan ajralib turadi.

Demak, grammalar (tinish belgilar) muayyan yozuv tizimining yordamchi, ayni paytda, zarur qimsi bo'lgan shartli belgilar yig'indisidir.

Punktualsiya **orfografiya** bilan aloqador. Orfografiya so'zlarning to'g'ri yozilishini o'rganib, morfologiya bilan zich bog'lansa, punktualsiya gaplarning to'g'ri tuzilishi, undagi fikrning to'g'ri ifodalanishi uchun xizmat qilib, sintaksis bilan zich bog'lanadi.

Masalan, so'roq, undov, nuqta kabi tinish belgilaridan so'ng gapning bosh harf bilan, ikki nuqta, nuqtali vergullardan keyin gapning ko'pincha kichik harf bilan yozilish holatlari punktualsiya bilan orfografiyaning aloqadorligini ko'rsatuvchi omildir. Bundan tashqari, savodxonlikni oshirishda orfografiya qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, punktualsiya ham shuncha ahamiyatga egadir. Orfografiya ham, punktualsiya ham grafik vositalar bo'lib, to'g'ri yozish to'g'ri tuzish, to'g'ri ifodalash haqidagi ta'limotdir.

Punktuatsiya **uslubiyat** bilan aloqador. Tinish belgilarining noto'g'ri qo'llanilishi gap mazmunida galizlik, mavhumlik va noaniqlikni keltirib chiqaradi. Masalan, *Ey tabib, qo'y, boqma dardim bedavolardan biri* (Muq.) gapida uch holat bor: a) **qo'y** so'zidan keyin vergul o'qilmasa, "tabib" "qo'yboqar"ga aylanadi; b) "**dardim**"dan keyin vergul qo'yilsa, "dardim" "boqma"ga bog'lanadi – kesim+to'ldiruvchi (boqma dardimni) munosabati tug'iladi; v) "boqma"dan keyin vergul qo'yilsa, "ega+kesim" (dardim bedavolardan biri) tug'iladi.

Punktuatsiya **sintaksis** bilan uzviy aloqador. Punktuatsion qoidalar sintaktik qonuniyatlar, me'yorlar asosida talqin qilinadi. Punktuatsiya qoidalarini sintaktik qonuniyatlarga bog'lab bayon qilishning o'z ilmiy metodik asoslari va usullari bor. Punktuatsiya qoidalarini aniqlashda mazkur tilning barcha sintaktik, uslubiy xususiyatlari hisobga olinadi. Tinish belgilari qo'llashni gap qurilishi, uning grammatik-semantik shakllanishi boshqaradi. Masalan, *Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas, Ko'zimni yashnatib, kiyibsiz atlas* (X.Saloh) gapida vergul uch xil vazifada: 1) uyushgan undalmalarni biriktirish; 2) ularni gap bilan grammatik bog'lanmaganligi uchun gapdan ajratish; 3) oborotdagi qisqa pauzani qoplash uchun qo'llanilganki, buni shu gapning konkret sintaktik qurilishi taqozo qilgan.

Punktuatsiya **sintaktik fonetika, gap ohangi** bilan uzviy bog'langan. Ohang (intonatsiya) ovozning rang-barang tovlanishi: tinch boshlanishi, ko'tarilishi (kulminatsiyasi), pasayishi, susayishi, tinishi (uzilishi); tempi: tez va sekinligi, osoyishtaligi; sifati: cho'ziq, qisqaligi, kuchli va kuchsizligi; davriy va davomlilik, takrorlanishi kabilarda ko'rinadi.

Ohang juda murakkab bo'lib, urg'u, pauzalar, melodika kabilarning komponentlari hisoblanadi. Ohang gap mazmun-mundarijasining ajralmas qismi: usiz gap shakllanmaydi, gapning kommunikativ (aloqalarlashuv) vazifasini ohang boshqaradi. Ohangning o'zgarishi gapning mazmun va tuzilish jihatidan o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi: mazmun farqlaydi, gap qayta shakllanadi. Quyidagi gaplarning ohangini qiyoslaylik:

1. *Turg'un ukam vrach bo'ldi.*
2. *Turg'un, ukam, vrach bo'ldi.*
3. *Turg'un – ukam vrach bo'ldi.*
4. *Turg'un, ukam vrach bo'ldi.*

1-gapda Turg'un bilan ukam o'rtasida pauza yo'q: Turg'un – aniqlovchi, ukam – ega; 2-gapda Turg'un bilan ukam sanash ohangi bilan aytiladi: uyushiq egalar; 3-gapda "ukam" gapga nisbatan sal tez va

pasayuvchi ohang bilan aytiladi: ajratilgan bo'lak; 4-gapda Turg'un so'zi murojaat ohangi bilan gapdan ajratilib, biroz pauza qilinadi: undalma.

Siz bor, men bor qurilmasi ohangning o'zgarishi tufayli uyushiq bog'lovchisiz qo'shma gap (*Siz bor, men bor* va *boshqalar bor* kabi); sabab ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap (*Siz bor – men bor // Siz borligingiz tufayli men bor*) kabi shakllarda shakllanishi mumkin.

Punktuatsiya bilan ohang qanchalik yaqin bo'lmasin, ular o'ziga xosligi, qimmatini jihatidan har xil baholanadi: ohang (gap ohangi) – birlamchi, material tushuncha; punktogrammalar (tinish belgilari) – hosila; ohangning mahsuli, uni aks ettiruvchi shartli simvollar. Punktogrammalar ohang ohangga qarab qo'yiladi. Matn har bir gapning mazmun va grammatik, intonatsion xususiyatlaridan kelib chiqib o'qiladi. Punktogrammalarning to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilganligini gap mazmuni boshqaradi, "*Tinish belgilariga rioya qilib o'qish*" iborasi ham, "*Deyarli barcha tinish belgilari "o'qiladi"*" (A.M.Peshkovskiy), deyilgan fikrlar ham tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan normal matnlarga nisbatan aytilgandir.

O'zbek tilida ham punktogrammalarni qo'llashning o'z asoslari va shartlari mavjud. Tinish belgilarining qo'llanishida: 1) gapning tuzilishi, 2) mazmuni, 3) ohangi asos qilib olinadi. Tinish belgilarining o'rni va vazifasini belgilashda mana shu uch xil hodisa alohida-alohida emas, balki ularning bir bugunligi nazarda tutiladi. Chunki bular o'zaro bog'langan bir hodisaning uch tomoni – uch xususiyatidir. Nutqning tuzilishi, mazmuni, ohangi o'zaro zich bog'langan bo'lib, har qanday gapda shu uch xususiyat mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, *Opalar, singillar! Bu savollar majlisda berilsin!* (A.Q.) gapi: 1) tuzilishi jihatidan sodda, 2) buyruq bilan birga emotsiya, murojaat ifodalangan, unda gap bilan grammatik bog'lanmagan so'zlar (opalar, singillar) bor, 3) ko'tariluvchi ohangi ohangga ega.

Punktuatsiya asoslaridan kelib chiqib, tinish belgilari qo'llashning quyidagi asoslarini ko'rsatamiz:

1. **Logik-grammatik asos.** Bunga ko'ra, tinish belgilari gap mazmuni, tuzilishi va ohangi nazarda tutilgan holda, shulardan kelib chiqib qo'llaniladi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gapning oxirida nuqta, so'roq mazmunini anglatgan gaplarning oxirida so'roq, emotsiya (hayajon) ifodalangan gaplar oxirida undov belgilari ko'proq nutq mazmuniga asoslanib qo'yilgan bo'ladi; kiritma qurilmalarning asosiy gap bilan zich bog'langanlari qavs, sayoz, bo'sh bog'langanlari tire bilan

ajratilish holatlari ko'proq nutq tuzilishga asoslanadi: *"Dod!" degan ovoz eshitildi. (O.) Qalandarov jonjahdi bilan baqirdi: Yuqol!!!* gaplarining birinchisidagi qo'shtirnoq nutq tuzilishiga, ikkinchisidagi undov belgilari ohangga asoslanib qo'yilgan.

2. Uslubiy asos. Bu prinsipga ko'ra, tinish belgilari nutq uslubining talabidan kelib chiqib qo'yiladi.

Til taraqqiyoti, til uslublarining rivojlanishi nutqning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaning taraqqiyotiga, uning qo'llanish doirasining kengayishi yoki o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqlarda) ixchamlik uchun personajlarning nutqlari tire bilan ajratiladi. Dramatik asarlarda esa nutq egalarining nomi keltirilganligidan, borligidan ularni tire bilan ajratishga extiyoj bo'lmaydi yoki qo'shtirnoq havola (sitata)larda qo'yilib, badiiy asarlardagi ko'chirma gaplarda qo'llanilmaydi. Nutqning individual uslub shaklida tinish belgilari, ko'pincha, yozuvchining sub'yektiv maqsadi, emotsional fikr ifodalash, uning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, *Yoz. Quyosh hamma yoqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqchilik, to'kinchilik fasli! (U.)* gaplarida "yoz" so'zi orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni ifodalash uchun foydalangan. Bu maqsadlar tinish belgilari (nuqta, undov belgisi) orqali ifodalangan. *G'ovur bo'lib ketdi: Xotin-qizlar zveno, brigadani udda qilolmaydimi! (A.Q.)* gapida ritorik so'roq bilan fikrning kuchli (emotsional) va davomli ekanligi ifodalangan. Bu maqsadlar undov belgisi va ko'p nuqta orqali ifodalangan. Lekin bundan har bir yozuvchi tinish belgilaridan o'z bilganicha, o'z istagicha foydalana beradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Tinish belgilarining individual uslub talabiga ko'ra qo'llanilishi ham uslubiy tamoyilning umumiy me'yoriga bo'ysinadi.

3. Farqlovchi (differensial) asos. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgilari yozuv texnikasi (shakli)ni farqlash uchun qo'llanadi. Boshqacha aytganda, tinish belgilarining yozuv shakllariga bog'liq holda odatdigidan farqli ishlatilishi farqlovchi tamoyil asosida yuz beradi. Ilmiy uslubda, jumla ichida so'zlarni qisqartirishda iqtibos – sitatalarning manbaini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlatiladi. Masalan, kitob muqovasida tire (Toshkent – 2011 kabi), havolalarda vergul (G'afur G'ulom, Tanlangan asarlar, Toshkent, 1985 kabi) qo'yiladi.

Ba'zan muallif va uning asari, matbuot nomlari qisqartirilib, unda tinish belgisidan foydalaniladi: Navoiy – N.; Oybek – O.; Abdulla

Qahhor – A.Q.

Ko'p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo'yilib, numerativlik vazifasini ham bajaradi, bunda ham farqlovchi tamoyilga asoslaniladi.

Umuman, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va farqlovchi tamoillar asosida qo'llaniladi. Bulardan logik-grammatik tamoyil yetakchi bo'lib, keyingi ikki tamoyil shunga asoslanadi – yordamchi tamoyil.

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari, ularning nomlanishi va shakli quyidagicha:

№	NOMI	SHAKLI
1.	Nuqta	.
2.	So'roq belgisi	?
3.	Undov belgisi	!
4.	Nuqtali vergul	;
5.	Ko'p nuqta	...
6.	Vergul (qo'sh vergul)	, „
7.	Ikki nuqta	:
8.	Tire (qo'sh tire)	–
9.	qavs (qo'sh qavs)	()
10.	Tirnoq (qo'sh tirnoq)	“”

TINISH BELGILARINING VAZIFASI

reja:

1. Nuqta va uning qo'llanish o'rinlari.
2. So'roq belgisi va uning qo'llanish o'rinlari.
3. Undov belgisi va uning qo'llanish o'rinlari.
4. Nuqtali vergul va uning qo'llanish o'rinlari.
5. Ko'p nuqta va uning qo'llanish o'rinlari.
6. Vergul va uning qo'llanish o'rinlari.
7. Ikki nuqta va uning qo'llanish o'rinlari.
8. Tire va uning qo'llanish o'rinlari.
9. Qavs va uning qo'llanish o'rinlari.
10. Qo'shtirnoq va uning qo'llanish o'rinlari.
11. Punktatsiyaga doir amaliy mashg'ulot namunalari.

NUQTA VA UNING QO'LLANISH O'RINLARI

1. Tuzilishidan qat'i nazar, tinch ohang, oxiri pasayuvchi, so'nuvchi intonatsiya bilan aytiladigan gaplar (darak gap)ning oxiriga nuqta qo'yiladi. Bunday ohang "nuqta" ohangi deb yuritiladi: *Tong shabadasi g'ir-g'ir esa boshladi.* (O.) *Erta bahor. Daraxtlar uyg'ona boshlagan.* (U.)

2. Orzu-istak, iltimos, maslahat ko'rinishidagi buyruq gaplarning oxiriga nuqta qo'yiladi: *Jonajon vatan, mehring men qalbimga jo etsam.* (Kamtar) *Sabo, arzimni yetkur, mohitobon bir kelib ketsin.* (H.H.)

3. Remarka ko'rinishidagi gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi: *Shohista. (asta) Hamdam aka, Hamdam (aylanib orqasiga qaraydi va Shohistani ko'radi.).* Shuningdek, *davomi bor. boshi 3-sonda.* tipidagi iboralarning oxiriga ham nuqta qo'yiladi.

4. Numerativlar bilan sanab ko'rsatilgan gaplarning oxiriga ham nuqta qo'yiladi: *Paxta yig'im-terimiga faol ishtirok etgan quyidagi talabalar mukofotga takdim etilsin:*

1. *Do'stov Norboy – o'zbek filologiya yo'nalishining 3- kurs talabasi.*

2. *To'xtayev Xo'jayor – o'zbek filolotiya yo'nalishining 1- kurs talabasi.*

3. ...

Reja:

1. *Til sinfiy emas.*

2. *Til jamiyatning ko'rash va rivojlanish qurolidir.*

3. ...

5. Darak gaplardan tashkil topgan sarlavhalar oxiriga nuqta qo'yiladi: *Paxta nobudgarchiligiga qarshi kurash xalq nazoratchilarining burchi.* (gazeta)

6. Bosh harflar yoki bo'g'inlar bilan ko'rsatilgan shartli qisqartmalardan so'ng: A. Navoiy, A.S. Pushkin kabi.

7. Havolada muallif nomidan keyin: *G'.G'ulom. Tanlagan asarlar. – T.: 1985.*

8. Matematikada nuqta ko'paytiruv alomati sifatida qo'llanadi: $2.2=4$, $3.3=9$

9. Ba'zan nuqta sanalarda, kun, oy va yillarni ajratish, murakkab sonlarni guruhlash uchun ishlatiladi: *20.XI.2010.; 01.03.2010.; 54.400.*

SO'ROQ BELGISI VA UNING QO'LLANISH O'RINLARI

1. So'roq mazmunini anglatuvchi gaplardan keyin qo'yiladi: *Motorning qayeriga o'q tekkan ekan? Samolyot havoda yana qancha tura*

olishi mumkin ekan? Benzin baklari yorilib ketmasmikin? (kinojurnal-dan).

2. Matnlarda biron soʻz, jumla noaniqlik, gumon, anglashilmovchilik bildirsa, bunday soʻz yoki jumladan soʻng soʻroq belgisi qavsga oʻralgan holda qoʻyiladi: *Pomir togʻlari boʻylab qilingan ilmiy izlanish natijalari ham toʻplamdan joy olmaganligi (?) ajablanarli! ("F.T.")*

3. Soʻroq gap bilan ifodalangan sarlavhalardan keyin soʻroq belgisi qoʻyiladi: *Xoʻjalik yilini qanday yakunlayapsiz? (radiodan) Oilaviy shirkat usuli qanday samaralar berdi? (radiodan)*

4. Soʻroq olmoshlari soʻroq maʼnosi uchun ishlatilsa, ulardan keyin soʻroq belgisi qoʻyiladi: *Toʻldiruvchi kimni? nimani? kim bilan? nima bilan? soʻroqlariga javob boʻladi.*

UNDOV BELGISI VA UNING QOʻLLANISH OʻRINLARI

1. Emotsionallik ifodalaydigan, kuchli koʻtariluvchi, toʻlqinli ohang bilan aytiladigan gaplar oxiriga undov belgisi qoʻyiladi: *Qanday qilay, sevinch sayratsa tilni! Bahor tuygʻulari yayratsa dilni! (U.) Bahor qanday maftunkor fasl!!! (U.)*

2. Vokativ gaplar oxiriga undov belgisi qoʻyiladi: *Qalandarov gulzorning narigi tomonidagi idoraga qarab: Eshon, hoy! – deb qich-qirdi. (A.Q.)*

3. Emotsiya ifodalaganda, quyidagi soʻz-gaplar oxiriga undov belgisi qoʻyiladi:

a) undov soʻzlar: *Uf! Qush edim, qanotimni qayirdilar... (H.H.) Attang! Attang! Biz gʻaflatda qolgan ekanmiz-da! (S.Ahm.);*

b) rasm-odat undovlari: *Teshaboy: Xormanglar, ho! Ovozlar: Bor boʻlinglar! Bor boʻling! Teshaboy: Balli! Rahmat! (U.)*

v) kirish soʻzlar: *Hammangiz ham bir varakay toʻy qilasiz! Tursun: Albatta! (U.) Chopiqda ham gʻayrat qildi. Ovozlar: Toʻgʻri! Toʻgʻri! (U.)*

g) **ha, xoʻp, yoʻq** soʻzlari: *Xoʻp! Xoʻp dedik-ku! (K.Y.) Xoʻ-oʻsh! Yana nima kerak! (A.Q.) Yoʻq! Uning alamli qalbiga bular orom bera olmagan. (U.)*

4. Emotsiya ifodalasa, nominativ gaplar oxiriga undov belgisi qoʻyiladi: *Hayot!.. Sen boʻlmasang, yashash yoʻq bir on! Jamol: Shoʻrim qursin! Sarvi: Dahshat! Shoista: Falokat! (U.) Saida... qop qora va yopishqoq bir narsaga toyrib yiqildi. Qon!... Saida uyogʻini bilmaydi (A.Q.)*

5. Infinitiv gaplar oxiriga undov belgisi qoʻyiladi: *Ona mehridan*

judo bo'lish! Buning alam-hasratini aytib ado qilolmaysan. (T.T.)

6. Kuchli intonatsiya bilan aytiladigan undalmalar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: Quyidagi ikki holatni qiyoslang: *Toxirjon aka! – dedi entikib Saida. Kechiring, Tohirjon aka, og'zimdanda chiqib ketdi. (A.Q.) Zamonamiz dadil qadamlar zamonasi-ku, qizim! (A.Q.)*

7. Ritorik so'roq gaplar undov ohangi bilan aytilganda undov belgisi qo'llaniladi: *Nima bizga Amerika! Nima bizga uning sur'ati! (H.O.)*

8. Emotsional buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Bunaqa savollar majlisda berilsin! Raisning o'zi borida gapirilsin! (A.Q.) Marhamat, kiring! – dedi Nosirov. (A.Q.)*

9. Darak gaplar ham his-hayajon bilan aytilsa, oxirida undov belgisi qo'llaniladi: *Ha, o'q tamom bo'libdi! – deb o'yladi o'zicha (H.Sh.) Men kolxozni opichlab katta qilganman!... (A.Q.)*

VERGUL VA UNING QO'LLANILISH O'RINLARI

Vergul sodda gap doirasida quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

1. Uyushiq ohang bilan aytiladigan bo'laklar, bularning yoyiq holatda guruhlashishidan tashkil topgan sintaktik qismlar vergul bilan ajratiladi. Bunda bo'laklar teng bog'lovchilar (**va** biriktiruvchisi mustasno) bilan birikkanda ham, ular o'rtasida vergul qo'llanila beradi: *Shundan beri... eshon raisning yugurdagi, kabobpaz va oshpazi, ashulachisi, qiziqchisi, ulfati, xodimgiri, agenti, mirzasi edi. (A.Q.). Oyna orqali ko'ringan narsalar goh quyoshning nurida ravshanlashib ko'rinar, goh xiralashib, ko'zdan g'oyib bo'lardi. (Asq.M.). Qalandarov Saidaning gapini yo eshitmadi, yo o'zini eshitmaganga soldi. (A.Q.) Yigit uni quvlab ketdi, ataka qildi, ammo otishga ulgarmadi (H.Sh.) U na yozadi na o'qiydi.*

2. Undalmalar, yig'iq, yoyiq, uyushiq, takrorlangan shaklda bo'lishidan; gapning boshida, o'rtasida, oxirida kelishidan qat'i nazar, gapdan vergul (emotsiya ifodalasa, undov belgisi) bilan ajratiladi: *Do'stlar, yodimga tushdi yashnagan gulzorlar (U.) To'kilgandan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan yomon! (A.Q.) Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas, Ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas. (H.Sh.) O'rtoq Nosirov, mumkinmi? (A.Q.) Bu gapni menga aytding, o'rtoq, boshqa kishiga og'zingdan chiqarma. (A.Q.) O, gul, janub, shifo maskani, Yana keldik sohillaringga (U.)*

3. Kirishlar asosiy gapdan vergul bilan ajratiladi. Bunda kirishlar qisqa pauza, past ohang, tezroq tempda aytiladi; qanday shaklda bo'lishidan, gapda qaysi o'rinda kelishidan qati nazar, vergul bilan

ajratiladi: *Shunday qilib, ular partizanlarni ikki tomondan "iskanja" orasiga siqib olishdi. (S.Ahm.) Bu birinchi kulgi, albat, toleingga muhr bo'ladi. (G'.G'.) Qalandarov mashq va ashuladan mamnun bo'ldi, aftidan, uni yana gapirtirib kulgisi keldi. (A.Q.) Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, Mening bilishimcha, sening elingga (H.O.) Men sizga aytsam, hech yerda tayyor osh bo'lmaydi. ("Mushtum"). Shunday qilib desangiz, uyg'onib ketsam tushim ekan. (og'izdan) Buyoqqa qarang, siz qachon bu yo'ldan qaytasiz. (og'izdan)*

4. Tasdiq va inkor bildiruvchi **ha**, **xo'p** va **yo'q** so'zlari asosiy gapdan vergul bilan ajratiladi. Bular g'am uslubiy talab bilan gapning turli o'rinlarida kela oladi: *Ha, rahbariyat tarkibi uch kishidan iborat, – dedi Saida. Rahbarlikka ko'zlagan odamingiz bormi? – dedi Qalandarov. – Yo'q, Arslonbek aka, muvofiq odamni siz bilasiz. – Xo'p, men bir o'ylab ko'ray. (A.Q.) Bu kabinet yaqinda bo'lganmi? – dedi Saida. Yo'q, men kelganda ham bor edi. (A.Q.)*

5. Undov so'zlar gapda qaysi o'rinda kelmasin, undalma oldida qo'llanganda ham, kuchli emotsiya bilan aytilmasa, gapdan vergul bilan ajratiladi: *Xayol, ha, sen mening uchqur kaptarim, O, naqadar jasur va quvnoq edik. (U.) Voy, aya, sizga nima bo'ldi? (A.Q.)*

6. **qani (qani endi)**, **xo'p** so'zlari vergul bilan ajratiladi: *Qani, mashinangizning oyog'ini bir sinab ko'raylik. ("Mushtum") Qani endi, ostonamga oyoq, qo'ysin-chi. Mayli! – dedi Qalandarov yana muylovini burab, –Xo'sh, men, o'zingiz... Xo'sh, yana nima demoqchisiz. (A.Q.)*

7. Ega **u**, **bu**, **shu**, **o'sha** olmoshlari bilan ifodalanganda, ularni shu olmoshlar bilan ifodalangan aniqllovchilardan farqlash uchun vergul bilan ajratiladi: *U, devor ustidagi qizga qarab, bo'g'iq tovush bilan o'shqirdi. (A.Q.)*

Ba'zan yuqoridagi ko'rsatish olmoshlari boshqa so'z bilan ifodalan-gan egani ajratib ko'rsatish, ta'kidlash uchun qo'llanib, ta'kidlovchi, ega vazifasini bajaradi: *Paxta – bu, or-nomus, milliy iftixor. (gazeta)*

6. O'zi izohlayotgan bo'lakdan keyin kelib, undan juda qisqa pauza bilan farqlanadigan, maxsus ta'kidlanmaydigan ajratilgan bo'laklar vergul bilan ajratiladi: *Qobilbobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktak-
chan, og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi. (A.Q.) Biz, qishloq yoshlari, tinchlik uchun ko'rashamiz. Eshon o'ttiz ikki yoshida shunday xotinga, ya'ni mana shu Kifoyatxonga uchrabdi. (A.Q.)*

7. Ajratilgan bo'laklar kengayib, oborot shaklida uyushib keladi va vergul bilan ajratiladi: *Atrof tevarakda bo'lgan urush qasir-qusuri ayiqni bezovta qilib, uning qish uyqusini buzib, inidan chiqargan edi. (R.F.)*

Vergul qo'shma gap doirasida quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

1. Bog'langan qo'shma gap (**va** bog'lovchili qo'shma gap mustasno) komponentlari o'rtasidagi pauza o'rnida: *Shu asnoda Umida raisni telefonga chaqirdi-yu, bu gap chala qoldi, lekin Saida buni davom ettirishga xohishi yo'q edi.* (A.Q.) *Lekin o'z kabinetlari hamisha qulf, yo mehmon kelganda ochiladi, yo jahllari chiqqanda...* (A.Q.) *Na ko'cha bor, na mustahkam uy-joy, na dala shiyponi bor.* (O.)

Ko'rinadiki, bunday hollarda vergul biriktiruv bog'lovchi vazifasida qo'llanilgan yuklamalardan keyin, ayiruv, zidlov bog'lovchilaridan oldin qo'llaniladi.

2. Ergash gapli qo'shma gaplar o'rtasida: *Ayiq uni qor uyumidan ag'dargan hamon, to'pponchani chiqarib tepkisini bosib yubordi.* (R.F.) *Butalar shitirlab, yosh qarag'aylarning shoxlari larzaga keldi.* (P.T.)

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'rtasida: *Bug'u bir cho'chib ketdi, orqa terisi titradi, oyoqlari yana juftak bo'ldi.* (S.Ahm.)

4. Ko'chirma gap bilan muallif gapi o'rtasida: *Paxta rejasini ham oshirib bajardik, – dedi rais.*

QAVS VA UNING QO'LLANISH O'RINLARI

Matn yoki gap bilan kuchsiz bog'langan, tinch ohang, pasayuvchi ohang – kirish ohangi bilan aytiladigan qo'shimcha izoh anglatadigan qismlar qavsga olinadi: *Eshon (niyati xolis ekan) o'ttiz ikki yoshida shunday xotinga, ya'ni mana shu Kifoyatxonga uchrabdi.* (A.Q.)

Yana bir kun kechasi

(Bilmam, oyni kechasi)

Bo'rilar uvullashdi,

Shunday qilib, shu kecha

(Aniq bilmadim necha)

Qirildi bir talay qo'y. (U.)

2. Remarkalar qavsga olinadi: *Xonbobo: Bazm tarqalganda kelib-manda... (Ko'zi Qorabotirga tushadi). Kim bor.... (Yasovullar kiradi.) Olib chiqing.* (S.Abd.)

3. Fikrning manbai yoki iqtibos muallifi matn ichida berilsa, qavsga olinadi: *«Til – aniqlashgan ongdir».* (Fitrat)

4. Gazeta va jurnallardagi davomi bor, boshi jurnalning 2-sonida kabilar ham qavsga olinadi.

5. Fikrning noaniqligini ko'rsatish, yoki aksincha, qat'iyligini, to'g'riligini ta'kidlash uchun so'roq va undov belgilari matnda qavsga o'ralgan holda **(?)**, **(!)** qo'llaniladi: *Jonkash-jafokashligi bo'yi-basti (?)*

bilan, go'zalligi va jondek soddaligi (!) bilan ko'rindi. (gazetadan)

NUQTALI VERGUL VA UNING QO'LLANISH O'RINLARI

1. Mazmun va grammatik jihatidan bir-biriga nisbatan mustaqillikka ega bo'lgan qo'shma gap komponentlari, sodda gap qismlari o'rtasida nuqtali vergul qo'llaniladi: *Yulduzlar hali charaqlab turar, qirchshlama sovuq, lekin sharqdan osmon yorishib kelmoqda edi. (Asq.M.) Eshon Saidani qiyg'os pishgan olchalar oqarishib ko'ringan binoga tomon boshlab bordi; chamadonni hujraning ostonasiga qo'yib, yugurganicha qaytib ketdi. (A.Q.)*

2. Gap qismlari, bo'laklari guruhlanib, uyushib bog'langanda ular o'rtasida nuqtali vergul qo'llaniladi: *Derazalarga ip bilan osilgan oq krepdeshin pardalar salqi; derazaning chap tomoniga qo'yilgan chiroyli yozuv stoli ustida kattakon sariq samovar, jumragiga rang-barang qog'oz gullar taqilgan bir talay choynak, qopqog'i tob tashlagan qizil patefon; stolga tirab qo'yilgan qimmatbaho trilyaj, uning issiq choynak izlari qolgan tumbochkasida kerosin lampa, chaqilgan gugurt cho'plari, kattakon qizil sovun... (A.Q.) Otam... qoziqning uchi ham bo'lma, boshi ham bo'lma, o'rtasi bo'l; uchi bo'lsang, yerga kirasan, boshi bo'lsang to'qmoq yeysan deganlar. (A.Q.)*

3. Raqam yoki harflar bilan ifodalangan numerativlardagi gaplar oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi:

Saida obraziga xarakteristika:

a) Saida kamtarin, sodda qiz;

b) Saida ongining shakllanishi;

v) Saida – zamonaviy xotin- qizlarning yorqin timsoli;

g) Xulosa.

KO'P NUQTA VA UNING QO'LLANISH O'RINLARI

1. Mazmunan tugallanmagan gaplar oxirida ko'p nuqta fikrda uzilish borligini ko'rsatadi va gapning oxirida yoki, umuman, u qo'yilgan o'rinlarda uzun va ba'zan qisqa pauza bo'ladi: *Devorda viloyat xaritasi, tuman hududining rejasi turli-tuman chizgilar, foto xujjatlar... Hammasi ham unib o'sdi: biri kolxoz raisi, biri rayon madaniyat bo'limining mudiri, biri deputat... Axir men... qo'limdan kelmaydi. Ayol boshim bilan...– dedi-yu, u yog'ini aytoilmadi. (Misollar A.Qahhordan) Yo, Tohirga biror zahmat yetdimi... Yo... (S.Abd.)*

2. Personajlarning turli his-hayajoni, emotsiyasini ifodalaydigan o'rinlarda ko'p nuqta qo'llaniladi: *Hmm... dedi u va bir nima demoqchi*

bo'lib, fikr to'playotgan edi... (A.Q.) Saida... qop-qora va yopishqoq bir narsaga toyib yiqildi. Qon!... (A.Q.)

3. Matn yoki jumla qisqartirilsa, ko'p nuqta ishlatiladi. Bu holat havolalarda, ko'chirma nutqlarda ko'p uchraydi. Qiyoslaylik: *Davlat hukumat vijdon erkinligining Konstitutsiyada belgilangan kafolatlariga og'ishmay rioya qilinishini yoqlab, dindan jamiyat va shaxs manfaatlariga zarar yetkazadigan holda foydalanishga o'rinishlarni qoralaydi. Hukumat... dindan jamiyat va shaxs manfaatlariga zarar yetkazadigan holda o'rinishlarni qoralaydi. (gazetadan)*

4. Yozuvchi aytmoqchi bo'lgan, ammo yozma nutqda berilishi mumkin bo'lmagan o'rinlarda ko'p nuqtadan foydalaniladi: *Muhabbat degan so'z nimalarni niqoblamaydi: Ermak, hirs, jinoyat, ovunish... (Asq.M.) Luqmonchaga o'jarlik qilmagandirsiz, farishtam, – dedi Xoldor hansirab. Hadeb Luqmonchani gapiravermang. O'lgiday zeriktirsa ham, tinchgina gaplashib o'tirardi. Siz bo'lsangiz... (Asq. M.) Esingdami, bug'doyzorda – g'aram ichida... (E.V.) Bitta so'zni hadeb hijjalab, Oxir dedi:– fohisha, ... (H.O.)*

5. Ona tili darsliklarida berilgan mashqlarda tushirib qoldirilgan va o'quvchi tomonidan qayta tiklash kerak bo'lgan so'z, grammatik elementlar, qo'shimchalar o'rniga ko'p nutqda qo'yiladi: *Akam... ko'r-dim. // Akamni ko'rdim. Salim... keldim. G'G' Salim bilan keldim kabi.*

TIRE VA UNING QO'LLANISH O'RINLARI

Tire sodda gap doirasida quyidagi vazifalarda qo'llaniladi:

1. Ajratilgan bo'laklarni ajratish, chegaralash, ulardagi emotsionallikni bo'rttirib ko'rsatish uchun tirening qo'llanilishida ikki holat bor:

a) ajratilgan bo'lak o'zi bog'langan bo'lak bilan bir umumiy grammatik ko'rsatkichga ega bo'lsa, shu ko'rsatkich orqali boshqa bo'laklar bilan aloqaga kirishadi. Bunday holda tire ajratilgan bo'lakning oldidagina qo'yiladi, xolos: *Nosirov qabulxonada hurmat bilan o'rnidan turgan yordamchisi – yigirma ikki yoshlardagi... nozik qizga salom berib, kabinetiga kirib ketdi. (A.Q.) Biroq hozir begona odam oldida, yana kolxoz rahbari bo'ladigan odamning – yosh bir qizning oldida aytilgan bu gaplar uni hijolatga soldi. (A.Q.)*

b) grammatik jihatdan mustaqil bo'lib, ohang jihatidan ikki tomondan pauza bilan ajratilgan bo'laklarning har ikki tomonidan tire qo'yiladi: *Tog'alarim – Egamberdi va Rahimberdi, – meni bir-bir quchoqlab ishga beriladilar. (O.)*

2. Kiritma qurilmalarni chegaralash uchun: *Bilmadim, g'urur yo'l*

qo'ymadimi – yoshlikda nimalar bo'lmaydi – yo uning menga e'tiborsizlik bilan qaragani yoqmadimi, bormadim, hatto qarshisiga ham yurmadim. (O'.Umarbekov).

3. Ikki yoki undan ortiq otning birikuvidan tuzilib, biron tashkilot, ta'limot, ilmiy muassasalarning nomini anglatuvchi so'zlar orasiga tire qo'yiladi: *Karpov – Kasparov matchi. Toshkent – Termiz poyezdi.*

4. Makon, zamon o'rtasidagi chegarani anglatish uchun: 30-40 yillar, XX-XXI asrlar. Bunda tire **...dan ...gacha** shakllarining vazifasida qo'llanadi: *1941-1945 yillarda fashizmga karshi ko'rashdik. 1941 yildan to 1945 yilgacha fashizmga qarshi ko'rashdik.*

5. Direktiva, ustav, farmon va qarorlarda har bir obzasda qo'yilishi kerak bo'lgan numerativlar o'rnida tire ishlatiladi. Har bir qoida raqamlar bilan emas, tire vositasida sanab ko'rsatiladi.

6. Bog'lamasi tushirilgan ot kesimli gaplarda tire qo'llaniladi: *Paxta – qudrat, paxta – neft.* (T.T.)

7. Kesimi yoki kesim tarkibi qo'llanmagan elliptik gaplarda ega yoki ega tarkibidan keyin tire qo'yiladi: *Hamma – saylovga! Gazeta – ommaga! O'g'it – dalaga!*

8. Ega logik urg'u olib, maxsus ta'kidlanganda, kesim bog'lama bilan shakllansa ham, tire ishlatiladi: *Men – mustaqil jamiyat fuqarosi-man. Halol mehnat – baxt demakdir.*

9. Uyushiq bo'laklarni umumlashtiruvchi so'zlardan ajratish uchun qo'llaniladi: *Bog'imizda olma, anor, shaftoli – hammasi pishdi.*

Tire qo'shma gap tarkibida quyidagi ma'nolarni yozuvda ko'rsatish uchun qo'llaniladi:

1. Ta'kid: *Har yerni qilma orzu – u yerda bor toshu tarozi* (maqol).

2. Zidlik: *Kunduzi issiq – kechasi sovuq.*

3. Shart: *Bolamga yana til tegdir – soqolingni bittalab yulaman* (O.).

4. Sabab: *Shu yo'l bilan bordik – yetdik murodga* (U.).

5. Payt: *Bahor keldi – dala ishlari qizib ketadi.*

6. O'xshatish: *Suv keldi – nur keldi. Vaqting ketdi – baxting ketdi. Qor yog'di – don yog'di* (maqol).

7. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning birortasi to'liqsiz yoki elliptik ko'rinishda shakllangan bo'lsa, o'sha to'liqsizlikni qoplash uchun yozuvda tire ishlatiladi: *Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod. Oltin o'tda bilinadi, odam – mehnatda.* (maqollar)

8. Dialoglarda personajlar nutqining birini ikkinchisidan ajratish, ularning boshlanish nuqtasini ko'rsatish uchun tire ishlatiladi: – *Ota, bir narsa so'rasam, malol olmaysizmi? – So'rang, bolam. – O'g'illaringizni*

gapirib bersangiz. (S.Ahm.)

9. Ko'chirma gapni muallif gapidan ajratish uchun: *Bilasizmi,—dedi Nosirov, — keyingi ikki yil ichida rahbar besh marta almashinibdi.* (A.Q.)

QO'SHTIRNOQ VA UNING QO'LLANISH O'RINLARI

1. Ko'chirma gap (nutq) qo'shtirnoq ichiga olinadi: *"Partov yer ko'pmi ? Qo'riq qancha ?"* – dedi Nosirov. (A.Q.)

2. Havola, iqtiboslar qo'shtirnoq bilan chegaralanadi: *"Til – jamiyatning eng muhim aloqa vositasidir", – degan edi domlamiz.*

3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar kesatiq yoki o'zining odatdagi ma'nosidan boshqa xil ma'noda qo'llangan so'z va iboralar qo'shtirnoqqa olinadi: *"Qalandarov "soyada o'sgan" raislardan", – dedi Saida. (A.Q.) Siz o'zingizga "ayol" deb qarasangiz, biz dodimizni kimga aytamiz. (A.Q.) Bu yil Mehri Zulfiqorovga, yangi yilda esa Zulfiqorov Mehrinisoga "qarashadigan" bo'ldi. (A.Q.) Qirildi bir talay qo'y, Bo'ri-larga bo'ldi "to'y ". (U.)*

4. Badiiy asar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, ashula, spektakl kabi-larning nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: *"O'tkan kunlar" romani Qodiriy ijodida alohida o'rin tutadi. (taqrizdan). Yigit gumbirlatib "Rohat"ni chalib yubordi. (O.) Jangda ham yodimda ..."Gulyor" (U.) Umida yangi kelgan "Guliston"ni varaqlab o'tirardi. (A.Q.)*

5. Muassasa, tashkilot, korxona, fabrika, zavod, mehmonxona, do'-kon kabilarning nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: *Arslonbek Qalandarov – "Buston" kolxozining raisi. (A.Q.) "Interkontinental" mehmonxonasi Toshkentga ko'rk bag'ishlab turibdi.*

6. Orden, medal kabi unvonlar nomi qo'shtirnoqqa olinadi: *Sobir Abdulla... ikki marta "Hurmat belgisi" ordeni va "Shavkatli mehnati uchun" medali bilan mukofotlandi. (G'.G'ulom so'z boshisidan) Taniqli tilshunos olim, professor Shavkat Rahmatullayev "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.*

7. Kashfiyotlar: o'simlik, taom, kiyim-kechak; mashina, samolyot, televizor kabi maxsus atamalarning nomlari qo'shtirnoqqa olinadi: *U yuqoridan eshitilayotgan ovozning maqom va maromidan "Il" samolyoti uchayotganini darrov payqadi. (telejurnaldan) "Chust" do'ppisi hamma-ga yoqdi. "Charos" uzumi, "Neksiya, "Damas", "Tiko" mashinasi kabi.*

8. Ichki monolog – o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi: *Saida bu ishni boshlaganiga po'shaymonlik sezdi. "Nahotki, men ishni shunday, yana shu xilda boshlashim kerak bo'lsa". Bunaqada hali ish boshlamasdan oramizni buzib qo'yaman-ku!..." (A.Q.)*

9. Sinf, buyruq va qarorlarning ayrim bandlariga qo'shib yoziladigan harflar qo'shtirnoqqa olinadi: IX "A" sinf, 147-"A" sonli qaror, 18-moddaning "D" bandi kabilar.

10. Baho ballari qo'shtirnoqqa olinadi: "besh", "to'rt", "uch", "ikki" yoki "a'lo", "yaxshi", "o'rta" ("qoniqarli"), "yomon" kabi. Unutib bo'lar-mi yarqiroq tabel – Aqlimning ko'zgusi "besh" yakunlarin. (Y.Hamdam).

11. Matn ichida kelgan maqol va sarlavhalar qo'shtirnoqqa olinadi: "Bahilning bog'i ko'karmas", degan gap bor(og'izdan) Maqolaga "Buston" deb sarlavha qo'yilgan bo'lsa ham, lekin gap Qalandarov haqida ketar edi. (A.Q.)

IKKI NUQTA VA UNING QO'LLANILISH O'RINLARI

Ikki nuqta mazmuni to'la ifodalanmagan, bu mazmun o'zidan keyingi gaplar vositasida izohlanadigan gaplar oxirida ishlatiladi. Demak, ikki nuqta ma'lum gap orqali anglashilgan fikrning davomiyligini, tugallanmaganligini, bundagi tugallik keyingi gaplar orqali aniqlanishini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Ikki nuqta qo'yilgan o'rinda ma'lum miqdordagi to'xtam, davomli ohang, fikr davomiga, bundan keyingi izohga ishora sezilib turadi: *Saida daftarini olib yozdi: shirkat boshliqlari bilan suhbatlar o'tkazish, ma'ruza masalalari, faollar bilan suhbat, maorif muammolari, ijroni tekshirish...* (A.Q.)

Ikki nuqta ko'proq quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Mazmuni izohlanayotgan, aniqlanayotgan gapdan keyin. Bunday gaplarda ko'pincha **quyidagicha**, **tubandagicha** kabi so'zlar qo'llaniladi; keyingi gaplar yoki izohlovchi komponentlar birdan ortiq bo'ladi va ba'zan numerativlar bilan beriladi: *Risola muallifi quyidagicha fikr yuritgan: a) asarda arxeologiya fanining keyingi yutuqlari hisobga olingan; b) kushon imperiyasi davriga xarakteristika berilgan...* (gazeta)

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi izohlanuvchi gapning mazmunini ta'kidlash, aniqlash uchun ikki nuqta qo'llaniladi. Bunday gaplar tarkiibda ko'p hollarda izohlanishi kerak bo'lgan olmoshlar, **bor** kabi mavhum so'zlar qo'llaniladi yoki shu so'zlar qo'llanilmasligi ham mumkin:

O'zing o'ylab qara: va'da bersagu,

Bajara bimasak axir, uyat-ku! (U.)

Istardim: avvalgi shuhrating yana

Tiklansa tillardan tushmasa isming. (U.)

Maqsadimiz shu: yigit,

El tilagi shu: yigit,

Oshig'ing olchi bo'lsin!

Qalbing quvonchga to'lsin (F.)

3. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi keyingi gap oldingi gapning sababini bildirsa, birinchi gapdan keyin ikki nuqta ishlatiladi: *Yurtboshimiz bor: tinchlik barqaror, xonadonlarda dorulamon.* ("Guliston").

4. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelganda, undan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: *Kuzatildi butun xalq: rus, ukrain, o'zbek, yaxudiy.* (G'.G'.)

5. Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta ishlatiladi: *Shoir deydi: Qalbim vatanga papvasta.* (gazeta). Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida kelsa ham, muallif gapining ega yoki ega tarkibidan keyin ikki nuqta ishlatiladi: *Bozurgon: Men sen bilan aka-uka kirishaman,— dedi* (F.)

6. Qaror, reja, mavzu, maqsad kabi so'zlar yakka holda, ta'kid ma'nosida qo'llanilsa, ma'nosi izohlanadigan bo'lsa, undan keyin ikki nuqta qo'yiladi:

Reja:

1. *Kirish.*

2. *Asosiy qism.*

3. *Xulosa.*

Darsning mavzusi: "Otlarda kelishik qo'shimchalari"

Darsning maqsadi: O'quvchilarda kelishik qo'shimchalari haqida tushuncha va ko'nikma hosil qilish.

7. Ikki nuqta raqamlar orasida qo'llanilganda teng bog'lovchi vazifasini bajargan bo'ladi: *"Bunyodkor" – "Paxtakor " o'yini 2:0 hisobida tugadi // O'yin ikkiyu nol hisobida tugadi;*

Shuningdek, ikki nuqta matematikada **6:2** shaklida (olti bo'luv ikki yoki oltini ikkiga bo'lish ma'nosida) ham qo'llaniladi.

Punktuatsiyaga doir amaliy mashg'ulot og'zaki, yozma yoki tajriba shakllarida o'tkaziladi.

Birinchi holatda ma'lum bir gap yoki matndagi tinish belgilarining qo'llanish sabablari auditoriyada (bularni mustaqil ham bajarish mumkin) og'zaki izohlab beriladi. Tahlil namunasi: *"Neft"chilar charchab davradan chiqa boshlaganlaridan keyin, haqiqatdan, o'yindan fayz ketdi.* (A.Q.)

Bu gapda uch xil tinish belgisi (qo'shtirnoq, vergul, nuqta) ishlatilgan.

1. Neft so'zi ma'nosida qo'llanilmaganligi uchun qo'shtirnoqqa

olingan.

2. Kirish so'z (haqiqatdan) gap o'rtasida kelib, ikki tomondan pauza bilan ajratilganligi uchun vergul qo'llanilgan.

3. Birinchi vergul ikki ma'no, ya'ni omonimik vazifa bajargan: a) ergash gapni bosh gapdan, b) kirish so'zni asosiy gapdan ajratgan.

4. Pasayib boruvchi ohangga ega bo'lganligi, xabar anglatganligi uchun gap oxiriga nuqta qo'yilgan.

Ikkinchi holatda tinish belgilari tushirib qoldirilgan ma'lum matn tanlanib, uni kerakli tinish belgilari bilan to'ldirilishi (yozma ravishda) talab qilinadi.

Tahlil namunasi: *Uning hovlisini uyini ruzg'orini ko'rib Saidaning og'zi ochilib qoldi hovli emas guliston bo'ston uy emas kichkina qasr ro'zg'or emas xazina muzey.* (A.Q.)

Gapning tinish belgilari bilan to'ldirilgan shakli: *Uning hovlisini, uyini ruzg'orini ko'rib Saidaning og'zi ochilib qoldi: hovli emas, guliston – bo'ston, uy emas, kichkina qasr, ro'zg'or emas, xazina – muzey.*

Uchinchi holatda tinish belgilarining o'rni bilan bog'liq bo'lgan ohang va uning komponentlari tajriba yo'li bilan tekshiriladi va ularning intonogrammalari olinadi.

SHARTLI QISQARTMALAR

A.R. – Adham Rahmat	S.Abd. – Sobir Abdulla
Asq.M. – Asqad Muxtor	S.Zun. – Saida Zunnunova
A.Q. – Abdulla Qahhor	T.T. – Turob To'la
Z.F. – Zinnat Fatxullin	U. – Uyg'un
I. – Islom shoir	F. – Folklor
I.R. – Ibrohim Rahim	“F.T.” – “Fan va turmush”
K.Y. – Komil Yashin	X.S. – Xayriddin Saloh
“K.D.” – “Kalila va Dimna”	E.A. – Erkin A'zam
Muq. – Muqimiy	E.V. – Erkin Vohidov
M. – Mirmuhsin	Q. – Qo'shiqdan
N. – Navoiy	G'.G'. – G'afur G'ulom
O.Y. – Odil Yoqubov	H.O. – Hamid Olimjon
P.T. – Parda Tursun	H.Sh. – Husayn Shams
R.F. – Rahmat Fayziy	H.G'. – Hamid G'ulom
S. – “Saodat”	H.H. – Hamza Hakimzoda
S.Ayn. – Sadriddin Ayniy	

ADABIYOTLAR

Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап. – Тошкент: Фан, 1957.

Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: Фан, 1958.

Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1964.

Абдурахмонов Ғ.А. Эргаш гапли қўшма гаплар масаласи // Ўзбек тили грамматикаси ва пунктуацияси масалалари. – Тошкент, 1959.

Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гаплар классификацияси масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, Тошкент, № 4, 1960.

Абдурахмонов Ғ.А. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

Абдурахмонов Ғ.А., Сулаймонов А., Холиёров Х.Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.

Азизова А.Г. Ўзбек тилида шарт ва тўсиқсиз эргаш гаплар. – Тошкент: Фан, 1955.

Азларов Э. Ўзбек тилида бир неча эргаш гапли қўшма гаплар масаласига доир // Низомий номидаги ТДПИнинг асарлари, XII китоб, 1959.

Асқарова М.А. Сабаб ва мақсад эргаш гапли қўшма гап // Низомий номидаги ТДПИнинг асарлари, IV китоб, 1957.

Асқарова М.А. Аниқловчи эргаш гапли қўшма гап // Низомий номидаги ТДПИнинг асарлари, XII китоб, 1959.

Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гаплар. – Тошкент: Фан, 1960.

Аскарова М.А. Сложные предложения с придаточными дополнительными в узбекском языке // Вопросы составления описательных грамматик. – М: 1961.

Асқарова М.А. Қўшма гапнинг кўчирма гапли тури ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, № 1, 1961.

Аскарова М.А. К вопросу о придаточных предложениях в узбекском языке // Труды ТашГУ, кн. 12, 1963.

Асқарова М.А. Эргашган қўшма гапларнинг синтактик синонимикаси масаласига доир // Низомий номидаги ТДПИнинг

асарлари, 42- том, 1- китоб, 1963.

Асқарова М.А. Нисбий сўз ва изоҳланувчи сўзларнинг эргаш гап компонентларини бириктиришдаги роли // Совет мактаби, № 6, 1965.

Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. – Тошкент: Фан, 1966.

Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. – Тошкент: Фан, 1989.

Гаджиева Н. Основные пути развития синтаксической структуры тюркских языков. – М.: Наука, 1973.

Закиев М.З. Синтаксический строй татарского языка. – Казань: 1963.

Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

Махмудов Н., Нурмонов А., Аҳмедов А., Солихўжаева Л. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.

Мирзаев М., Эшонқулов Ю. Ҳозирги замон ўзбек тилидан машқлар тўплами. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986.

Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л.: 1960.

Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1961.

Шодмонов Э. Сўз-гапларнинг баъзи хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, № 2, 1969.

Шарипов М.К. Ўзбек тилида кўчирма ва ўзлаштира гап. – Тошкент, 1955.

Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида пунктуация. – Тошкент, 1955.

Шоабдурахмонов Ш. Пунктуация қоидалари. – Тошкент, 1958.

Қудратов Т., Нафасов Т. Лингвистик таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981.

Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965, 1987.

Ҳожиёв А.П. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 2002.

Omonturdiyev J., Omonturdiyev A.

Hozirgi o'zbek adabiy tili

(qo'shma gap va punktuatsiya)

O'quv qo'llanma Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasiva universitet o'quv, ilmiy-metodik
kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Mas'ul muharrir: M.Asqarova
Texnik muharrir: R.Bozorova
Musahhih: N.Murodov

Terishga berildi: 11.01.2010. Bosishga ruxsat etildi:
22.02.2011. Bichimi 60x42. 6,0 bosma toboq. Adadi 500 dona.
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedراسي kompyuterida
terildi va chop etildi. F.Xo'jayev ko'chasi, 43.

qaydlar uchun

96,1,94,3,92,5,90,7,88,9,86,11,84,13,82,15,80,17,78,19,76,21,74,23,72,25,70,27,68,29,66,31,64,33,62,35,
60,37,58,39,56,41,54,43,52,45,50,47
2,95,4,93,6,91,8,89,10,87,12,85,14,83,16,81,18,79,20,77,22,75,24,73,26,71,28,69,30,67,32,65,34,63,36,61
,38,59,40,57,42,55,44,53,46,51,48,49